



Zokirov Shohruxbek

Yuridik atamalar lug'ati va ularning tarixi

Yuridik atamalar lug'ati va ularning tarixi

Ushbu yuridik lug'atda chet el mamlakatlari tilidan olingan yuridik atamalar, ularning kelib chiqish tarixi, qo'llanilishi, qanday ma'noga ega ekanligi, xalqaro huquqda qo'llanilishi va O'zbekiston Respublikasida ushbu atamalarning qaysi qonunlar bilan tartibga solinishi haqida ma'lumotlar berilgan. Ko'plab huquq sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar va pedagoglarning amaliy faoliyatida az qotadi degan umiddaman. Kitob haqida taklif va fikrlar qabul qilinadi.



Zokirov Shohruxbek Zohidjon o'g'li.
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya
vazirligi Qo'qon davlat pedagogika instituti



Globe
EDIT

Zokirov Shohruxbek

Yuridik atamalar lugʻati va ularning tarixi

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom Str. Armeneasca
28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of

Moldova, Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-64706-1

Copyright © Zokirov Shohruxbek

Copyright © 2023 Dodo Books Indian Ocean Ltd.

S.R.L publishing group ON

Zokirov Shohruxbek Zohidjon o'g'li

YURIDIK ATAMALAR LUG'ATI VA ULARNING TARIXI

Ushbu yuridik lugʻatda chet el mamlakatlari tilidan olingan yuridik atamalar, ularning kelib chiqish tarixi, qoʻllanilishi, qanday maʼnoga ega ekanligi, xalqaro huquqda qoʻllanilishi va Oʻzbekiston Respublikasida ushbu atamalarning qaysi qonunlar bilan tartibga solinishi haqida maʼlumotlar berilgan. Koʻplab huquq sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar va pedagoglarning amaliy faoliyatida az qotadi degan umiddaman. Kitob haqida taklif va fikrlar qabul qilinadi.

Ushbu kitob Qoʻqon davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy gʻoya, maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi kafedrasining 15.03.2023 yildagi navbatdan tashqari yigʻilishi va Qoʻqon davlat pedagogika instituti oʻquv-uslubiy kengashining 2022-2023 oʻquv yili 8-sonli yigʻilishi qarorlariga asosan nashrga ruxsat etildi.

Taqrizchilar:

Azamov. J - Qoʻqon Davlat Pedagogika Instituti Moliya va Iqtisodiy ishlar boʻyicha prorektori. Yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori. Dotsent.

Siddiqov. N – Qoʻqon Davlat Pedagogika Instituti dotsenti. Yuridika fanlari nomzodi.

Kirish

Inson aqliy faoliyati rivojlangani sari barcha jabhalarda o'ziga qulaylik yaratish maqsadida yangidan-yangi g'oyalar va fikrlar yaratilmoqda. Shu bilan birga zamon tezlashib barcha sohalar rivojlanib bormoqda. Barcha sohalar kabi huquq sohasiga ham ehtiyoj ortib bormoqda. Insonlar ongli ravishda o'z huquq va majburiyatlari mohiyatini chuqur va keng ravishda anglab yetmoqda. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida qator islohotlar olib borilmoqda. Bunga misol davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya" a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqda ham bu islohotlar haqida quyidagicha ta'kidlab o'tildi: "Fuqarolarning tinch, erkin va farovon yashashi Hukumat va mahalliy ijro organlari faoliyatining bosh mezoniga aylanishi zarur. Sud-huquq tizimini qoralovchi, jazolovchi organdan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylantirish – islohotlarimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega".¹

Darhaqiqat bugungi tahlikali va xar-xil mafkuraviy xurujlar davrida nafaqat mafkuraviy imunitet balkim huquqiy ong ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning asosi bo'lmish inson hisoblanib deyarli barcha ehtiyojlar inson uchun xizmat qilish uchun qaratiladi. Shu asnoda davlatimizda inson qadr-qimmati alohida ahamiyatga ega ekanligi takror e'tirof etilayotgani ham bejiz emas. Hozirgi davrda fuqarolarning asosiy yutug'i o'z huquqlarini oshkora anglab yetayotganlaridir. Avvalo inson huquqiga to'xtalib o'tsak. Inson huquqi — ijtimoiy-ma'naviy, demokratik-huquqiy ong o'zagidir. Huquqiy madaniyat haqqoniy ahamiyat kasb etishi uchun insonlar nafaqat huquqni bilishi, balki ularda qat'iy ishonch, kafolat va hissiyot bo'lishi kerak. Shu ma'noda ham, yuksak huquqiy madaniyat barcha sohadagi islohotlar, reja va dasturlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan, eng muhimi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichi vazifasini bajaradigan bashariyat e'zozlaydigan dunyoviy qadriyatdir. Qolaversa,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari" bilan uchrashuvidagi nutqdan. Toshkent sh. 20.06.2022

huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladigan buyuk ijtimoiy-yuridik qadriyatdir. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyat milliy g'oyamiz — yurt tinchligi. Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarga hamohang qadriyatdir. Huquqiy madaniyat dialektik juftlik bo'lgan davlat va jamiyatning ajralmas elementidir. Yuksak huquqiy madaniyat — erkinlik va qonunga bo'ysunib yashash demakdir. Binobarin O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: “Erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi ko'p ko'p davlatlar asrlar davomida to'plangan tajriba va demokratik an'analarni rivojlantira borib yetib kelgan. Biz bunday jamiyatni qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz. Lekin bu go'zal orzuga erishmoq uchun tinimsiz intilish, jamiyat hayotining barcha sohalarini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganib, o'z zaminimizga tatbiq etish lozim”.²

Barcha jabhalarda bo'lgani kabi huquq sohasi ham insoniyat uchun suv va havodek eng zarur bo'g'inlaridan biri. Hayotimizni huquqsiz tasavvur etib bo'lmaydi, binobarin huquqni amalga oshirish va uni himoya qilish uchun shaxs huquqiy madaniyatga ega bo'lishi shart. Shu bois, huquqiy madaniyat demokratik taraqqiyotga erishishning davlat-huquqiy vositasidir. Huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish islohotlari olib borish davlatning rivojlanish strategiyalaridan biri bo'lmog'i zarur. Huquqiy madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rni ko'p qirrali. Huquqiy madaniyat insoniyatning uyg'un rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, u orqali umumiy ijtimoiy taraqqiyotga erishiladi. Ushbu taraqqiyot shaxsni boyitib, jamiyatni tinch va tartibli rivojlanish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar bilan ta'minlaydigan tegishli huquqiy qadriyatlarni (ijtimoiy nizolarni hal qilish usullari va vositalari, inson huquqlarini ta'minlash institutlari va boshqalar) yaratishni nazarda tutadi. Huquqiy madaniyat insoniyat tomonidan to'plangan huquqiy qadriyatlarning yo'nalishi bo'lib, uning barcha elementlari (normalar, huquqiy hujjatlar, institutlar, jarayonlar, rejimlar, maqomlar) inson ruhi, tarixiy tanlovi, mehnati, hayotiy aprobatiya. Bu tur madaniyat amalda yagona global shakl bo'lib, u orqali milliy huquqiy hodisalarning qadr-qimmati va o'ziga xosligi - davlatchilik, huquq-tartibot, huquq tizimi takrorlanadi.

² I. Karimov. “Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz”. T 7-T “O'zbekiston”. 1999. 304-bet.

“Fuqarolar siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirishda davlatning fuqarolar murojaatlariga munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan faqat fuqarolargina emas, balki davlat ham manfa’atdordir. Chunki fuqarolarning murojaatlari mamlakatda ularning umumiy ahvolini, siyosiy faolligini va turmush darajasini hamda ehtiyojlarini, talab-istaklarini ko’rsatuvchi ko’zgu vazifasini bajarishi, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o’z natijasini berishi mumkin”.³

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan oq davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi mamlakatda huquqiy demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fuqarolarning siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish bo‘lib kelmoqda. Ushbu islohotlarda asosiy ro‘llardan birini huquqni muhofaza qiluvchi organlar egallaydi. Sababi esa ishlab chiqilgan ha hayotimizga joriy qilingan qonunlarni bajarilishini ular nazorat qiladi. Ularning faoliyatida ishlash samaradorligini yana yaxshilash uchun ushbu “Yuridik atamalar lug‘ati va ularning tarixi” ilmiy-uslubiy qo‘llanmasi ham hissa qo‘shadi degan umiddaman. To‘g‘ri shu kungacha bunday yuridik lug‘atlar kitoblari yetarlicha edi, lekin ushbu kitobni yozishdan maqsad yuridik lug‘atlar asosan o‘zbek (kiril) alifbosida yozilgan bo‘lib, atamalarning qanday kelib chiqishi va tarixi haqida ma‘lumotlar kam berilib ketilgan edi. Ushbu kitobda esa yuridik atamalar lug‘atlari zamon bilan hamnafas va hozirgi yoshlarning ehtiyojlaridan kelib chiqilgan holda o‘zbek (lotin) alifbosida yaratildi. Bundan tashqari har bir chet tili so‘zlaridan olingan atamalar lug‘atlari haqida uning tarixi haqida ham alohida to‘xtalib o‘tildi. Bunda “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati”, “O‘zbekiston Milliy Ensikolpediyasi” va xorijiy adabiyotlaridan manba sifatida keng foydalanildi. Ushbu “Yuridik atamalar lug‘ati va ularning tarixi” ilmiy-uslubiy qo‘llanmasi yuridik sohada faoliyat olib boruvchi xodimlar, o‘qituvchi-professorlar, o‘quvchi-yoshlar, mustaqil izlanuvchilar va eng ahamiyatlisi huquq sohasiga qiziquvchi, o‘z huquqlariga befarq bo‘lmagan fuqarolarimizga amaliy ko‘makchi bo‘lib xizmat qiladi.

³ Sh. Xudoyberganov. “HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYA ASOSLARI” o‘quv uslubiy majmua. Qo‘qon-2022. 4-bet.

A

Abdikatsiya (inglizcha: abdication, lotincha. abdicatio) “taxtdan voz kechish” soʻzi lotincha abdicatio soʻzidan olingan boʻlib, rad etish yoki voz kechish (ab, uzoqlashish va dicare — eʼlon qilish) maʼnosini bildiradi.⁴ Keng maʼnoda taxtdan voz kechish – bu har qanday rasmiy lavozimdan voz kechish va isteʼfoga chiqish harakati, lekin u, ayniqsa, davlatning oliy lavozimiga nisbatan qoʻllaniladi. Rim huquqida bu atama oila aʼzosidan voz kechish, masalan, oʻgʻlini merosdan mahrum qilish uchun ham qoʻllanilgan. Bugungi kunda bu atama odatda monarxlarga nisbatan qoʻllaniladi. Saylangan yoki tayinlangan mansabdor shaxs taxtdan voz kechish oʻrniga isteʼfoga chiqishi aytiladi. Eʼtiborga molik istisno – bu papaning Rim episkopi (va shunday qilib, Vatikan davlati suvereni) lavozimidan ixtiyoriy ravishda voz kechishi, papa isteʼfosi yoki papadan voz kechish deb ataladi. Taxtdan voz kechish - monarxiya hokimiyatidan rasman voz kechish. Taxtdan voz kechish monarxiyalarning vorislik tartib-qoidalarida turli rol oʻynagan. Baʼzi madaniyatlar taxtdan voz kechishni oʻz burchlarini haddan tashqari tark etish sifatida koʻrgan boʻlsada, boshqa jamiyatlarda (masalan, Meiji tiklanishidan oldingi Yaponiya) taxtdan voz kechish muntazam hodisa edi va siyosiy vorislik davrida barqarorlikni saqlashga yordam berdi.

Abonement (fransuzcha: abonnement) biror narsa (teatrda oʻrin, kutubxona, telefon va sh.k.)dan muayyan muddatgacha foydalanish huquqi, shuningdek bu huquqni beruvchi hujjat. Masalan: Kutubxona axborotlarni kitobxonlarga matbuot asarlarini maʼlum muddat davomida kutubxonadan tashqarida foydalanish huquqini beradi.⁵

Abort (lotincha: abortus) “bola tashlash” boʻlib ushbu yoʻldan noqonuniy, qonunlarda belgilangan qoidalarga rioya qilmasdan

⁴ “Abdicate | Etymology, origin and meaning of abdicate by etymonline”.

⁵ “Abonement” OʻzME. A-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

foydalanish. Abort qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, tabiiy abort qilish vositalari turli qabila xalqlari orasida va aksariyat yozma manbalarda uchraydi. Abort qilish usullari va umumiy reproduktiv tartibga solish haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar Xitoyda miloddan avvalgi 2700 yilga va Misrda miloddan avvalgi 1550 yilga to'g'ri keladi.⁶ Eng qattiq jazolar, odatda, erining xohishiga qarshi abort qilgan ayolga va yuqori mavqega ega ayolda abort qilgan qullarga nisbatan qo'llanilgan. Diniy birlashmalar ham ko'pincha abortni qattiq qoralaydi, tavba qilishni tavsiya qiladi. Angliya va Qo'shma Shtatlardagi umumiy qonunga ko'ra, homilaning harakatini ayol birinchi marta sezishi mumkin bo'lgan har qanday vaqtda, homila tezlashgandan keyin, abort qilish noqonuniy edi. Tirik tug'ilish qoidasiga ko'ra, homila "oqilona mavjudot" hisoblanmadi va abort ingliz qonunchiligida qotillik deb hisoblanmay qo'yildi.

Abrogatsiya (lotincha: abrogation) jamiyatning ehtiyojiga qarab qonuni bekor qilish. Rim huquqida abrogatio, umuman olganda, qonun yoki sud jarayonini bekor qilishdir. Dastlabki abrogatsiya Lex Canuleia qonuniga nisbatan qo'llanilgan bo'lib ushbu qonun Qadimgi Rimda patritsiy va pleybeylar nikohini taqiqlagan qonun edi. Shuningdek, qadimda fuqaroning huquqlarini bekor qilish u surgunga jo'natilishidan oldingi zaruriy shart edi.⁷

Absolyutizm (lotincha: absolutus) "mutlaq chegaralanmagan", bir kishining cheksiz hukmronlikni idora etish usuli, mustabid hokimiyat, chegaralanmagan monarxiya. Bunda siyosiy hokimiyat - qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tamomila bir kishi - qirol, podshoh, shoh, xon yoki imperator qo'lida buladi. Absolyutizm feodal davlat shakllaridan biridir. Absolyutizmida davlat eng yuksak darajada markazlashgan bo'lib, keng tarmoq otgan amaldorlik idora va mahkamalari, muntazam qo'shin politsiya yaratiladi. toifa vakillik organlari (masalan, Fransiyada General Shtatlar, Rossiyada Zemskiy Sobor) faoliyati esa barham topadi. Absolyutizm turli mamlakatlarda o'ziga xos vujudga keldi va rivoj topdi. Feodallar davlatning sunggi

⁶ Joffe, Carole (3 April 2009). "Abortion and Medicine: A Sociopolitical History". *Management of Unintended and Abnormal Pregnancy: Comprehensive Abortion Care*: 1–9. Doi:10.1002/9781444313031.ch1. ISBN 9781444313031 – via Wiley Online Library.

⁷ Jo-Marie Claassen, "Exile, Roman," in *The Oxford Encyclopedia of Ancient Greece and Rome* (Oxford University Press, 2010), p. 146.

bosqichidir. Gʻarbiy Yevropada XVII-XVIII asrlarga, Rossiyada esa XVIII- XX asr boshlariga toʻgʻri keladi. Rivoyat qilishlaricha, Fransiya qiroli Lyudovik XIV (1638-1715 yillar) “Davlat — bu men”, degan ekan. Mutlaq monarxiyasi Oʻrta Osiyo davlatlaridan Buxoro amirligi, Xiva va Qoʻqon xonliklari timsolida namoyon boʻlgan. Rossiyada mutlaq monarxiyasi 1917 yil fevral inqilobidan soʻng, Buxoro va Xivada esa 1920 yilda tugatilgan.⁸

Aval (fransuzcha: aval) aval veksel boʻyicha kafillikni anglatuvchi tushuncha. Fuqarolik huquqida kafolatlangan yozuv koʻrinishida uchinchi shaxs tomonidan veksel topshirigʻi yoki davo boʻyicha toʻlov kafolatidir. Aval vekselar muomalasi bilan bogʻliq fuqarolik munosabatlarida qoʻllaniladi. Aval vekselning butun qiymati, yani maʼlum qismi boʻyicha, veksel bilan bogʻliq istalgan tarafga berilish mumkin. Aval vekselning oʻng betiga yoki ilova qismiga imzo shaklida belgilanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksing 811 – moddasida toʻlov kafolati (aval), chek boʻyicha toʻlov kafolati (aval) vositasida toʻla yoki qisman kafolatlanishi mumkunligi belgilangan. Avalni toʻlovchidan boshqa har qanday shahxs berishi mumkin.

Avizo (italyancha: aviso) bank, tijorat amaliyotida hisob-kitob harakatlarining bajarilganligi toʻgʻrisida rasmiy xabarnoma. Banklar orqali mijozlarini amalga oshirilgan debit va kredit harakatlari, yozuvlari, hisob varaqasidagi qoldiqlar, pul oʻtkazmalarini toʻlash, chek talabnomasi, akkredetiv ochish va boshqa yozuvlar xususida xabardor qiladi. Tovar joʻnatuvchi (sotuvchi) tomonidan xaridorga tovar joʻnatilgani haqidagi xat ham Avizo deyiladi.⁹ Hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasining deyarlik barcha banklarida keng qoʻllaniladi.

Avtokratiya (grekcha: autokrateia) “mustabit hokimiyati”. Davlat boshqaruvi tizimi boʻlib davlat boshligʻi cheklanmagan hukumatga ega boʻlishi bilan izohlanadi. Bunda asosiy belgilar taxtning meros qoldirilishi, davlat boshligʻi buyrugʻlari qonunlardan ustun turadi.

⁸ “Yuridik atamalar qomusiy lugʻati”. Toshkent sh. “Sharq”-2003. 11-12-betlar.

⁹ “Avizo” OʻzME. A-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

O'rta asrlardagi monarxiyalar bunga misol. Bugungi kunda asosan Afrika mamlakatlarida uchrab turadi. Sababi esa hokimyatning zaifligidan foydalanib uni egallab olinishi va o'zboshimcha qarorlar chiqarilishi.

Avtonomiya (yunoncha: autonomia) "o'zini-o'zi boshqarishi", "o'zini qonuniylashtirish", "o'z qonuni" degan ma'nolarni beradi. Ushbu atama dastlab, antik davrda ya'ni eramizdan avval 397 yildan boshlab avtonomiya yunonlar bosib olgan hududlariga o'zini-o'zi qonunlari bilan boshqarishiga ruxsat berishi bilan bog'liq. Yuridik ma'noda avtonomiya – bu birlashmalarga, mulklarga, korporatsiyalarga ma'lum chegaralarda o'z normalari va qoidalariga amal qilish huquqidir. Hozirda yer yuzida ham ko'plab avtonomiyalar mavjud. Bularga misol Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Ispaniya kabi davlatlardagi mavjud avtonomiyalar.

Avtoritarizm (lotincha: auctoritas) "hokimyat" degan ma'noni bildiradi. Davlatni idora qilish usuli. Avtoritarizm da siyosiy hokimiyat hukmdor shaxsning yoki yetakchining siyosiy irodasi va qarorlari asosida amalga oshiriladi.¹⁰ Avtoritar davlatda g'ayridemokratik, avtoritar rejim hukmronlik qiladi. Avtoritar rejimdagi davlatlar uchun fuqarolarning huquq va erkinliklari cheklangan yoki butunlay tugatilganligi, muxolifatdagi partiya va boshqa tashkilotlarning ta'qiqlanganligi, saylab qo'yiladigan davlat organlarining roli cheklanganligi va ijro etuvchi hamda farmoyish beruvchi davlat organlarining roli kuchaytirilishi, davlat boshlig'i va hukumatning qo'lida hokimiyat vakolatlarining to'planishi, parlament va boshqa davlat hokimiyat organlarining rolini yo'qqa chiqarilganligi xosdir. Avtoritar rejimning eng xavfli shakllaridan biri fashizmdir. Fashistik rejim 20-asrning 30-40-yillarida g'arb mamlakatlarida (Germaniya, Italiya) paydo bo'lib, u erda mavjud bo'lgan demokratik huquq va erkinliklarni yo'qqa chiqardi va muxolif partiya va tashkilotlarni terroristik usulni qo'llab yanchib tashladi. Fashizmga ijtimoiy asosni hokimiyatga intiluvchi kuchlar va aldangan ishchi, dehqonlar qatlami yaratdilar.

¹⁰ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Agressiya (lotincha: *agressio*) “bosib olmoq”. BMT Nizomi nuqtai nazaridan har qanday noqonuniy, bir davlat tomonidan boshqa davlatning hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatishni qamrab oluvchi zamonaviy xalqaro huquq tushunchasi. Bunga misollar tarixda ko‘p bo‘lib, yaqin o‘tmishda Germaniyaning Sobiq Sovet davlatiga, AQSHning Veytnamga, Iroqning Quvaytga, Ispaniyaning Kubaga, Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishlari yoki ichki siyosatlariga aralashuvlarini ta’kidlab o‘tish joiz. Jinoyat huquqida esa agressiya atrofidagi odamlarga jismoniy va ruhiy zarar yetkavuzchi harakatlar hisoblanadi.

Advokat (lotincha: *advocatus, advoco*) “taklif etaman”. Yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy yordam ko‘rsatuvchi mutaxassis. O‘rta asrlarda advokat yirik feodal yoki muassasaning ba’zi dunyoviy majburiyatlarini bajarish qonuniy ravishda topshirilgan mansab egasi bo‘lgan. Bunday pozitsiyalar, ayniqsa Muqaddas Rim imperiyasida rivojlangan. Odatda, advokatlar qishloq xo‘jaligi erlarini, qishloqlar va shaharlarni kundalik boshqarish aspektlari bo‘yicha mas’uliyatni o‘z ichiga olgan holda rivojlandi. Ba’zi hududlarda advokatlar yirik viloyatlarning gubernatorlari bo‘lib, ba’zida Landvogt (nemis tilida) kabi atamalar bilan ajralib turardi. Vaqt o‘tishi bilan bu atama gubernatorlik va advokatlikning ko‘p turlariga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsada, advokatning eng qadimgi va eng muhim turlaridan biri cherkov advokati (*advocatus ecclesiae*) edi. Bular dastlab oddiy lordlar bo‘lib, ular nafaqat dunyoviy dunyoda diniy muassasalarni himoya qilishda yordam berishgan, balki cherkov erlarida o‘lim jazosini qo‘llashni talab qilishi mumkin bo‘lgan sud ishlarini ko‘rib chiqish kabi lordlik majburiyatlarini bajarish uchun ham javobgar edilar. Sud xodimi sifatida advokat birinchi marta 12-13-asrlarda Rim huquqining qayta kashf etilishi bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan.¹¹ O‘zbekiston Respublikasida advokatlik bilan yuridik oliy ma’lumotga ega, tegishli komissiya qaroriga binoan adliya idorasidan ruxsatnoma olgan shaxs shug‘ullanishi mumkin. Shuningdek, advokatlik bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis davlat xizmatchisi bo‘lishi mumkin emas. Advokatlar ustidan faqatgina O‘zbekiston Respublikasi bosh prokurori,

¹¹ Jean-Louis Gazzaniga, "Advocate", in Andre Vauchez (ed.), *Encyclopedia of the Middle Ages* (Oxford University Press, 2002).

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, Toshkent shahar va viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atishlari mumkin. Adliya vazirligi advokatlar faoliyatiga ko‘maklashadi va ularning manfaatlarini himoya qiladi.

Adliya (arabcha: adl) “adolat”, “to‘g‘rilik”, “haqqoniylik”, “xolislik” degan ma’nolarni anglatadi. Sudlov muassasalari, sud tashkilotlari va ular faoliyatini anglatadigan tushuncha. Adliya keng ma’nodagi huquqdir. O‘zbekiston Respublikasida Adliya organlari faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rahbarlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasining qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni (1993-yil 2-sentabr) 10-moddasi talabiga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahri sudi, tuman (shahar) sudlarining faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi qoidasiga qat’iy rioya qilingan holda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Admiral (gollandcha: admiral, arabcha: amir al-bahr) “dengiz rahbari”, harbiy dengiz flotidagi harbiy unvon. Ko‘pchilik mutaxassislar ushbu atama arab tilidan kirib kelgan deb hisoblashadi, zero amir al-bahr “dengiz hukmdori” degan ma’noni bildiradi. Ba’zi dengiz flotlarida eng yuqori unvonlardan biridir. Hamdo’stlik davlatlari va Qo’shma Shtatlarda "to'liq" admiral armiya yoki havo kuchlaridagi "to'liq" generalga teng bo'lib, vitse-admiraldan yuqori va flot admiralidan pastroqdir.¹²

Ad’yunkt (lotincha: adjunctus) “qo‘shilgan”. Ilmiy yoki ilmiy-pedagogik ishga layoqati bo‘lgan hamda harbiy ilmiy tadqiqot institutlari yoki oliy o‘quv yurtlarining ad’yunkturasipya fan doktori, professor (ba’zi hollarda katta ilmiy xodim yoki dotsent ilmiy darajasiga ega fan nomzodlari) ilmiy rahbarligida ma’lum bir harbiy mutaxassislik bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan oliy ma’lumotga yoki magistr darajasiga ega bo‘lgan harbiy mutaxassis.

¹² “Admiral – Wikipedia” <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Admiral>

Alibi (lotincha: alibi) “boshqa joyda”. Jinoyat protsessida — ayblanuvchining (gumonlanuvchining) jinoyat sodir etilgan vaqtda aybsizligining dalili sifatida jinoyat sodir etilgan joyda bo‘lishini istisno qiladigan holat. Kriminalistikada ayblanuvchining o‘zini himoya qilish taktikasi. Alibi biror jinoyatda ishtirok etgan deb gumon qilingan yoki ayblanayotgan shaxsning jinoyat sodir bo‘lgan joyda bo‘lmaganini va uning aybsizligini ko‘rsatuvchi dalolatdir. Jinoyat yuz bergan vaqtda ayblanuvchi mutlaqo boshqa joyda bo‘lgani isbotlansa, alibi aniqlangan hisoblanadi. Jinoyat qilingan paytdan ayblanuvchi boshqa joyda ko‘ringanligi o‘rtasida tegishli vaqt o‘tgan bo‘lsa, jinoyat qilishda boshqa yo‘l bilan yoki bilvosita ishtirok etgan bo‘lsa, bu hol ayblovni rad etolmaydi.

Anarxizm (yunoncha anarchia) “hokimiyatsizlik”, “beboshlik”. Rahbar sifatida faqat alohida shaxsning xohish-irodasinigina tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi jamiyat to‘g‘risidagi ta’limot. Antik dunyo zamonidayoq Anarxizmga xos fikr yuritish alomatlari bo‘lgan, qadimgi xristianlikda diniy shaklda, keyinchalik o‘rta asrlar mazhablarida ham uchraydi. Nemis faylasufi K. Shmidt (Shtirner), fransuz olimi P. Prudon, rossiyalik M. Bakunin uning nazariyotchilari hisoblanadi. Anarxizm ba’zi o‘rinlarda liberalizm bilan chatishib ketadi, har qanday davlat hokimiyatini yo‘qotishni va ishlab chiqaruvchilar uyushmalarining federatsiyasini tuzishni yoqlaydi. Anarxistlar ba’zi odamlarni boshqalar tomonidan bostirilishining foydaliligini va ijtimoiy jarayonning ayrim ishtirokchilarining boshqalarga nisbatan imtiyozlarini inkor etib, davlat majburlashning har qanday mexanizmlarini shaxslarning erkin hamkorligi bilan almashtirishni taklif qiladilar. Anarxistlarning fikricha, ijtimoiy munosabatlar har bir ishtirokchining shaxsiy manfaati, ixtiyoriy roziligi va mas’uliyatiga asoslanishi kerak. Anarxistlarning hokimiyatning majburlash shakllarini yo‘q qilishga munosabati anarxizmning o‘ziga xos oqimlariga qarab o‘zgarishi mumkin. Shunday qilib, ba’zi yo‘nalishlarning anarxistlari nafaqat siyosiy majburlash, balki mehnat munosabatlari, nikoh munosabatlari yoki chorvachilikni ham ko‘rib chiqishlari mumkin. Boshqa turdagi anarxistlar, o‘z navbatida, faqat davlat majburlashiga qarshi.

Anneksiya(lotincha: annectere → eski fransuzcha: annexer → inglizcha: annex) “birlashtirish”, “qo‘shilish”. Boshqa bir davlat hududini butunlay yoki qisman egallab olish yoki o‘z davlatiga qo‘shib olish siyosati. Hozirda anneksiya agressiyaning bir turi va xalqaro huquqning buzilishi hisoblanadi. Ko‘p hollarda anneksiya qilingan taraf birlashayotgan ikki tarafning kichikrog‘i, chetroqda joylashgani yoki siyosiy jihatdan kuchsizrog‘i bo‘ladi. Anneksiya deganda yana anneksiya qilayotgan tarafning kuch ishlatgani, ekspansiya yoki unilateralizm siyosatini amalga oshirgani tushuniladi. Shuning uchun “anneksiya“ atamasi o‘rniga ko‘pincha “qo‘shilish”, “birlashish” kabi evfemizmlar ishlatiladi. Anneksiyada odatda bir mamlakat o‘ziga tegishli bo‘lmagan hududni bir tomonlama bosib oladi. Bundan keyin anneksiya boshqa xalqaro organlar orqali (masalan, boshqa mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar orqali) qonunlashtiriladi. Ikkinchi jahon urushi davrida anneksiyaning keng qo‘llanilishi ko‘p xalqlarning harbiy okkupatsiyani tartibga soluvchi xalqaro huquqlaridan ajralishlariga olib keldi. To‘rtinchi Jeneva konvensiyasi mualliflari mamlakatlarning anneksiya yordamida xalqaro huquqlarni poymol qilishlari oldini olishga alohida e‘tibor berishgan. Anneksiyani ishg‘oldan ajratish kerak, bu o‘z-o‘zidan hududning qonuniy egalik huquqini o‘zgartirishga olib kelmaydi. Masalan, 1878 yildan beri Avstriya-Vengriya ishg‘oli ostida bo‘lgan Bosniya va Gertsegovina faqat 1908 yilda unga qo‘shilgan va bungacha u rasman Usmonlilar imperiyasi hududi hisoblangan. Shimoliy Kipr Turk Respublikasi 1974 yilda turk qo‘shinlari kirib kelganidan keyin 1983 yilda e‘lon qilingan, faqat Turkiya tomonidan tan olingan, ammo uning tarkibiga kiritilmagan.

Apatris (grekcha: ἀπάτρις, apatris) “vatansiz”. 2017 yil holatiga ko‘ra, dunyoda 12 million kishi fuqaroligi yo‘q edi. Ulardan ba‘zilari qochqinlar yoki muhojirlar, boshqalari esa o‘z mamlakati yoki davlatida yashaydi, lekin hukumat ularni o‘z fuqarosi sifatida tan olmaydi.¹³ Apatridlar - muayyan mamlakatning fuqarosi hisoblanmaydigan va biron chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo‘lmagan shaxslar. Shaxs o‘z fuqaroligini

¹³ Лицо никакой национальности. 12 миллионов человек не имеют гражданства. Дата обращения: 18 апреля 2022. Архивировано 18 апреля 2022 года.

yo‘qotgan va yangidan fuqarolik huquqini olmagan vaqtda fuqarosizlik kelib chiqadi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar soni ko‘payganligi tufayli fuqarosizlikni kamaytirish va Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarshahrini himoya qilishga qaratilgan bir qancha xalqaro konvensiyalar qabul qilingan (masalan: Fuqarosizlikni kamaytirish to‘g‘risidagi 1961-yilgi konvensiya, Erga tekkan ayolning fuqaroligi to‘g‘risidagi 1957-yilgi konvensiya). O‘zbekistonda Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar huquqiy holati “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunda o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasida yashab turgan, lekin O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘xtatilgan, boshqa davlat fuqarosi bo‘lmagan shaxslarga ichki ishlar idorasi tomonidan Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar shahriga mo‘ljallangan istiqomat guvohnomasi beriladi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar fuqarolar kabi shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan teng foydalanadilar, biroq siyosiy huquqlardan foydalana olmaydilar: oliy va mahalliy vakillik organlariga saylana olmaydilar; davlat hokimiyatining boshqaruv organlarida ishlashlari, shuningdek, harbiy xizmatni o‘tashlari mumkin emas.

Aparteid (afrikaanscha: apartheid, apartxeyd) “alohida-alohida yashash”. Irqiy kamsitishning eng ashaddiy ko‘rinishi. Muayyan aholi guruhlarining ular irqiy mansubligiga qarab, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum etishni, hududiy jihatdan yakka-latib qo‘yishgacha borishni anglatadi. Aparteidning ayrim choralari genotsid tusini olishi mumkin. Hozirgi xalqaro huquq aparteidni insoniyatga qarshi jinoyat deb hisoblaydi. 1973-yilda aparteid jinoyatlarining oldini olish va jazolash to‘g‘risida xalqaro konvensiya qabul qilingan. Yaqingacha aparteid Janubiy Afrika Respublikasida hukmronlik qilib kelgan, asosan oq tanli fuqarolardan iborat Milliy partiyaning siyosati edi. U mamlakat aholisini irqiy alomatlarga qarab, uch qism: 1) oq tanlilar; 2) qora tanlilar, ya’ni tub afrikaliklar; 3) indeyslar va duragaylarga bo‘lib boshqarish siyosatini qo‘llab keldi. “Irqiylar guruhlarini ajratib joylashtirish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, aholi 74% ini tashkil etuvchi qora tanlilar uchun soxta “davlatlar” — bantustanlar tuzildi, afrikaliklarning oq tanlilar yashovchi shaharlarda istiqomat qilishi man etildi, aparteid qoidalarini buzganlarga nisbatan qattiq jazo choralari qo‘llanildi. Afrikaliklar, ularga ergashgan

indeyslar hamda oq tanlilar bir qismining Afrika milliy kongressi va boshqa vatanparvarlik tashkil otlari rahbarligida aparteid siyosatiga, irqchilar zulmi va kamsitishlarga qarshi uzoq davom etgan, jahon hamjamiyati tomonidan faol qo'llab-quvvatlangan murosasiz ommaviy chiqishlari, shu jumladan, qurolli kurashi irqchilarni chekinishga majbur etdi. Mamlakat va xalqaro maydonda yakkalanib qolgan irqchilar siyosiy islohotlar o'tkazishga majbur bo'ldi. Tinch yo'l bilan 1994-yil aprelda o'tkazilgan demokratik saylovlar natijasida hokimiyat mamlakat tub aholisi vakillari qo'liga o'tdi.

Apostil (fransuzcha: apostille) chekka yoki pastki nota. Bu qonuniylashtirish shaklini tan olgan mamlakatlar hududida taqdim etish uchun hujjatning qonuniyligi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldirish uchun xalqaro standartlashtirilgan shakl. Ya'ni 1961 yilgi Gaaga konvensiyasida qabul qilingan va ushbu konvensiyasiga a'zo davlatlarda o'z kuchiga ega. Apostil muhri hujjatlarning asl nusxalari va nusxalariga qo'yiladi. Apostil hujjatni boshqa tasdiqlash yoki qonuniylashtirishni talab qilmaydi va Konvensiyaga a'zo barcha davlatlarning rasmiy organlari tomonidan tan olinadi. Hujjatni qonuniylashtirishni bekor qiladigan yoki soddalashtiradigan qonuniy asoslar mavjud bo'lsa, apostil qo'llanilishi mumkin emas.

Apellyatsiya (lotincha: appellatio) “murojaat qilish”, “shikoyat qilish”, “norozilik bildirish”. Sud hukmi ustidan shikoyat arizasi berishning bir shakli. Apellyatsiya dastlab Fransiya jinoyat-protsessual kodeksiga (1808-yil), keyinchalik jahonning boshqa ko'pchilik davlatlari jinoyat-protsessual qonunlariga kiritilgan.

Akklamatsiya (lotincha: acclamatio) “olqishlash”. Qadimgi Rim va Vizantiya urf-odatlarida ma'qullash yoki norozilik, zavq va hokazolarni baland ovozda olqishlar bilan ifodalash edi. Ko'p hollarda rimliklar tomonidan har doim qo'llanilgan olqishlarning ma'lum shakllari bo'lgan. Bugungi kunda ham qo'llanilib xalqaro tashkilotlarda va anjumanlarda qarsaklarga asoslanib, ovoz bermasdan qaror qabul qilish usuli.

Armiya (lotincha: armo) “qurollantiraman”. Quruqlikdagi qo‘shinlar yoxud (ba‘zan) davlatning harbiy-dengiz flotidan boshqa barcha qurolli kuchlari majmui. Shuningdek, armiya deganda jangovar operatsiyalar olib borishga mo‘ljallangan bir nechta qo‘shilma va qurolli kuchlarning turli qismlari operativ birlashmasi (umumqo‘shin yoki dala, tank, havo, havo-desant armiyasi va boshqalar) tushuniladi. Turkiy xalqlarda qo‘shin, lashkar, cherik deb atalgan. Dastlabki armiyalarning paydo bo‘lishi 19-asrning boshlarida qayd etilgan. 2023-yil boshida O‘zbekiston armiyasi harbiy salohiyat bo‘yicha 145 ta davlat orasida 62-o‘rinda qayd etildi. Bu haqda Global Firepower’ning yangilangan reytingida keltirib o‘tilgan. Mutaxassislar qurolli kuchlarni oltmishdan ortiq parametrlar bo‘yicha baholagan. Ularning asosiylari qatorida mudofaaga mablag‘ sarflanishi darajasi, texnik ta‘minot, armiya soni, tanklar, kemalar, samolyotlar va boshqa harbiy texnikalarning miqdori, neft mahsulotlari mavjudligi, davlatning geografik xususiyatlari, ishlab chiqarish va ba‘zi resurslarning iste‘moli, logistik imkoniyatlar kabi mezonlar hisobga olingan. Reytingga ko‘ra, Markaziy Osiyo davlatlari orasida O‘zbekiston armiyasi harbiy salohiyat bo‘yicha birinchi o‘rinni egallagan. Chegaradosh mamlakatlar: Qozog‘iston 63-o‘rin, Turkmaniston 82-o‘rin, Qirg‘iziston 107-o‘rin, Afg‘oniston 114-o‘rin, Tojikiston esa 120-o‘rinda qayd etilgan. O‘zbekistonning mudofaa budjeti 692,5 mln dollarga baholangan.

Argument (lotincha: argumentum). Biron bir mulohaza (konsepsiya, nazariya)ning haqiqatligini (rostligini) tasdiqlash uchun keltiriladigan mulohaza (yoki mulohazalar majmui), dalil; Argument - bu xulosa deb ataladigan boshqa bayonotning haqiqat yoki maqbullik darajasini aniqlash uchun mo‘ljallangan bayonotlar guruhi. Argumentlarni uchta asosiy nuqtai nazardan o‘rganish mumkin: mantiqiy, dialektik va ritorik nuqtai nazardan.

Attashe (fransuzcha: attashe) “aynan”, “berkitilgan”. 1-diplomatik martaba. Attashe martabasi deyarli barcha davlatlar qonun hujjatlariga binoan tashqi ishlar vaziri buyrug‘i bilan diplomatik vakolatxonalar va idoralarning 2 – 3 yillik ish tajribasi bo‘lgan xodimlariga beriladi; 2) harbiy, harbiy-dengiz, harbiy-havo

Attashelari – o‘z mamlakati tegishli qo‘shinlar turlarining Attashe xizmat kilib turgan boshqa bir davlat qurolli kuchlari hududidagi diplomatik vakolatxonasining lavozimdor shaxslari, ular diplomatik vakilga barcha harbiy masalalar bo‘yicha yordam ko‘rsatishadi. Mavqeiga ko‘ra, harbiy Attashelar diplomatga tenglashtirilib, diplomatik korpus tarkibiga kiritiladi va diplomatik imtiyozlar va daxleizlik huquqiga ega bo‘ladi; 3) savdo, moliya, qishloq xo‘jaligi, fan va texnika, baliqchilik, shuningdek madaniyat hamda matbuot bo‘yicha attashe – diplomatik vakolatxonaning mazkur sohalarga oid masalalar bilan shug‘ullanuvchi xodimlari, diplomatik imtiyozlar va daxlsizlik huquqiga, matbuot bo‘yicha attashe esa diplomat martabasiga ega.¹⁴

Auksion (lotincha: *auctio*) “savdoga qo‘yish”. Kim oshdi savdosi - bu oldindan belgilangan kim oshdi savdosi qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan tovarlar, qimmatli qog‘ozlar, korxonalar mulki, san‘at asarlari va boshqa ob‘ektlarning ochiq savdosi. Barcha auksionlar uchun umumiy tamoyil potentsial xaridorlar o‘rtasidagi raqobat tamoyilidir. Tovarlarni sotib olish huquqi uchun xaridorlar o‘rtasidagi raqobat jarayonida kim oshdi savdosi g‘olibi aniqlanadi. Kim oshdi savdosida uning qoidalariga muvofiq g‘olib chiqqan shaxs kim oshdi savdosi g‘olibi hisoblanadi. Bunda ob‘ekt kim oshdi savdosi g‘olibi tomonidan sotib olinadi.¹⁵

B

Banda (italyancha: *banda*) “bosqinchilik”, “o‘g‘rilik”, “zo‘ravonlik”, “qotillik bilan shug‘ullanuvchi qurollangan to‘da”. Ya‘ni jinoyat huquqida uyushgan jinoyatchilikning alohida shakli, korxona, tashkilot yoki muayyan fuqarolarga hujum qilish maqsadida tashkil qilingan qurollangan guruh. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar huquq sohasidagi atama. Muqaddas dinimiz islomda esa allohnin yaratgan ojiz mavjudotlari.

¹⁴ "Attashe - Vikipediya" <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Attashe>

¹⁵ Аукцион — статья из Большой советской энциклопедии.

Benefitsiy (lotincha: beneficium) “ehson”, “yaxshilik”. 1) ilk o‘rta asrda G‘arbiy Yevropada qirol yoki yirik feodal tomonidan vassalga muayyan ishni bajarish. ko‘pincha harbiy xizmatni o‘tash sharti bilan umrbod in‘om qilinadigan yer; keyinchalik mulkiy meros-feodalga aylangan; 2) katolik cherkovida daromadli lavozim yoki ruhoniylar tomonidan mukofot sifatida olingan yer mulki.

Bengoshi (yaponcha: 弁護士, bengoshi) “huquqshunos”, “advokat”. Yaponiyada advokatlik bilan shug‘ullanish malakasiga ega bo‘lgan advokatlar. Yaponiyadagi advokat yoki advokatga murojaat qilganingizda, siz bengoshiga ishora qilasiz.¹⁶ Bengoshi barcha huquqiy masalalarni, shu jumladan chet elda ro‘yxatdan o‘tgan advokatlar (xorijiy huquq), sud ekspertlari (kompaniyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish) va sertifikatlangan ma‘muriy tartib-qoidalar bo‘yicha yuridik mutaxassislar (viza masalalari) tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy masalalarni hal qilishga ruxsat berilgan, ammo amalda ko‘pchilik bengoshilar bunday masalalar bilan shug‘ullanmang. Bengoshi ko‘pincha mijozlar uchun sud ishlarini olib boradi va korporativ huquq bo‘yicha yuridik maslahat beradi.

Bessa (fransuzcha: baisse) pasaytirmoq. Birja chayqovchiligi; qimmatbaho qog‘ozlar kursi yoki tovarlar narxini pasaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Narxlarni pasaytirishga intiladigan tadbirkor qimmatbaho qog‘ozlar yoki tovarlarni ma‘lum muddatga sotadi. Kelishilgan muddat va uning ijrosi o‘rtasidagi davr mobaynida bozorda narx tushib ketsa, kelishuvni bajarish muddati kelishi bilan chayqovchi, sotuvchi qog‘ozlar yoki tovarlarni yanada arzonroq narxda harid qilib, o‘z kontrageptiga shartlashilgan yuqori narxlarda topshirib, foyda olishi mumkin. Shunday qilib, kelishuv tovar yoki qog‘ozlarni amadda yetkazib bermay turib ham kurs farqini to‘lash bilan tugaydi. Kurs yoki narx pasayishidagi farq sotuvchi foydasiga, narx ko‘tarilganda esa haridor foydasiga hal bo‘ladi.

¹⁶ Zohidjon o‘g‘li, Z. S. (2023). Attitude to the law in Japan Similarities in the constitutions of Uzbekistan and Japan. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 16, 16-18.

Bill (inglizcha: bill) qonun loyihasi. Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada va boshqa ingliz tilli davlatlarda qonunchilik tashkilotlari ixtiyoriga taqdim etiladigan qonun loyihasi, yana, ayrim davlatlarda konstitutsiyaviy hujjatlari bill deb ataladi. Shuningdek bill, qonun loyihasi qonun chiqaruvchi organ tomonidan ko'rib chiqilayotgan taklif qilingan qonunchilikdir.¹⁷ Qonun loyihasi qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilinmaguncha, shuningdek, ko'p hollarda ijro etuvchi hokimiyat tomonidan ma'qullanmaguncha qonunga aylanmaydi. Qonun loyihasi qabul qilingandan so'ng, u qonun chiqaruvchi organning akti yoki nizom deb ataladi. Qonun loyihalari qonun chiqaruvchi organga kiritiladi va muhokama qilinadi, muhokama qilinadi va ovozga qo'yiladi.

Blokada (inglizcha: blockade) harbiy harakatlarni amalga oshirish usullaridan biri bo'lib tashqi aloqalardan uzib qo'yish demakdir. Blokadalar: quruqlik blokadasini, dengiz blokadasini, havo blokadasiga bo'linadi. Blokada - bu mamlakat yoki mintaqaga oziq-ovqat, ta'minot, qurol yoki aloqa vositalarini, ba'zan esa odamlarni harbiy kuch bilan olish yoki yuborishning faol oldini olish harakati. Blokada jismoniy to'siqlar emas, balki savdo uchun qonuniy to'siq bo'lgan embargo yoki sanksiyadan farq qiladi. Shuningdek, u qamaldan farq qiladi, chunki blokada odatda qal'a yoki shaharga emas, balki butun mamlakat yoki mintaqaga qaratilgan va maqsad har doim ham hududni bosib olish bo'lmasligi mumkin. Garchi ibtidoiy dengiz blokadalari ming yillar davomida qo'llanilgan bo'lsada, to'liq dengiz blokadasini o'rnatish bo'yicha birinchi muvaffaqiyatli urinishlar Britaniya qirollik dengiz floti tomonidan Fransiyaga qarshi Yetti yillik urush (1754-1763) davrida amalga oshirildi.¹⁸ Ko'pgina blokadalar tarixan dengizda sodir bo'lgan bo'lsada, blokadalar hududga kirishni oldini olish uchun quruqlikda ham qo'llaniladi. Masalan, Armaniston Turkiya va Ozarbayjon tomonidan blokada qilgan dengizga chiqmaydigan davlatdi.¹⁹ Shunday qilib, Armaniston bu davlatlar orqali xalqaro

¹⁷ Education 2020: Government course; topic House of Representatives (USA), definition of bill: "A proposed law presented to a legislative body for consideration."

¹⁸ Richard Harding. Seapower and Naval Warfare, 1650–1830. Routledge. Retrieved 7 February 2013.

¹⁹ "Opening Borders: Armenia's Economic Risks". www.evnreport.com. 9 March 2021. Retrieved 12 May 2021.

savdoni amalga oshira olmaydi va asosan Gruziya orqali savdo qiladi. Bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini cheklaydi.²⁰

Bodmereya (nemischa: bodmeri, inglizcha: bottomry, gollandcha: bodemeri) qarzni ta'minlash maqsadida kemani garovga olinganligi haqidagi hujjat. Kema va yuk garovi ostida naqd pul ssudasini rasmiylashtiradigan kredit shartnomasi, favqulodda vaziyatlarda kema kapitani tomonidan naqd pul bilan egalari hisobidan olinadi. Sayohatni yakunlang. Shartnomasi nemis huquqi instituti ichida bo'lib 13-asrda Germaniyaning qirg'oqbo'yi shaharlarida vujudga kelgan va keng tarqalgan. Fransiyada 1253-1255 yillardagi nizomlar bilan tartibga solingan; bundan keyin deyarli barcha O'rta er dengizi davlatlari tomonidan qabul qilingan dengiz odat huquqi to'plamida (XIII-XIV asrlar) nazarda tutilgan. Inqilobdan oldingi Rossiya qonunchiligida qayiqda tashish qoidalari 1781 yildan boshlab Savdo Xartiyasida mavjud edi. Bugungi kunda ham savdo kemalarida qo'llaniladi.

Bosh Attorney (inglizcha: Attorney General) AQSH, Avstraliya, Bangladesh, Barbados, Braziliya, Buyuk Britaniya, Kanada, Hindiston, Fiji, Gongkong, Irlandiya, Isroil, Keniya, Kiribati, Malayziya, Maldiv, Myanmar, Nepal, Yangi Zelandiya, Zambabve, Sudan, Trinidad va Tobago, Shri-Lanka, Singapur, Samoa, Pokiston, Fillippin, Yamayka, Venesuela va boshqa davlatlarda hukumatning asosiy yuridik maslahatchisi hisoblanadi. Ya'ni Bosh Attorney ham Bosh prokuror ham Adliya vaziri lavozimlariga to'g'ri keluvchi unvon.

Burgomister (nemischa: burgermeister) "boshpana", "qarorgoh" degan ma'noni anglatadi. G'arbiy Yevropada 16-17 asrlarda vujudga kelgan. Bugungi kunda burgomister Germaniya va Belgiyaning ko'plab shaharlarida ijroiya kengashi (yoki vazirlar mahkamasi) raisi va shahar hokimi sifatida faoliyat yuritadi.

Butleger (inglizcha: bootleggeer) spirtli ichimliklarni noqonuniy tarzda olib kirish, sotish, transportirovka bilan shug'ullanuvchi shaxs.

²⁰ Sahakyan, Armen (20 February 2014). "Economic Blockades and International Law: The Case of Armenia". The Armenian Weekly. Retrieved 12 May 2021.

Dastlab qirol Jorj III hukmronligi davrida kontrabandachilarga berilgan laqab, kontrabandachilar qirolning qirg'oq qo'riqchilaridan qochganlarida qimmatbaho narsalarni o'zlarining katta etiklariga yashirish odatidan kelib chiqqan. Bundan tashqari mualliflik huquqi bilan himoyalangan mahsulotlarning noqonuniy versiyasini yoki nusxasini yaratish, tashish yoki sotish.

D

Devolyutsiya (inglizcha: devolution) suveren davlatning markaziy hukumati tomonidan submilliy darajada, masalan, mintaqaviy yoki mahalliy darajada boshqarish uchun vakolatlarning qonuniy ravishda berilishi.²¹ Bu ma'muriy markazsizlashtirishning bir shakli. O'zlashtirilgan hududlar hududga tegishli qonunchilikni ishlab chiqishi shu bilan ularga yuqori darajadagi avtonomiya berish huquqiga ega.²²

Delikt (lotincha: delictum) “noto‘g‘ri xatti-harakat, huquqbuzarlik”) - zarar va zararning o'rnini jabrlanuvchilar foydasiga xususiy huquq asosida undirilishiga olib keladigan xususiy yoki fuqarolik huquqbuzarlik. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 57-bobi zarar yetkazishdan kelib chiqadigan drlikt majburiyatlari qoidalariga bag‘ishlangan.

Demarkatsiya (fransuzcha: demarcation) chegara belgilari yordamida chegara chizig‘ining muayyan joylardan o‘tishini belgilash. Demarkatsiya chegaradosh davlatlarning aralash komissiyasi tomonidan kelishuvga asosan amalga oshiriladi. Dastlabki demarkatsiya chizig‘ilaridan biri 1494 yilda Portugaliya da'vo qilgan yiga ilk sayohatidan qaytganidan keyin chizilgan. Hozirgi kundagi bahsli demarkatsiya chiziqlari Harbiy demarkatsiya chizig'i, ba'zan sulh chizig'i deb ataladi, Shimoliy Koreya va Janubiy Koreya o'rtasidagi chegaradir. Harbiy demarkatsiya chizig'i Koreya sulh bitimi

²¹ “What is devolution?”. BBC Academy. Retrieved 2019-02-22.

²² “Devolution: A beginner’s guide”. 2010-04-29. Retrieved 2019-02-22.

bilan 1953 yilda Koreya urushi oxirida ikki Koreya o'rtasidagi chiziq sifatida o'rnatilgan. Shuningdek, Moviy chiziq - Livan va Isroil o'rtasidagi chegara demarkatsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2001 yil 7 iyunda Isroilning Livandan to'liq chiqib ketganligini aniqlash uchun e'lon qilingan.

Departament (fransuzcha: departement) — 1) Fransiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda asosiy ma'muriy-hududiy birlik; 2) ayrim davlatlarda (masalan: AQSH, Shveysariya, Rossiya Federatsiyasi, O'zbekiston) — mahkama yoki vazirlik yoxud ular bo'linmalarining atalishi; davlat departamenti — AQSH tashqi ishlar vazirligi.

Deputat (lotincha: deputatus) “yuborilgan”, “vakil” — fuqarolar tomonidan davlat organlariga (ko'pincha qonun chiqaruvchi/vakillik hokimiyatiga) saylanadigan shaxs. Siz partiya ro'yxati bo'yicha yoki hudud bo'yicha okruglar bo'yicha nomzodlar ro'yxatidan saylovlarda deputat bo'lishingiz mumkin. Deputatning vazifasi, qoida tariqasida, hokimiyat tuzilmalarida saylovchilar manfaatlarini ifodalash, ularning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlarini himoya qilishdan iborat. Deyarli barcha mamlakatlarda deputatlik maqomini olgan holda saylangan shaxs daxlsizlikka ega bo'ladi (ya'ni javobgarlikka tortishning murakkab tartibi ko'rinishida jinoiy yoki ma'muriy ta'qibdan himoyalanih huquqi). Parlament a'zosining huquqiy maqomi Konstitutsiya, qonunlar, me'yoriy hujjatlar va huquqiy odatlar bilan belgilanadi. Deputat nafaqat o'zi saylangan saylov okrugining, balki butun xalqning vakili hisoblanadi. Aksariyat mamlakatlarda deputatlar erkin mandatga ega (ya'ni deputat saylovchilar buyrug'idan ozod va ular oldida qonuniy javobgarlikka tortilmaydi), biroq ba'zi mamlakatlarda deputatlar imperativ mandatga ega. Demak, deputat faqat o'z saylov okrugi saylovchilariga vakillik qiladi va saylovchilar deputatga majburiy buyruqlar berishi mumkin. Ushbu topshiriqlar bajarilmagan taqdirda, deputat saylovchilar tomonidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganligi uchun chaqirib olinishi mumkin²³ Ba'zi mamlakatlarda bu tushuncha faqat markaziy parlamentda ishlaydigan qonun chiqaruvchilarga tegishli.

²³ Что такое императивный мандат и почему его хотят ввести? www.aif.ru. Дата обращения: 27 октября 2018. Архивировано 27 октября 2018 года.

O‘zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to‘g‘risida“ O‘zbekistan Respublikasining qonunida (1995-yil 6-may) belgilab berilgan.

Despotiya (yunoncha: despoteia) “cheklanmagan hokimiyat” — cheklanmagan mustabid hokimiyat shakli. Yakka shaxs hukmronligiga asoslangan siyosiy tuzum shakli. Mustabid hokimiyati, odatda, zo‘ravonlik, bosib olish, ba‘zan esa, qonuniy hokimiyatni ag‘darib tashlash natijasida o‘rnatiladi. Miloddan avvalgi 7—6-asrlarda Yunoniston shahar davlatlari (polislar)da mavjud bo‘lgan (masalan Afinada mustabid Pisistrat). Bunday davlatda huquqiy, axloqiy asoslar bo‘lmaydi, qonunlar ishlamaydi, ularning o‘zi juda kam bo‘ladi. U zo‘ravonlik, ba‘zan esa terror va genotsid asosiga quriladi. Mustabid hokimiyat shafqatsizdir. Mustabid tuzumida har bir odam uning zarbiga uchraydi. O‘rta asrlarda Shimoliy va O‘rta Italiya shahar davlatlaridagi siyosiy tuzum shakli ham despotiyaning namunasi edi. Bunda fuqarolik va harbiy hukumat to‘laligicha yagona hukmdor — sinor qo‘lida jamlangan. Despotiya rejimi insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlariga xos bo‘lsada, ayrim hozirgi zamon davlatlarida ham uning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rish mumkin. Masalan qo‘shnilarimiz Afg‘onistondagi hozirgi vaziyat bunga misol bo‘la oladi.

Dezertirlik (lotincha desertor) “qochoq”. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyat turlaridan biri; O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko‘ra harbiy xizmatdan bo‘yin tovlash maqsadida harbiy qism yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, shu maqsadda xizmat joyiga kelmaslik dezertirlik hisoblanadi. Harbiy xizmatdan qochib yurish, xizmat joyini tashlab ketish jinoyat sanaladi. Boshqa xizmat joyiga o‘tkazilganda, ta’tilda bo‘lganda, davolanish tugaganda, xizmat safariga yuborilganda harbiy qism yoki xizmat joyiga yetib kelmaslik ana shu turdagi jinoyatni sodir etish demakdir. Dezertirlik muddatli harbiy xizmatchi tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, aybdor 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish b-n, agar zobitlar tarkibidan bo‘lgan shaxs yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo‘yicha o‘tayotgan harbiy xizmatchi tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, aybdor 5 yildan 10 yilgacha muddatga ozodlikdan

mahrum qilish bilan jazolanadi. Dezertirlik uchun belgilangan bu javobgarlik faqat tinchlik vaqtida harbiy xizmatni o'tashda sodir qilingandagina qo'llanadi.

stullarga o'tirishdi. Kot-d'Ivuarda inauguratsiya Prezidentga 1961 yilda ta'sis etilgan Kot-d'Ivuar Respublikasining milliy ordenini topshirish bilan o'tkaziladi. Tashqi tomondan, u Fransiyaning Faxriy legion ordeniga juda o'xshaydi. Taxminan 950 g og'irlikdagi oltin zanjir fransuz rassomlari va zargarlari tomonidan yaratilgan. Markaziy medalyonda respublika gerbi tasvirlangan, unga oq va yashil emalyu tilladan yasalgan orden yopishtirilgan. Braziliyada Konstitutsiyasida inauguratsiyaning majburiy qismi sifatida faqat prezidentlik qasamyodi ko'rsatilgan bo'lsada, kun davomida bir qancha muhim tadbirlar bo'lib o'tadi: ochiq avtomobilda poytaxtdan tantanali o'tish, qasamyod, harbiy parad. Bir qancha yuqori mansabdor shaxslarni, jumladan, adliya vaziri va hukumatning boshqa a'zolarini davlat tomonidan majburiy tayinlash. Fransiya an'anaga ko'ra, Fransiya davlatining yangi rahbari prezidentlik nishoni (Faxriy legion ordeni Grand Masteri sifatida unga tegishli) va "yadro kodeksi" ni oladi. Marosim salom berish (21 artilleriya o'qlari) va yangi prezidentning qisqa nutqi bilan yakunlanadi. Boshqa ko'plab mamlakatlardan farqli o'laroq, Fransiya prezident qasamyod qilmaydi. Italiya prezident o'zining inauguratsiya nutqini an'anaviy ibora bilan boshlaydi: "Men respublikaga sodiq bo'lishga va hamma narsada Konstitutsiyaga amal qilishga qasamyod qilaman". Diniy muassasa katta kuch va vakolatga ega bo'lgan Italiya prezidenti Konstitutsiyaviy va Injilga qo'l qo'ygan holda qasamyod qiladi. Estoniya prezidentlik hokimiyatining belgisi oliy darajadagi Davlat gerbi ordeni bo'lib, qonunga ko'ra, u prezidentlik vakolatlari bilan birga beriladi, u bitta nusxada mavjud va hadya qilinmaydi. 1936 yilda yaratilgan ushbu buyruq 1941 yilda Sovet qo'shinlari Estoniyadan chekinish paytida prezident Konstantin Patsdan tortib olingan. 1963 yildan beri u Moskva Kremlining qurol-yarog' omborida saqlanmoqda va Estoniya hukumatining bir necha bor so'rov va talablariga qaramay, tarixiy regaliya o'z vataniga qaytarilmagan.

Interpol (fransuzcha: Organisation Internationale de Police Criminelle, OIPC) — xalqaro jinoiy politsiya tashkilotining barcha tillar uchun qisqartirilgan umumiy nomi. 1923-yilda Vena shahri Avstriyada asos solingan. Hozirgi nomi manzilni qisqa qilib ifodalash tarzida 1-marta 1947-yilda paydo bo'lgan. 1949-yili BMT unga rasmiy

ravishda xalqaro hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilot maqomini berdi. "Interpol"ning amaldagi ustavi 1956-yil 13-iyunda kuchga kirdi. "Interpol" jinoyatchilarni ro'yxatga olish xalqaro markazi sifatida ish ko'radi, shuningdek, jinoyatchilarni (jinoyatlarda gumon qilinuvchilarni; bedarak yo'qolganlarni; o'g'irlangan boyliklarni) xalqaro miqyosda qidirish ishlarini muvofiqlashtiradi. 185 davlat (1998-yilda), shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Interpol"ning a'zosi (1994-yildan). O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibida "Interpol"ning O'zbekiston Respublikasidagi milliy markaziy byurosi tuzilgan. "Interpol"ning oliy organlari — bosh assambleya, uning sessiyalari har yili chaqirib turiladi; ijrochi qo'mita, unga "Interpol" prezidenti boshchilik qiladi; bosh kotibiyat, unga bosh kotib rahbarlik qiladi. Interpolga a'zo bo'lishni istagan har qanday davlat o'zining vakolatli hukumati nomidan Interpolning Bosh Kotibiga yozma ravishda murojaat qiladi.⁴⁴

Interpellyatsiya (lotincha: interpellatio) "nutqni to'xtatish", "sudga shikoyat qilish". Interpelatsiya — parlament a'zosining hukumatga yoki hukumatning istalgan a'zosining muayyan masala yuzasidan rasmiy murojaati, parlamentning hukumatga rasman savollar berish huquqining alohida turi. Ko'pgina mamlakatlar parlamentlarida parlamentning har bir a'zosi hukumat a'zolariga so'rov yuborish ega. Tegishli vazir javob berishi va hukumat siyosatini asoslashi shart. Shunday qilib, interpelatsiya parlamentga hukumat faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Interpelatsiyaning deputatlik so'rovlarining boshqa turlaridan farqi shundaki, javob muhokama mavzusiga aylangan butun hukumatning harakati yoki yo'nalishi bo'yicha parlamentning fikrini aks ettiruvchi qarorni qabul qilish bilan yakunlanadi. interpelatsiya va parlament tomonidan ishonch yoki ishonchsizlik votumi. Qator xorijiy davlatlarda deputatlar guruhining hukumatga yoki alohida bir vazirga o'tkazayotgan ichki yoki tashqi siyosat yoki aniq bir masala bo'yicha tushuntirishlar berish talabi bilan murojaati, qoidaga ko'ra, boshqaruvning parlament shaklidagi mamlakatlarda (Italiya, GFR, Finlyandiya va boshqalarda) qo'llanadi.

⁴⁴ M. Usmonaliyev, Y. Karaketov. Kriminologiya. Darslik. T T.: Yangi asr avlodi, 2001. T 510t511-betlar.

J

Jandarmeriya (fransuzcha: gendarmerie) “qurollangan armiya”. Harbiy tashkilotga ega bo‘lib mamlakat ichkarisida va armiyada (dala Jandarmeriya) soqchilik vazifalarini bajargan politsiya. Dastlab 1791-yil Fransiya vujudga kelgan. 1815-yilda rus armiyasida jandarm qismlari tuzilgan. 1827—1917-yillarda Rossiyada siyosiy politsiya vazifasini bajaruvchi Alohida jandarm korpusi mavjud bo‘lgan.

Jiro (italyancha: giro) “muomala”, “o‘tkazma”. Jirocheklar — mijozning o‘z hisob varag‘idan muayyan pul miqdorini boshqa bir shaxs hisobvarag‘iga o‘tkazish to‘g‘risida bankka bergan yozma buyrug‘i.

Jizya (arabcha: jizyah) “hurmat”. Tarixan zimmiylardan, ya'ni islom qonunlari bilan boshqariladigan davlatning doimiy musulmon bo‘lmagan fuqarolaridan moliyaviy to‘lov ko‘rinishida undiriladigan jon boshiga yillik soliq. Qur‘on va hadislarda jizyaning miqdori va miqdori ko‘rsatilmagan holda tilga olinadi va jizyaning qo‘llanilishi islom tarixida turlicha bo‘lgan. Biroq, olimlarning fikricha, ilk musulmon hukmdorlari Vizantiya va Sosoniylar imperiyasi kabi bosib olingan mamlakatlarning avvalgi hukmdorlari davrida o‘rnatilgan soliq va o‘lponning mavjud tizimlarini moslashtirganlar. Dastlab jizya faqat yahudiy va nasroniylarga nisbatan qo‘llanilgan, majusiylar esa zimmiy tuzumga kirmagan. Islom Hindiston yarimoroliga yoyilgach, jizya hindlarga ham tatbiq etilgan. Ba‘zan jizya so‘zining o‘rnida qo‘llaniladigan “xoraj” atamasi musulmon bo‘lmagan fuqarolardan undiriladigan soliqlar Usmonli imperiyasi va Hindiston kabi ba‘zi islomiy davlatlarning asosiy daromad manbalaridan biri bo‘lgan. Musulmon sultonliklari. Jizya stavkasi odatda to‘lovchining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan yillik miqdor edi. Musulmonlardan olinadigan soliqlar va jizyani taqqoslaydigan manbalar vaqt, joy, ko‘rib chiqilayotgan muayyan soliqlar va boshqa omillarga qarab ularning nisbiy yuki bo‘yicha farqlanadi. Musulmon huquqshunoslari zimma jamoati orasidan voyaga yetgan, ozod, aqli

raso erkaklardan jizya to'lashni talab qilganlar. ayollar, bolalar, oqsoqollar, nogironlar, kasallar, jinnilar, rohiblar, zohidlar, qullar va musta'minlar — musulmon bo'lmagan musofirlar, faqat musulmon mamlakatlarida vaqtincha istiqomat qiladilar. Harbiy xizmatni tanlagan zimmiylar ham to'lovdan ozod qilindi. Shuningdek, pul to'lashga qodir bo'lmaganlar. Islom shariatiga ko'ra, keksalar, nogironlar va boshqalarga nafaqa berilishi kerak va ular tilanchilik bilan shug'ullanmasligi kerak.

Jo'qorg'i kenges (qoraqalpoqcha: jo'qorg'i kenges) “yuqori kengash”. Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy davlat hokimiyati organi, respublika parlamenti. 1995-yil 25 dekabrda tashkil etilgan. Bungacha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi deb atalgan. Respublika Jo'qorg'i Kengesi hududiy saylov okruglaridan ko'ppartiyalilik asosila 5 yil muddatga saylanaligan 86 deputatdan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining huquqiy maqomi Qoraqalpog'iston Konstituniyasi (1993-yil 9 aprel) va “Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi to'g'risida”gi qonunda belgilab berilgan. Qoraqalpog'iston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Jo'qorg'i Kengesi ish olib borishi mumkin. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohila shaxs Qoraqalpog'iston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas. Jo'qorg'i Kengesning mutlaq vakolatlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish; qonunlarni qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. respublika Konstitutsiyasiga sharh berish; iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat strategik yo'nalishlarini qabul qilish; shuningdek, respublikada davlat hokpmiyati organlarining rahbarlarini, o'rinbosarlarini, mansabdor shaxslarni lavozimlarga tayinlash va ozod qilish hamda Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlar kiradi. Jo'qorg'i Kenges raisi Qoraqalpog'iston Respublikayeining eng yuqori lavozimli shaxsi hisoblanadi. U Jo'qorg'i Kenges tomonidan Jo'qorg'i Kenges deputatlari ichidan yashirin ovoz berish yu:sh bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining vakilligi muddatiga va qatorassha 2 muddatgacha saylanadi (Qoraqalpogiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 80-modda). Jo'qorg'i Kenges

Prezidiumi Jo‘qorg‘i Kenges faoliyatini tashkil etish va boshqa davlat vakolatlarini amalga oshirish uchun tuziladi, uning tarkibiga Jo‘qorg‘i Kenges raisi, uning o‘rinbosarlari, Jo‘qorg‘i Kenges qo‘mitalari va komissiyalarining raislari, Jo‘qorg‘i Ken gesdagi partiya guruhlarining raislari kiradi. Hozirgi kunda Jo‘qorg‘i Kengesda 5 qo‘mita, 1 komissiya, 3 frakniya mavjud. Jo‘qorg‘i Kenges Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan birgalikda 1924-yil noyabrdan chiqadigan “Yerkin Qaraqalpaqstan”, 1919-yil iyunidan chiqadigan “Vesti Karakalpakstana” hamda 1992-yil 25 iyuldan chiqa boshlagan “Amu tongi” gazetalarining hammuassisidir.

Jyuri (inglizcha va fransuzcha: jury, lotincha: juro) “qasamyod qilaman”. 1) tanlovlar, ko‘rgazmalar, sport musobaqalari va shu kabilarda mukofotlar berish masalasini hal qiluvchi mutaxassislar guruhi; 2) jinoyat protsessida fuqaroviy va jinoiy ishlarni ko‘rishda qatnashuvchi noprofessional sudyalalar — maslahatchilar hay’ati. Kimgadir qo‘yilgan rasmiy ayblovlarning asosliligi va maqsadga muvofiqligini aniqlaydigan AQSH hakamlar hay’ati.⁴⁵ Hozirda faqat Qo‘shma Shtatlarda katta hakamlar hay’ati saqlanib qolgan, garchi ba’zi boshqa umumiy huquq yurisdiksiyalarida ilgari mavjud bo‘lsa-da, boshqa yurisdiksiyalarning ko‘pchiligida dastlabki tergovning boshqa turidan foydalaniladi. Irlandiyada ular mahalliy hokimiyat sifatida ham ishlaydi.

K

Kadastr (fransuzcha: kadastr) — davriy yoki doimiy ravishda olib boriladigan kuzatuv ma’lumotlari asosida davlat tomonidan rasman tuziladigan har qanday muhim ob’yektlarning tartiblangan ro‘yxati, reestri. Kadastr soliqlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri real summalarini (er, uy, savdo), tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlarni aniqlash, ob’ektlarning qiymatini (kadastr qiymati) va boshqalarni aniqlash uchun ishlatiladi. Masalan, yer kadastr, suv kadastr, shahar kadastr,

⁴⁵ «Пресса Британии: Россия, Трамп и Ахметшин» Архивная копия от 31 августа 2017 на Wayback Machine, BBC, 31.08.2017

oʻrmon kadastr, foydali qazilmalar konlari kadastr, hayvonot dunyosi kadastr, fuqarolik va xizmat qurollari kadastr. Ulardan eng muhimi yerlarning tabiiy, iqtisodiy va huquqiy holati haqidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan yer kadastridir. Unda har bir yer uchastkasiga noyob kadastr raqami beriladi.

Kassatsiya (lotincha: cassatio) “bekor qilish”, “buzish”. Qonuniy kuchga kirmagan sud hukmi (hal qiluv qarori) ustidan shikoyat qilish shakllaridan biri. Zamonaviy kassatsiya Fransiya paydo boʻlgan va bu erda u oʻzining eng toʻliq rivojlanishini bishdan kechirdi. 16-asrda sud qarorlarining *contrariétés et nullités* (mos kelmasligi va haqiqiy emasligi, haqiqiy emasligi) haqida Qirollik kengashiga maxsus shikoyat berish allaqachon Fransiya mavjud edi. Apellyatsiya sudidan farqli ravishda, Kassatsiya instansiyasi shikoyat yoki protest doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki bunda ish unda mavjud boʻlgan va qoʻshimcha taqdim qilingan materiallarning toʻla hajmida tekshirib chiqiladi. Kassatsiya instansiyasi hukm (hal qiluv qarori)ni oʻzgarishsiz qoldirishi, bekor qilishi va ishni yangidan tergov qilishga yoki sud muhokamasiga joʻnatishi yo boʻlmasa hukmni bekor qilishi va sud ishi olib borishni toʻxtatishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasida Kassatsiya tartibida ish yuritish va Kassatsiya shikoyati berish (Kassatsiya protesta keltirish) qonun qoidolari Jinoyat protsessual kodeksi 56-bobida va Fuqarolik protsessual kodeksi 38-bobida belgilab berilgan.

Kodeks (lotincha: codex) “kitob”. Tarmoq yoki bir nechta tarmoqlarning tizimlashtirilgan normalarini oʻz ichiga olgan qonunchilik hujjati. Kodeksning tuzilishi koʻpincha sanoat tizimini aks ettiradi. Kodifikatsiyaning oʻzi bir-biridan farq qiluvchi, parchalangan normalarni yagona meʼyoriy majmuaga toʻplashga qaratilgan jarayondir. 1) ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir turdagi sohasini tartibga soluvchi sistemalashtirilgan yagona qonun hujjati (fuqarolik Kodeks, jinoyat Kodeksi tizimini va h.k.). Davlatlarning koʻpchiligida mehnat, oila, jinoyat protsessi, fuqarolik protsessi boʻyicha Kodekslar eng koʻp amalda boʻlgan qonunlar majmui hisoblanadi; 2) qadimda Kodeks shakllaridan biri Qadimgi Rimda paydo boʻlgan. Dastlab pergament yoki papirus, keyinroq qogʻozni daftar tarzida buklab, tikib

tayyorlangan. 6-asrdan kitobning asosiy shakliga aylangan. Kodeksda mavjud bo'lgan muqova, sahifa va ularni bezash tartibi (sahifali miniatyura, unvon va boshqalar) hozirgi kitoblarda ham saqlangan.

Kompetensiya (lotincha: *competentia*) “erishaman”, “mos kelaman”. Muayyan organ yoki mansabdor shaxsning qonun bilan belgilangan vakolatlari, huquq va majburiyatlari majmui; davlat organlari (mahalliy davlat hokimiyati organlari) tizimidagi o'rnini belgilaydi. “Kompetensiya” tushunchasining huquqiy mazmuni quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: yurisdiksiya sub'ektlari (hokimiyatga bo'ysunadigan ob'ektlar, hodisalar, harakatlar doirasi); organ yoki shaxsning huquq va majburiyatlari, vakolatlari; javobgarlik; belgilangan maqsadlar, vazifalar va funksiyalarga muvofiqligi (qarang, huquq layoqati).

Korrupsiya (lotincha: *corrumpō*) aynish, poraga sotilish. Mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham Korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va parlament faoliyatida ayniqsa, avj oladi. Saylanadigan lavozimlarga nomzodlar saylov kampaniyasini o'tkazish harajatlarini ko'tarish Korrupsiya ko'rinishlaridan biridir (saylangan kishi turli imtiyozlar, yordam, xizmatlar ko'rsatib "o'z qarzini" qaytaradi). Aksariyat Korrupsiya lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog'langan. Makroiqtisodiy tadqiqotlarga binoan, korrupsiya iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga xalal beruvchi eng katta omildir. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha "Lokxid ishi" eng yirik Korrupsiya ko'rinishlariga misol bo'ladi. Porani xaspo'shlash uchun yirik bitishuvlarda ko'proq "xizmat haqi" to'lash amaliyotidan foydalaniladi.

Konvensiya (lotincha: *conventio*) shartnoma, kelishuv. Xalqaro shartnomalarning bir turi. U yoki bu shartnomani konvensiya deb atash mumkin bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatish qiyin.

Aksincha, muayyan turdagi yoki mazmundagi shartnomalarni konvensiya deb atash an'anasi haqida gapirish mumkin; Shunday qilib, ma'lum standartlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'p tomonlama bitimlar, har bir ishtirokchi uyda (davlatlarning muayyan qoidalarni, cheklovlarni, standartlarni ushbu davlatlarning qonunlari bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi bitimlari) odatda konvensiyalar deb ataladi. Eng mashhur konvensiyalar qatorida Xalqaro gumanitar huquq bo'yicha Jeneva konvensiyalari, Qochqinlar maqomi to'g'risidagi konvensiya, irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasi kiradi. Shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi, BMTning dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi, Adabiy va san'at asarlarini himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi, 1974-yildagi dengizda hayot xavfsizligi to'g'risidagi xalqaro konvensiya SOLAS-74. Ko'p tomonlama konvensiyalar odatda BMT va Yevropa Kengashi kabi xalqaro tashkilotlar doirasida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Ikki tomonlama shartnomalar orasida konvensiyalar odatda konsullik, pochta, transport va boshqa masalalar bo'yicha shartnomalar deb ataladi. Konvensiya, qoida tariqasida, tegishli mavzu bilan bog'liq barcha masalalarni tartibga solishi muhim (kodeksga o'xshash).

Kondominium (lotincha: con “birga” + dominium “egalik”). Birgalikda egalik qilish, bitta ob'ektga, ko'pincha uyga, balki boshqa ko'chmas mulkka egalik qilish. Xalqaro huquqda ikki yoki undan ortiq davlat tomonidan ma'lum hududga egalik qilishdir. Ular mazkur hududga nisbatan o'z hukmronliklarini birgalikda amalga oshirishadi. Konvensiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, muayyan bir hudud bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq davlatga tegishli bo'ladi. Xususan, bu davlatlarning har biri o'z hokimiyatlarini o'zaro shartnomaga muvofiq kondominium doirasida amalga oshiradi.

Konkubinat (lotincha: concubnatus) birga yotaman, birga yashayman. Erkak va ayolning nikohsiz birga yashashi. Konkubinat tushunchasi qadimgi Rimda paydo bo'lgan. Imperiya davrida konkubinat shartli ravishda jangchilar o'rtasida qonuniy deb tan

olingan, shuningdek, nikoh imkonsiz bo'lgan doimiy birga yashash holatlarida, masalan, senatorlar ozod ayollar, oluvchilar, aktrisalar bilan. Ko'pgina qadimgi mualliflarning fikriga ko'ra, konkubinat juda keng tarqalgan edi va bu nikoh shaklidagi bolalar ma'lum huquqlarga ega edilar, ular erni meros qilib olishlari mumkin edi. Agar qonuniy bolalar bo'lsa, unda birinchi o'ringa, albatta, ularga berildi. Ammo qonuniy farzandlar bo'lmaganda, konkubinlardan bo'lgan bolalar to'liq qobiliyatli merosxo'rlar va vorislar deb hisoblangan. O'rta asrlarda konkubinat Yevropada erkin nikoh, ayniqsa, cherkov nikohi uzoq vaqt davomida tan olinmagan dehqonlar orasida yanada keng tarqalgan. Nikoh marosimini o'tkazish va birgalikda yashash dehqonlar uchun yetarli deb hisoblangan: o'sha davrning ko'plab huquqiy hujjatlari bunday nikohdan bo'lgan bolalar otasi yoki onasining mulkining to'liq qonuniy merosxo'rlari hisoblanganligini ko'rsatadi. Faqat XVIII-XIX asrlarda. dehqon muhitida cherkov nikohi zarur deb e'tirof etila boshlandi.

Konosament (inglizcha: bill of lading) yuk-molga qo'shilgan hujjat. Dengiz yuk tashish hujjati, tovarga hamrohlik qiluvchi hujjat va yuklarni kemada tashishni tasdiqlovchi kafolat. Konnossement so'zi birinchi marta 1545 yilda Germaniyada "konnosament" sifatida paydo bo'lgan.⁴⁶ Konosament yuk tushirishni tasdiqlovchi hujjat, kvitansiya yoki qimmatli qog'ozdan ko'proqdir. Hujjatli kredit va hujjatli inkassoda eng muhim hujjat bo'lgan tashqi savdoni moliyalashtirishda ham muhim ahamiyatga ega. Kredit tashkilotlari eksport va importni moliyalashtirishda konnosamentlarni indossament yo'li bilan sotib olishlari va shu orqali kreditlar uchun garov sifatida foydalanishlari mumkin. Konosament yukni ifodalaganligi sababli indossament orqali kredit tashkilotlari ham yuk egasiga aylanadi.

Konfederatsiya (lotincha: confoederatio) ittifoq, birlashma. 1) davlat tuzilishining bir shakli; unga ko'ra, Konfederatsiyaning tashkil qilgan davlatlar o'z mustaqilligini to'la saqlab qoladi, o'z davlat hokimiyatini tuzadi; maxsus birlashgan organlar esa muayyan (harbiy, tashqi siyosiy) maqsadlarda harakatlarni muvofiqlashtirish uchungina

⁴⁶ Jakob Strieder, Aus Antwerpener Notariatsarchiven: Quellen zur deutschen Wirtschaftsgeschichte des 16. Jahrhunderts, 1962, S. 181

tuziladi. Hozirgi dunyoda faqat bitta Konfederatsiya — Yevropa Ittifoqi mavjud; 2) biron-bir ijtimoiy, iqtisodiy yoki boshqa xil tashkilotlarning nomi (masalan, Fransiya Umummehnat Konfederatsiya, Osiyo futbol Konfederatsiyasi). Dastlab konfederatsiyalar 20 asrda ijtimoiy ahamiyatga ega edi. 21-asrga kelib siyosiy ahamiyat kasb eta boshladi. Yer yuzida dastlabki konfederatsiya Shvetsariya Konfederatsiyasi bo‘lib 1291—1848 yillar oralig‘ida faoliyat yuritgan.

Kontrafakt (inglizcha: counterfeit, fake) qalbaki "soxta" (soxta), litsenziyasiz (litsenziyasiz). Itellektual huquqlarni buzgan holda mavjud asl nusxada yaratilgan yangi mahsulot; soxta iste'mol tovarlari. Qalbaki mahsulot turlari⁴⁷:

- Birovning logotipidan yoki shunga o‘xshashidan foydalanish, ularni chalkashtirib yuborish oson. Masalan, “Gucci” o‘rniga – “Guchi”. Bunday holda, soxta ishlab chiqaruvchilar asl nomi ishlatilmaganligi sababli qalbakilik faktini inkor etish imkoniyatiga ega, o‘rtacha xaridor ko‘pincha kerakli logotip qanday ko‘rinishini bilmaydi va qachonki noaniq tanish rasmga tayanadi. Sotib olish.
- Tovarlarning tashqi ko‘rinishini, uning dizayn echimlarini soxtalashtirish. Bu dekor buyumlari, mebellar, kiyim-kechaklar, soatlar va boshqalar uchun amal qiladi.
- Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni, ixtiro va patent huquqlarini buzgan holda asl tovarlarni sotish, shu jumladan multimedia mahsulotlari, kitoblar va kompyuter dasturlaridan noqonuniy foydalanish – mualliflik huquqini buzish, masalan, “pirat disklar”ni chiqarish.
- Patentlangan texnik echimlardan noqonuniy foydalanish.

Ushbu noqonuniy harakatlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 59-64 boblardagi tegishli moddalarda bayon etilgan.

Konstitutsiya (lotincha: constitutio) “tuzilish”, “tuzuk”. Bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud

⁴⁷ Борьба с контрафактом Архивная копия от 5 января 2012 на Wayback Machine — Адвокат А. Федоров

tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma'lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o'z shakliga ko'ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya — konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o'sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud precedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o'z ichiga oladi, ya'ni qisman yozilgan bo'ladi. O'zgartirish kiritish usuli bo'yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo'linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozinin malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'yektlari tomonidan ratifikatsiyalash va shahrik.) o'zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo'yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi. Davlat faoliyatining turli sohalarida konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish Oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. „konstitutsiya“ atamasi Qadimgi Rimdayoq bor edi (imperator konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur „Tuzuklar“i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda O'rta Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan. Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo'lgan konstitutsiyalarning 2 guruhini vujudga keltirdi. 1-guruh — hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski konstitutsiyalar. Bu xildagi konstitutsiyalarga 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasi, 1831-yilgi Belgiya konstitutsiyasi, 1874-yilgi Shveysariya konstitutsiyasi misol bo'la oladi. 2-guruhga 20-asrning 2-yarmida qabul qilingan „yangi avlod“ konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining,

konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat qilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko‘payishi bilan farq qiladi. Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o‘rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an‘analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan) jahon andozalariga mos bo‘lib, xalqaro talablarga javob beradi.

Killer (inglizcha: killer) “qotil”. Shaxsiy sabablarga ko‘ra emas, balki haq evaziga yoki buyurtma asosida qotillik qiladigan shaxs. Ba‘zan professional qotil deb ham ataladi. Shartnoma asosida o‘ldirish qotillikning juda keng tarqalgan turiga aylandi, chunki bu mijozga yaxshi alibi taqdim etishga imkon beradi: olmasa, ayniqsa uning o‘zi jabrlanuvchi bilan aloqador bo‘lsa.

Kriminologiya (lotincha: criminis “jinoyat” + yunoncha: logos)” “ta’limot”, “tushuncha”. Jinoyatchilik, uning sabablari, jinoyatchining shaxsi, jinoyatchilikning oldini olish yo‘llari, vositalari haqidagi fan. Mustaqil fan sifatida kriminalologiya 20-asr o‘rtalarida jinoyat huquqi fanidan ajralib chiqdi. Bu fanning nazariy asosi Belgiyalik sotsiolog L. Kettle, Italiyalik kriminalistlar Ch. Lombrozo, E. Ferri va boshqalarning ta’limoti hisoblanadi. Kriminalologiya jinoyatchilikni kishilarning jinoyatga oid qonun talablariga zid bo‘lgan ijtimoiy xavfli qilmishlaridan iborat ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq qiladi. Shuningdek, kriminalologiya jinoyatchilikka oid ma’lumotlarni umumiy tarzda, shu bilan birga jinoyatlarning ayrim turlari va guruhlarini bo‘yicha hamda kriminalologiyaga oid ayrim muammolar (masalan: voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, retsidiv jinoyatchilik, guruh jinoyatchiligi) bo‘yicha tekshiradi. Jinoyatchilik sabablari, ya’ni umuman jinoyatchilikka va muayyan jinoyatlarni sodir qilishga ta’sir etadigan ijtimoiy omillar, hodisalar, jarayonlar ham kriminalologiya predmeti hisoblanadi. Kriminalologiya jinoyatchi, ya’ni turli jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning fe’l-atvoriga biron-bir darajada ta’sir etuvchi ijtimoiy xususiyatlar hamda ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlar, belgilar, sifatlar, aloqalar hamda munosabatlarni har tomonlama o‘rganadi. Jinoyatchilik va uning alohida turlarini aniq sotsiologik tadqiq qilish

jinoyatchilik bilan turli ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi bog'liklikni belgilash va shu asosda uning oldini olish choralari ishlab chiqish imkonini beradi. Hozirgi kriminalogiya zamonaviy hisoblash texnikasi, shuningdek, boshqa bir-biriga bog'liq fanlar — sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasi, pedagogika, iqtisodiyot va shariat yutuqlaridan keng foydalanadi. Kriminalogiyada hozirgi demokratik jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil qiluvchi jinoyatlarning oldini olish muammosi muhim o'rin tutadi.

L

Latent jinoyatchi (lotincha: latenus) yashirin. Qonunga binoan, sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish yoki ko'rib chiqish huquqi berilgan organlardan yashirilgan, ushbu organlar aniqlamagan va jinoiy jazoga tortilishi kerak bo'lgan qilmishlar ro'yxatida aks etmagan, ya'ni qayd etilmagan jinoyatlar Rasmiy ro'yxatga olingan va olinmagan jinoyatlarning jami «haqiqiy jinoyatchilik» deb ataladi. Sodir etilgan jinoyatlarning haqiqiy soni odatda «qora son» deb, aniqlangan jinoyatlar sonini esa «aniq son» deb ataladi. Xorij kriminologiyasida «qorong'u son» muammosi ancha vaqtdan beri maxsus tadqiqot mavzuini tashkil etadi. Kriminologiya bo'yicha yangi adabiyotda latent jinoyatlarning bir necha guruhi ajratiladi: tabiiy latentlik, chegaraviy vaziyatlar va sun'iy latentlik. Birinchi guruhni muassasalar, tashkilotlarning vakillari yoki ayrim shaxslar uchun noma'lum bo'lgan jinoyatlar tashkil etadi. Ikkinchi guruhga jinoyat fal aniqlanadigan, ammo turli sabablarga ko'ra uni aniqlagan shaxs uzoq vaqt davomida uni jinoyat sifatida anglamaydigan jinoyatlar kiradi. Uchinchi guruh latent jinoyatlarni mansabdor shaxslar qonunni buzgan holda jinoyat deb tan olmagan, shu bois qayd etilmagan va yashirilgan jinoyatlar tashkil etadi. Qandaydir darajada mazkur jinoyatlarga mos keladigan boshqa guruhlar ham ajratiladi. Masalan militsiya (huquqni muhofaza qilish) organlariga umuman ma'lum bo'lmagan jinoyatlar; jinoyatning

o'zi aniqlangan, ammo uni sodir etgan jinoyatchi aniqlanmagan jinoyatlar (ochilmagan jinoyatlar); aniqlangan, lekin protsessual sabablarga ko'ra ayblov akti yoxud hukm chiqarilmagan jinoyatlar; hukm chiqarilgan va qonuniy kuchga kirgan, biroq u yoki bu sabablarga ko'ra statistikada hisobga olinmagan jinoyatlar. Latent jinoyatlar turlicha tasniflanishi mumkin. Latent (yashirin) jinoyatlar - jinoyat ishlarini olib boruvchi, tergov qiluvchi davlat idoralariga jinoyat to'g'risida xabar kelmasligi va aniqlanmay qolishi. Latent jinoyatchi kriminologiya va jinoyat xuquqida alohida bir xuquqiy tushuncha sifatida o'rganiladi.

Lombard (inglizcha: lombard). Garovga qo'yilgan muayyan buyumlar evaziga ma'lum (odatda uch oydan ko'p bo'lmagan muddatga pul (mablag') berib turadigan muassasa.⁴⁸ Buyumning qiymati tomonlarning kelishuviga ko'ra baholanadi, garovga qo'yilgan buyum egasiga nomi yozilgan lombard tilxati beriladi. Olingan pul o'z vaqtida qaytarilmasa, qo'yilgan buyum lombard mulkiga aylanadi va lombard qo'yilgan buyumlarni sotishga haqli bo'ladi. Shuningdek, lombard qimmatbaho uy-ro'zg'or buyumlarini saqlab berish uchun ham qabul qiladi. Lombardga buyumlar faqat mablag' olish uchun emas, ba'zan mazkur buyumning ishonchli saqlanishini ta'minlash uchun ham qo'yiladi. Buyumlarni garovga qo'yib kredit berish birinchi marta XV asrda Italiyaning Lombardiya viloyatidan chiqqan sudxo'rlar tomonidan joriy etilgan ("lombard" so'zi ham shundan kelib chiqqan). O'zbekistonda ham lombardlar faoliyat ko'rsatadi. Masalan, Toshkent shahrida lombardlar birlashmasi (birlashma tarkibida 3 lombard mavjud, 1966-yilda tashkil etilgan) ishlaydi.

Legalizatsiya (lotincha: legalis) qonuniy yoki legallashtirish. Hujjatlarni qonuniylashtirish, rasmiy tan olish. Muayyan tashkilot faoliyatiga ruxsat berish, biror-bir hujjat, harakatga yuridik kuch berish. Hujjatlardagi imzolarning haqiqiylikini tasdiqlash. Chet elda tuzilgan yoki chet davlatda amalda bo'ladigan hujjatlar legallashtirilishi lozim. Konsulning hujjatlardagi ustavini guvohlantirish shaklida amalga oshiriladi. Yuridik fanda noqonuniy

⁴⁸ <https://depozit.uz/news/lombardlar-va-ularning-faoliyati-haqida-bilasizmi>

yo'l bilan qo'lga kiritilgan mablag' va mulkni legallashtirish va jinoiy daromadlarni legallashtirish kabi tushunchalar mavjud.

Liberalizm (fransuzcha: libéralisme) shaxsiy erkinlik tarafdorlari. Odamlarning o'zini, xatti-harakatlarini, mulkini boshqarishda erkin degan nuqtai nazarga asoslangan falsafiy, iqtisodiy va siyosiy dunyoqarash, nazariya. Liberalizm XVII-XVIII asrlarda Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgan, u Jon Lokk, Adam Smit, Sharl Lui Monteskye va boshqalarning mutlaq hokimiyatga qarshi qaratilgan nazariyalariga asoslanadi. Liberalizm g'oyalari birinchi bor AQSH Konstitutsiyasi (1787) hamda „Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi“da (1789) mujassam bo'lgan. XIX asr va XX asr boshlarida liberalizmning fuqarolik jamiyati, shaxs huquqlari va erkinliklari, huquqiy davlat, demokratik siyosiy muassasalar, xususiy tadbirkorlik va tijorat erkinligiga oid asosiy qoidalari shakllangan. Hozirda liberalizm g'oyalariga ko'ra, erkin bozor mexanizmi samarali iqtisodiy faoliyat yuritish, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi; ayni chog'da bozor va raqobatchilik normal sharoitda rivojlanishi uchun bu sohaga davlatning muntazam ravishda aralashuvi zarur. XX asr oxirida liberalizm, konservatizm va sotsial-demokratiya g'oyalari bir-biriga yaqinlashdi. Mukammal liberal jamiyat bu har kim uchun erkin harakat qilish imkoniyatini beruvchi, muhim siyosiy ma'lumotlar bilan erkin almashuvchi, davlat va din hokimiyatini chekllovchi, qonun ustivorligini ta'minlovchi, shaxsiy mulk va erkin tadbirkorlik mavjud jamiyatdir. Liberalizm jamiyat, davlat, hayot tarzi uchun asos bo'lgan ko'pgina eski dunyoqarashlarni bekor qildi. Jumladan, hukmdorlarning ilohiy huquqlari va dinning yagona bilim manbai kabi holatlardan voz kechildi. Liberalizm fundamental prinsiplari quyidagilarni o'z ichiga oladi: har kim uchun yashash, shaxsiy erkinlik va mulk egaligi huquqi; qonun oldida hammaning tengligi; erkin bozor iqtisodiyoti; erkin va rost saylovda tanlanuvchi hukumat; davlat boshqaruvining oydinligi. Shu bilan birga hukumatning asosiy funktsiyasi ushbu holatlarni ta'minlashdan iboratdir. Zamonaviy ko'rinishda liberalizm kamchilikning huquqlarini himoya qiluvchi, plyuralizm va demokratik boshqaruvga asoslangan ochiq jamiyatni ko'zda tutadi. Ba'zi zamonaviy nuqtai nazarlarda davlat boshqaruvini kengaytirish mumkin

deb qaraladi. Buning sababi fuqarolarning o'z imkoniyatlarida tengligini, ma'lumot olishi va foyda ko'rishidagi farqni qisqartirishni ta'minlashdan iboratdir. Bunday qarash tarafdorlari davlat o'z majburiyatlarini bajarishida barchaning muvaffaqiyatini ta'minlashi lozimligini ko'rsatishadi. Jumladan ishsizlarga yordam berish, boshpanasizlar uchun joy berish va tekin tibbiy xizmat ko'rsatish davlat majburiyatlaridan biridir.

Litsenziya (lotincha: licentia) ruxsatnoma, huquq. Vakolatli davlat organlari tashqi savdo harakatlarini olib borish uchun beradigan ruxsatnoma. Eksport va importni, valyuta sarflarini nazorat qilish usullaridan biri. Odatda, 1 yilga beriladi; texnikaviy, iqtisodiy, ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun shartnoma asosida beradigan ruxsati. Odatda, litsenziya patent olingan yoki patent olish uchun talabnoma berilgan ixtirolarga nisbatan qo'llaniladi. Ammo ixtirolarga, texnika yangiliklariga, ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish sirlari, tijorat axborotlari uchun patentsiz ham berilishi mumkin. Litsenziya eruvchi litsenziar, litsenziya oluvchi litsenziat deb yuritiladi. Yangi texnika va texnologiyaga oid litsenziyalar 3 xil bo'ladi: oddiy litsenziya — litsenziar ixtirodan shartnomada belgilangan doirada foydalanish huquqiga ega bo'ladi, ayni bir litsenziyani ma'lum hudud doirasida faqat bir emas, balki bir necha litsenziatga bera oladi; maxsus litsenziya — litsenziat ixtiro, texnika yoki texnologiyani ishlatishga tanho huquqli bo'ladi, litsenziar esa uni shu hududda ko'llay olmaydi va o'z nomidan boshqalarga sota olmaydi; to'liq litsenziya — bunda litsenziya ob'yektini ishlatish to'la-to'kis litsenziatlar qo'liga beriladi, litsenziar esa undan mustaqil foydalana olmaydi. Bunday qoida litsenziya berilgan muddat ichida amal qiladi. Litsenziya muayyan narxda sotiladi. Litsenziya haqi shartnoma muddati davomida litsenziya bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan olingan mukofot shaklida to'lanadi (royalti). Bir necha bor to'langan royalti yig'indisi litsenziya narxini tashkil etadi. Litsenziya haqi uni qo'llab, iqtisodiy samara olishdan ilgari, bir yo'la to'lansa paushal to'lovi deb yuritiladi. Litsenziya narxi litsenziyani qo'llashdan olinadigan qo'shimcha foyda bilan birga litsenziya

bozoridagi talab va taklifga ham bog‘liq. Litsenziya narxining past bo‘lishi texnik-texnologik yangiliklarni ommalashtirish sharti hisoblanadi. Shuningdek, litsenziyaning vakolatli davlat organlari beradigan savdo, hayvonlarni ovlash, muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish, bank harakatlarini olib borish va boshqa ko‘rinishlari uchraydi.⁴⁹

Lobbizm (inglizcha: lobby) kluarlar, xos xonalar. Davlat idoralari, qonunchilik, ijroiya, sud hokimiyatlarining mintaqalar iqtisodiyoti ayrim tarmoqlari va sohalarini, korxonalar, ijtimoiy guruhlarni obyektiv zarurat taqozosi bilan emas, balki ma’lum bir manfaatlarni ko‘zlab, ba’zan mansabdor shaxslarni sotib olish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyati. Lobbistlar hokimiyat vakillari qiyofasida o‘z himoyasidagilarga katta foyda beradigan davlat buyurtmalari, kreditlar, yordamlar, imtiyozlar, litsenziyalar olishda, iqtisodiy va tijorat faoliyatida, yangi korxonalar ochish va uni ro‘yxatdan o‘tkazishda, raqobatchilarni sindirishda qulay sharoitlar yaratishda ko‘maklashadi. Siyosatda lobbichilik, ishontirish yoki manfaatlarni ifodalash - bu davlat amaldorlarining, ko‘pincha qonun chiqaruvchi yoki nazorat qiluvchi organlar a'zolarining harakatlari, siyosati yoki qarorlariga qonuniy ravishda ta'sir o'tkazishga urinishdir. Odatda bevosita, yuzma-yuz muloqotni o‘z ichiga olgan lobbichilik ko‘plab turdagi odamlar, uyushmalar va uyushgan guruhlar, jumladan xususiy sektordagi shaxslar, korporatsiyalar, qonun chiqaruvchi hamkasblar yoki hukumat amaldorlari yoki advokatlik guruhlari (manfaat guruhlari) tomonidan amalga oshiriladi. Lobbistlar qonun chiqaruvchining saylov okruglari orasida bo'lishi mumkin, ya'ni o'z saylov okrugidagi saylovchilar yoki saylovchilar bloki; ular biznes sifatida lobbichilik bilan shug'ullanishlari mumkin. Professional lobbichilar - bu biznesi ularni yollagan guruh yoki shaxs nomidan qonunchilik, tartibga solish yoki boshqa hukumat qarorlari, harakatlari yoki siyosatlariga ta'sir o'tkazishga harakat qiladigan odamlardir. Jismoniy shaxslar va notijorat tashkilotlar ham ko'ngillilik harakati

⁴⁹ Qodirjon Yusupov. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

yoki oddiy ishining kichik bir qismi sifatida lobbi qilishlari mumkin. Hukumatlar ko'pincha qonuniy maqsadlar uchun "lobbichilik" ni belgilaydilar va ta'sirchan bo'lgan uyushgan guruh lobbisini tartibga soladilar.

Lyuminestsentsiya (lotincha: lumen) yorug'lik, kuchsiz, sust ta'sirni ifodalovchi qo'shimcha. Kriminalistik ob'ektlarni ultrabinafsha nurlarida tekshirish uslublaridan biri. Spektrning ko'zga ko'rinmaydigan qisqa to'lqinli nurlaridan biri ultrabinafsha nuridir, uning xususiyati turli jism, modda qoldiqlari, kuz ilg'amaydigan rangsiz alomatlarini ko'rinarli qilib fotomaterialga tushirib mustahkamlaydi. Ultrabinafsha nurlar tekshiriluvchi ob'ektning ustki qatlamini yoritib qoldiq moddalar mavjud joylaridan nur aksi yorug'lik hosil qilish bilan ko'rinarli qiladi. Ultrabinafsha nurlarini ko'rinarli spektroskopiya usuli bilan tekshiruv o'tkazilganda moddalarning yorug'lik nurlarini singdirish va akslantirish xususiyati spektrofotometriya tahlili hosil bo'lib ma'lum chizmada aks etadi. Ultrabinafsha nurlarini hosil qilishda simob-kvarts lampalari manba bo'lib xizmat qiladi va ularda yuqori bosimga ega bo'lgan kuchli impuls chiroq lampalar ishlatiladi.

M

Mandamus (lotincha: mandamus) “buyruq qilamiz”. Har qanday hukumatga, quyi sudga, korporatsiyaga yoki davlat hokimiyatiga sudning buyrug'i.⁵⁰Ko'rinishidagi sud vositasidir. Ushbu organ qonun bo'yicha bajarishi (yoki qilishdan tiyilishi) shart bo'lgan va jamoat burchi xususiyatiga ega bo'lgan, ayrim hollarda esa qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlardan biri bo'lgan muayyan harakat. Vakolatni qonun hujjatlariga zid ravishda biror narsa qilishga majburlash uchun berilishi mumkin emas. Masalan, quyi sudni berilgan arizalar bo'yicha

⁵⁰ Learning the Law. "Writ of mandamus and the Indian Constitution". Lex Warriar. India. Archived from the original on 2015-08-19.

muayyan harakatni amalga oshirishga majburlash uchun foydalanish mumkin emas, lekin agar sud u yoki bu tarzda qaror qabul qilishdan bosh tortsa, mandamus yordamida sudga arizalar bo'yicha qaror chiqarishni buyurish mumkin. Mandamus ma'muriy harakat qilish yoki muayyan harakatni qilmaslik buyrug'i bo'lishi mumkin va u qonuniy huquqlar bilan to'ldiriladi. Amerika huquq tizimida shikoyatga duchor bo'lgan kishi mandamus so'rashidan oldin u sud tomonidan qo'llanilishi va qonuniy himoyalangan bo'lishi kerak. Shaxsni qonuniy burchi bo'lgan va uni qilishdan o'zini tiygan kishi tomonidan qonuniy huquqdan mahrum bo'lgandagina xafa bo'lgan deyish mumkin.

Majoritar saylov tizimi (fransuzcha: majorite) “ko'pchilik so'zidan”. Vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan, mutlaq va malakali ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llaniladi.

Masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika va boshqalarda. Mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) ko'p ovoz (ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham yetarlicha ovoz olmasa, qayta ovoz berish o'tkaziladi, bunda nomzodlar ro'yxatida nisbatan ko'p ovoz olgan 2 ta nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish urniga 2-tur ovoz berish o'tkaziladi, buning natijalari boshqacha tizim bo'yicha aniqlanadi (masalan: Fransiyada Milliy majlis—parlamentga saylovlarda mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim, 2-tur ovoz berishda esa nisbatan ko'pchilikning ovoziga asoslangan majoritar tizim qo'llaniladi). Nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan o'z raqiblarining har biriga nisbatan ko'p ovoz olgani saylangan hisoblanadi. Bu tizimda ko'pincha saylovchilarning qo'llab quvvatlashiga ega bo'lmagan partiya parlamentda ko'p o'ringa ega bo'lishi mumkin. AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa bir qancha davlatlarda majoritar tizimning ana

shunday shakli qo'llaniladi. Shuningdek, majoritar tizimning kamdan kam hollarda qo'llaniladigan yana bir turi malakali ko'pchilik ovozigina (umumiy ovozlarning 2/3, 3/4 ma'qullansa) asoslangan majoritar tizim ham mavjud (masalan: Chilida parlamentning quyi palatasi — Deputatlar palatasiga saylovlarda shunday tizim qo'llaniladi). Biroq, bunda faqat juda oz nomzodlar saylovchilarning 65% ovozini olishi mumkin bo'lganligi uchun, mandatlar, odatda, vakillikning proporsional tizimi bo'yicha taqsimlanadi. Har bir saylov okrugidan saylanadigan deputatlarning soniga qarab bir mandatli yoki ko'p mandatli majoritar saylov tizimlari bo'lishi mumkin. Bir mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir deputat saylanadi. Ko'p mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir necha deputat saylanadi.

Mandat (lotincha: mandatum) topshiriq. Vakolatxonaning huquqiy munosabatlari, shuningdek ushbu vakolatxonaning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjat. deputat vakolatlari, huquq va majburiyatlari hajmini tasdiqlovchi ujjat. Shuningdek, parlament yoki boshqa vakillik hokimiyati organi deputati zimmasiga yuklatiladigan ommaviy vazifa, uning mazmuni (mandat xarakteri) Konstitutsiya va boshqa Konstitutsiyaviy huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Hozirgi demokratiya davlatlarida mandatning huquqdorligi deputatning daxlsizligi (immunitet) va deputatlik faoliyati uchun taqdirlov puli olish (imdemnitet)ni o'z ichiga oladi. Mandat deputatning o'z saylovchilari bilan o'zaro munosabat shaklini ham belgilaydi. Hozirgi demokratiya davlatlarida umummilliy Mandat deb atalmish mandat bor, unga ko'ra deputat qandaydir aniq bir saylov okrugining emas, balki butun millat vakili hisoblanadi. Deputat o'z faoliyatida hech qanday nakaz bilan bog'lanib qolishi mumkin emas (impeativ Mandat bilan) va o'z Mandati muddati tugamaguncha chaqirib olinishi mumkin emas. Ko'pgina davlatlar (Italiya, Rossiya, Fransiya va boshqalar) Konstitutsiyalarida imperativ Mandatni bevosita taqiqlovchi ko'rsatma bor. Sovetlar tipidagi Konstitutsiyalar imperativ Mandatni, ya'ni deputatlarning o'z saylovchilari oldidagi javobgarligini qaror toptiradi, unga ko'ra saylovchilar o'z deputatlariga nakazlar berish va ularni qonunda belgilangan tartibda chaqirib olish hukmiga ega.

Mafiya (italyancha: mafia) “maxfiy”. Zoʻrluk, qoʻrqitish, terror, qotillik, igʻvogarlik usuli bilan iqtisoiy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun tuziladigan maxfiy uyushma; uyushgan jinoyatchilik tashkiloti. Bir-biri bilan oʻzaro bogʻlangan va poraga sotilgan davlat amaldorlari, davlat organlaridan yerdan oladigan jinoyatchi guruhlar. 18-asr oxiri — 19-asr boshlarida Italiyaning Sitsiliya orolida paydo boʻlgan. 20-asrda mafiya tashkilotlari faoliyati shaharlarda avj oldi. Mafiya odatda, qimorbozlik, bangilik, fohishabozlik kabi ijtimoiy axloqsizlikni uyushtiradi va oʻz homiyligiga oladi, siyosiy hayotga faol aralashadi. Mafiya davlat idoralari, sud va politsiya amaldorlari, muayyan siyosiy doiralar bilan birikib ketadi. Keyinchalik uyushgan jinoyatchilikning davlat hokimiyati, sud, prokuratura va boshqa idoralar xodimlari bilan til biriktirishi va oʻzaro bir-birini himoya qilishi mafiya deb ataladigan boʻldi.

Mahr (turkcha+arabcha: mahr) “mehr”, “sadoq”, “gʻamxoʻrluk”. Musulmon huquqida oila va nikoh masalalaridan. Teng huquqli nikoh (zavoj) tuzilgan paytda xotiniga ajratib beradigan mulk. Mahr toʻlash - shunday nikohning asosiy sharti boʻlib, nikoh munosabatlari uchun xotinga toʻlanadigan haq sifatida qaraladi. Mahr faqat xotinga tegashli boʻlib, xotinning eri vafot etsa yoxud eri taloq etib beva qolgudek boʻlsa, uni moddiy taʼmin etgan. Ozmi-koʻpmi qiymatga ega va mulk huquqi joriy etilgan barcha narsa Mahr boʻlishi mumkin. Eng kam Mahr miqdori 10 dirham (30 g kumish), eng koʻpi cheklanmagan. Mahr quda tomonlarning oʻzaro kelishuvi bilan belgilanadi. Mahr — nikoh vaqtida kuyov tomonidan kelinga ajratiladigan doimiy va shaxsiy mulk. Bu nikoh shartnomasi tuzilayotgan vaqtda kuyovning kelinga maxr toʻlash majburiyatidir. Mahr miqdori kuyovning ijtimoiy ahvoli va uning oilasi roziligiga bogʻliq boʻlgan va nikoh shartnomasi tuzilayotgan vaqtda ikki tomon roziligi bilan belgilangan. Shu bilan birga mahr kelinning shaxsiy mulki hisoblangan. Odatda, Mahr yemga boʻlingan: 1) eri vafot etgan holatda merosning tarkibidagi koʻchmas mulk hisoblangan; 2) beva ayol meros boʻlinmasdan oldin mahrni boʻlib olinishiga yoʻl qoʻymaslik huquqiga ega boʻlgan. Maher vafot etgan holatlarda yoki ular asossiz ajralishgan vaqtda qaysidir darajada ayolga moddiy

yordam bo‘lib xizmat qilgan. Odatda mahr uchun bir uy, bir ayvon, unga barobar sahn bilan hovli, sog‘in sigir va boshqa berilar edi. Mahr imom huzurida ikki erkak guvohligida e‘lon qilingach, nikoh o‘qilgan. Mahr berish odati Qur‘on asosida shariatda qonunlashtirilgan.

Marginallik (lotincha: *marginalis*) “chekkada”, “chegarada turish” ma’nosini anglatadi. Ushbu tushuncha Bunda shaxs davlat tomonidan o‘rnatilgan jazo tizimidan qo‘rqishi oqibatida huquq talabiga bo‘ysunadi. Bu toifa shaxslar ijtimoiy faol yoki odatiy huquqiy xatti-harakatni amalga oshirmaydilar. Marginallik xulq-atvorning shunday shakli, bunda individ g‘ayriijtimoiy kayfiyatda, o‘rnatilgan huquqiy tartibotni buzish chegarasida bo‘ladi, ammo muayyan hadik va qo‘rquv ta’sirida salbiy oqibat yuz bermaydi. Ushbu vaqt oralig‘ida shaxsning xatti-harakatlarining motiviga jazoga tortilishdan xavotirlanish, huquqqa rioya qilishdan manfaat qidirish, yaqinlari va jamoaning dashnomlaridan, noroziliklaridan cho‘chish kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.⁵¹

Ministr (lotincha: *minister*, fransuzcha: *ministre*) xizmatkor. Ko‘plab mamlakatlarda vazirlikni boshqaradigan, boshqa vazirlar bilan birgalikda siyosat bo‘yicha qarorlar qabul qiluvchi va amalga oshiradigan siyosatchi. Ba’zi yurisdiktsiyalarda hukumat boshlig‘i ham vazir bo‘lib, “bosh vazir”, “vazir”, “katta vazir”, “kansler” yoki boshqa unvonlarga ega. Vestminster hukumat tizimidan foydalanadigan Hamdo‘stlik hududi yurisdiktsiyalarida vazirlar odatda parlament yoki qonun chiqaruvchi palatalaridan birining a‘zosi bo‘lishlari talab qilinadi va odatda qonun chiqaruvchi organning quyi palatasida ko‘pchilikni nazorat qiluvchi siyosiy partiyadan bo‘ladi. Belgiya, Meksika, Niderlandiya,⁵² Filippin, Sloveniya va Nigeriya kabi boshqa mamlakatlarda vazirlar mahkamasi darajasidagi lavozim yoki boshqa davlat amaldori qonun chiqaruvchi organ a‘zosi bo‘lishi mumkin emas. Har bir yurisdiktsiyadagi ma’muriy tartibga qarab, vazirlar odatda hukumat bo‘limi boshliqlari va hukumat vazirligi, vazirlar mahkamasi va, ehtimol, vazirlar mahkamasi qo‘mitasining

⁵¹ “Davlat va huquq nazarizayasi”. Odilqoriyev. X.T. “Adolat”-2018. 462-bet.

⁵² “Grondwet”. Wetten.overheid.nl (in Dutch). Retrieved 2021-03-10.

a'zolaridir. Ba'zi vazirlar boshqalarga qaraganda kattaroq bo'lishi mumkin, ba'zilar esa "vazir yordamchisi" yoki "vazir o'rinbosari" unvoniga ega bo'lishi mumkin. Vazirlar soni ko'p bo'lgan ba'zi yurisdiksiyalar vazirlarni ichki yoki tashqi vazirlik yoki vazirlar mahkamasida tayinlashi mumkin. Gonkong, Meksika, Filippin, Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlar kabi ba'zi yurisdiksiyalarda vazirlar mahkamasi darajasidagi lavozim egalari kotiblar deb ataladi (masalan, Buyuk Britaniyada Ichki ishlar vaziri, AQShda Davlat kotibi).

Migratsiya (lotincha: migratio) "ko'chaman", "joyimni o'zgartiraman". Migratsiya turlari quyidagicha:

1. Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi (aholi migratsiyasi);
2. Hayvonlarning yashash muhiti sharoiti yoki rivojlanish sikli o'zgarishi bilan bir geografik hududdan ikkinchisiga ko'chishi (hayvonlar migratsiyasi);
3. Kimyoviy elementlarning yer qobig'ida yoki yer yuzasida o'z joyini o'zgartirishi (elementlar migratsiyasi);
4. Energiyaning bir zarrachadan boshqasiga o'tishi (energiya migratsiyasi);
5. Kapitalning qo'shimcha qiymat olish va siyosiy maqsadlarda bir mamlakatdan boshqasiga muntazam chiqib turishi.

Aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chishi. Aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan biri bo'lib, unta kishilarning oddiy mexanik ko'chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi. aholini joylashishi, yerni xo'jalik jihatdan o'zlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, irq, tillar va xalqlarning paydo bo'lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog'liq. Tashqi aholi migratsiyasi mamlakatdan chiqib ketish (muhojirlik), ichki Aholi migratsiyasi esa mamlakat doirasida, viloyat va tumanlararo yashash joyining o'zgarishi. Migratsion jarayonlarda ishtirok etuvchilar – migrant (muhojir)lar, migratsiya oqimi shakllanuvchi hudud – migrantlar chiquvchi, ular

borgan hudud – migrantlar o‘rnashuvchi region deyiladi. Muayyan mamlakatdan boshqa biron-bir mamlakatga aholining ko‘chib ketish jarayoni emigratsiya, unda ishtirok etganlar esa emigrantlar deyiladi. Va, aksincha biron bir boshqa mamlakatdan ma’lum mamlakatga aholining ko‘chib kelishi immigratsiya, unda ishtirok etganlar immigrantlar (kelgindilar) deyiladi. O‘zbekistonda aholi migratsiyasi jarayoni yangi zavod va fabrikalarning qurilishi, 50–60 yillarda Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Bekobod, Angren, Olmaliq, Yangi-Yul va boshqa sanoat shaharlarining barpo etilishi hamda ularni ishchi kadrlar bilan ta’minlash maqsadida sho‘rolar davrida SSSRning markaziy sanoat rayonlaridan aholini ommaviy ko‘chirib keltirish hisobiga bo‘ldi. Natijada bu shaharlarda tub joy aholisi ozchilikni tashkil etib, ko‘pchiligi Respublika tashqarisidan yo‘llanma bilan kelgan kishilar bo‘ldi. 1966-yil Toshkent zilzilasidan so‘ng Toshkent shahri aholisi ham ikki baravardan ziyod ortdi. Urush yillarida o‘z yurtlaridan qochoq bo‘lganlar va badarg‘a qilinganlar ham O‘zbekistonda qo‘nim topdilar. Aholi migratsiyasi jarayoniga tarixiy va milliy an’analar ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘rta Osiyo xalqlarida, jumladan o‘zbeklarda tug‘ilib o‘sgan joyga mehri balandligidan migratsiyaga moyillik ancha sust.

Militsiya (lotincha: militia) qo‘shin. O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlashga da’vat etilgan, fuqarolar hamda davlat mulkini, qonunchilikni, aholi, korxona va tashkilotlarning qonuniy huquq va man-faatlarini himoya qiluvchi, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashuvchi ma’muriy organ. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki ishlar idoralarida xizmat utash tartibi haqidagi vaqtinchalik nizom” (1993-yil 8-yanvar), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi farmoni (2001-yil 27-mart) asosida faoliyat yuritadi. Militsiya tarixini O‘rta Osiyo xonliklaridagi ma’muriy lavozim hisoblangan mirshablar faoliyati bilan bog‘lash mumkin. O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan istilo qilingach, politsiya xizmati yo‘lga qo‘yilgan. 1917-yil 28-oktabrda, ya’ni Oktabr

to'ntarishidan uch kun o'tgach, sho'rolar hukumatining vakolatiga binoan, Ichki ishlar xalq komissarligi "Ishchi militsiyasi to'g'risida" qaror qabul qilgan. Mamlakat mustaqillikka erishgach, O'zbekiston militsiyasining istiqlolni jinoiy xurujdan himoya qilish, yosh mustaqil davlat va uning fuqarolari xavfsizligini ta'minlash borasidagi mas'uliyati oshdi. Barcha huquqni muhofaza qilish idoralari kabi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning joylardagi xizmatlari qayta tashkil topdi. Hozirgi bu tizimga Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahri Ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, Transport ichki ishlar boshqarmasi kiradi.

Miting (inglizcha: meeting) uchrashmoq, yig'ilishmoq. Muhim voqea, ko'pincha siyosiy masalalarni muhokama qilish uchun o'tkaziladigan ommaviy yig'ilish. Siyosiy va boshqa dolzarb masalalarni hal qilish uchun yig'ilish va namoyish o'tkazish talabi tushuniladi. Fuqarolarning o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq miting, yig'ilish va namoyish shaklida amalga oshirish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasning 33-moddasi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 201- va 202-moddalari, Jinoyat kodeksining 217-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2014 yildagi «Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 205-sonli qarori, shuningdek, davlat va jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan 100 dan ortiq normativ hujjatlarda belgilangan. Bular esa jamoatchilik uchun umummajburiy bo'lgan qoidalar majmui deb tushuniladi.

Monarx (grekcha: monarchos) yakka hukmdor. Davlatning yakka hukmdori. Odatda, hokimiyat unga meros bo'lib o'tadi. Barcha monarxlik mamlakatlarida Monarx qonun bo'yicha daxlsiz odam va u har qanday mas'uliyatdan ozod hisoblanadi. Turli mamlakatlarda Monarx turlicha: Buyuk Britaniya, Ispaniya, Daniya, Shvetsiya, Belgiyada — qirol, Malayziya, Bruney, Ummonda sulton, Quvayt,

BAAda — amir, Lyuksemburgda — buyuk gersog, Lixtenshteynda — knyaz deb ataladi.

Monarxiya (grekcha: monarchia) hukmronlik. Davlat boshqaruvi shakli. Bunda davlat boshligi monarx hisoblanadi. Monarxiyaning 2 turi mavjud: mutlaq (absolyut) monarxiya, bunda monarxning to'la hokimiyatini cheklaydigan bironbir davlat organi bo'lmaydi; konstitutsiyaviy? bunda monarx hokimiyati konstitutsiya asosida amal qiladigan muayyan vakolatli organ bilan cheklangan bo'ladi, ya'ni qonunchilikni parlament, ijro hokimiyatini hukumat olib boradi. Ayrim mamlakatlarda davlat boshlig'i ayni vaqtda rahbar ham hisoblanadi. Monoarxiya uch shaklda bo'ladi:

1. Mutlaq monarxiya — monarx cheksiz hokimiyatga egalik qiladigan monarxiya ko'rinishi. Mutlaq monarxiyada hukumat yoki boshqa hokimiyat organlari faqat davlat boshlig'i bo'lgan monarx oldida javobgardir, odatda parlament bo'lmaydi, bo'lgan taqdirda u maslahat kengashi vazifasini bajaradi, xolos.
2. Konstitutsiyaviy monarxiya — monarx hokimiyati konstitutsiya bilan cheklangan monarxiya. Konstitutsiyaviy monarxiyada qonun chiqaruvchi hokimiyat organi vazifasini parlament bajaradi, bajaruvchi organ esa hukumat bo'ladi. Konstitutsiyaviy monarxiya ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dualistik va parlamentar monarxiya.
 - a. Dualistik monarxiya — (lotincha: Dualis) — monarx hokimiyati konstitutsiya bilan cheklanuvchi monarxiya, lekin shunga qaramasdan monarx o'zining hokimiyat uchun keng vakolatlarini saqlab qoladi.
 - b. Parlamentar monarxiya — monarx vakolatlari o'ta cheklangan, hukumat va hukumat organlari monarx oldida emas, parlament oldida javob beradi.
3. Teokratik monarxiya — siyosiy hokimiyat diniy rahbar qo'lida bo'lgan monarxiya.

Monitoring (inglizcha: monitoring) kuzatish, nazorat qilish. Ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish,

baholash va istiqbolini belgilash. Monitoring kundalik hayotning barcha sohalarida qo'llanadi. O'zbekistonda Respublika Oliy Majlisi huzurida maxsus Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti faoliyat ko'rsatadi. Keyingi vaqtda ommaviy axborot vositalari monitoringi ham tashkil qilindi. Bu ishni O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tarkibida tuzilgan (2002-yil 3-iyul) Ommaviy axborot vositalari monitoringi va ularni litsenziyalash markazi amalga oshiradi. Markazning asosiy vazifasi — ommaviy axborot vositalari muassislari va taxririylatlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari, noshirlik, matbaachilikka taalluqli O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari talablariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirishdan iborat. Markaz matbuot va axborot vositalarida fuqarolar, ommaviy axborot vositalari tahririylatlari hamda xodimlarining qadraqimmatini himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va amaldagi boshqa qonunlarda ko'zda tutilgan talablarning buzilishiga yo'l qo'yilmasligini tahlil etib boradi. Markazning televideniye va radioeshittirish sohasida ommaviy axborot vositalari monitoringi, bosma ommaviy axborot vositalari monitoringi, litsenziyalashni tashkil etish bo'limlari bor.

Monopoliya (yunoncha: mono — tanho, poleo — sotaman). Iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik; bozorni tashkil etish shakli. Bunday bozorlarda yagona sotuvchi o'z tovari bilan faoliyat ko'rsatadi, boshqa tarmoqlarda bunday tovarning o'rinbosari bo'lmaydi. Monopoliya ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining ozchilik korxonalar, sohibkor shaxslar yoki davlat qo'lida to'planishi natijasida paydo bo'ladi. Monopoliya ko'rinishlari qadimdan mavjud. Noyob mahsulot yetishtiriladigan yerlar, konlar, suv havzalari, o'rmonlar va boshqa tabiiy manbalar ozchilik qo'lida to'planib, egalariga monopol mavqe bergan, ular ma'lum mahsulotni bozorgatanho yetkazib beruvchilarga aylanib, u yerda hukmron bo'lganlar. Monopoliya o'z tabiatiga ko'ra ishlab chiqarish da turg'unlik paydo qiladi, chunki monopol mavqega tayanib, sarflarni kamaytirmay foyda ko'rish, raqobatning yo'qligi yoki

zaifligidan foydalanib bozorga o'z izmini o'tkazish mumkin. Monopoliya bozor munosabatlarini cheklaydi, shu sababli hatto bozor iqtisodiyoti hukmron davlatlar monopoliyaga qarshi choratadbirlarni ko'radilar. Monopoliyaning asosiy shakllari — kartel, sindikat, trest, konsernlar hisoblanadi. Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi. Monopoliyaning 6 turi mavjud bo'lib ular: 1.Tabiiy monopoliya 2. Legal monopoliya 3. Sun'iy monopoliya 4. Aligopoliya 5. Monopsoniya 6. Sof monopoliya.

Moratoriy (lotincha: moratorius) sekinlatuvchi, muddatni orqaga suruvchi. Muayyan majburiyat va harakatlarning ijro etish muddatini hukumat tomonidan ma'lum vaqtga uzaytirish, to'xtatib qo'yish (masalan yadro qurollari sinovi Moratoriy). Biror favqulodda holat (masalan urush, tabiiy ofat) munosabati bilan ham e'lon qilinadi. Moratoriyaga misollar tarixda ko'plab uchraydi. Xususan, 1807 yilda tuzilgan Tilsit shartnomasida Prussiya pomeschchiklarining qarzlarini 10 yildan ortiq muddatga kechiktirildi. Franko-Prussiya urushining boshida, 1870 yil 13 avgustda qonun e'lon qilindi, unga ko'ra qonun e'lon qilingan kungacha tuzilgan barcha pul tijorat operatsiyalari bo'yicha da'vo qilish huquqi bir oyga qoldirildi. Vatan himoyasiga chaqirilgan shaxslardan qarzni talab qilish huquqi esa urush oxirigacha qoldirildi. 1871 yil 16 aprelda veksellar bo'yicha to'lovlarni kechiktirish Parij kommunasi tomonidan tasdiqlandi.⁵³ 1891 yilda Portugaliyadagi moliyaviy inqiroz davrida veksellar va boshqa bahssiz qarzlar uchun 60 kunlik moratoriy belgilandi. Umumiy moratoriyning mashhur namunasi Buyuk Depressiya davrida Amerikaning 1933 yilgi Favqulodda Banklar to'g'risidagi qonuni tomonidan e'lon qilingan.

⁵³ Хиенкин Д. И. Мораториум // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

N

Natsionalizatsiya (inglizcha: nationalization) milliylashtirish. Xususiyl shaxslarga tegishli yer, sanoat korxonalari, banklar, transport yoki boshqa mol-mulkning davlat mulkiga o'tishi. Milliylashtirish bepul ekspropriatsiya – musodara, shuningdek, to'liq yoki qisman sotib olish – rekvizitsiya yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Naturalizatsiya (inglizcha: naturalization) “fuqarolashtirish”, “fuqarolikka qabul qilish”. Ya'ni chet el fuqarolarini fuqarolikka qabul qilish. Bu ariza beruvchining iroda erkinligi asosida fuqarolikni olishning qonuniyl jarayoni. Fuqarolikka qabul qilish tartibi davlat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Odatda, fuqarolikni olish uchun bir qator shartlar bajarilishi kerak. Masalan mamlakat tilini bilish Latviya, Estoniya davlatlari qonunchiligda mavjud. Bundan tashqari uy-joy va boshqalar. “Naturallashtirish” atamasi tarixan tabiiyl fuqarolarning (yoki subyektlarning) huquqlarini qo'lga kiritishni anglatadi. Naturalizatsiyaning bir qismi sifatida ba'zan quyidagilar ajratiladi: ro'yxatga olish - fuqarolikni qo'shimcha shartlarsiz shaxsning iltimosiga binoan olish (odatda, ushbu usuldan foydalanish huquqiga ega shaxslar toifalari qonun bilan belgilanadi); fuqarolikni berish - odatda davlat rahbari tomonidan shaxsga har qanday xizmatlari uchun (agar bu qonunda nazarda tutilgan bo'lsa) sharaflil fuqarolik berish. Naturalizatsiya odatda bir qator shartlarni o'z ichiga oladi. Ulardan biri saralash davri deb ataladigan vaqt - mamlakatda yashash vaqti. Ko'pgina hollarda, Shvetsiya yoki Gollandiyada bo'lgani kabi, bu besh yil. Shveytsariyada saralash muddati 12 yil, Argentinada esa 2 yil. Bir qator mamlakatlarda titul millatiga mansub shaxslar uchun malaka muddati qisqartiriladi. Misol uchun, Yaponiyada chet elda tug'ilgan yapon millatiga mansub bolalar uchun 5 yil o'rniga 3 yil qo'llaniladi. Arab mamlakatlarida bu muddat 15 yildan 25 yilgacha davom etishi mumkin. Isroilda yahudiylar uchun saralash muddati umuman yo'q – “Qaytish qonuni”ga ko'ra, ular mamlakatga kelgan paytdan boshlab fuqarolikka aylanadi. Xuddi shu tartib Armanistonda xorijda tug'ilgan etnik armanlarga nisbatan qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida esa

naturalizatsiyani “O‘zbekiston Respublikasida chet fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi qonun tartibga soladi.

Narkomaniya (yunoncha: narkemaniya) karaxtlik, telbalik, jahl, shodhurramlik. Giyohvandlik. Narkotik va narkotik ta’sirga ega bo‘lgan moddalarni iste’mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik. Giyohvandlik giyohvand moddalarni doimo qabul qilish natijasida vujudga keladi, chunki ushbu hastalik bilan og‘rigan kishining jismoniy va ruhiy holati humorini bosadigan tegishli narkotik modda iste’mol qilishga bog‘liq. Narkomaniya organizmda chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi va uni tanazzulga olib keladi. Kasallik asta-sekin rivojlanib borib surunkali davom etadi.⁵⁴

Narkobiznes (inglizcha: narcotic business) narkotik moddalarni olish va sotish bilan shug‘ullanadigan jinoiy uyushma faoliyati. Narkobiznesdan katta foyda ko‘rayotgan turli guruh va shaxslar faoliyati xalqaro konvensiyalar, alohida mamlakatlarning qonunlari bilan man etilgan. Shunga qaramay 20-asr oxiri va 21-asr boshida bunday faoliyat avj oldi. Narkobiznes keltirib chiqarayotgan global oqibatlar insoniyatga xavf sola boshladi. Shu bois BMT doirasidagi hamda turli mintaqaviy uchrashuvlarda Narkobiznesga qarshi kurashda xalqaro jamoatchilik kuch-g‘ayratini birlashtirish ta’kidlab kelinadi.

Neustoyka (ruscha: неустойка) jarima, peniya. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullaridan biri; qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to‘lashi shart bo‘lgan pul summasi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi bo‘yicha, neustoyka to‘lash haqidagi talab yuzasidan kreditor o‘ziga yetkazilgan zararni isbotlashga majbur emas. Neustoyka bilan faqat haqiqiy talab ta’minlanadi. Agar qarzdor majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo‘lmasa, kreditor neustoyka to‘lashni talab qilishga hakli emas. Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo‘ladi. Neustoyka to‘g‘risidagi kelishuv yozma shaklda

⁵⁴ Xushmatova, M. B. Q. (2021). GIYOHVANDLIK VA UNING OQIBATLARI. Scientific progress, 2(3), 367-370.

tuziladi. Neustoyka to‘lash taraflarning keli-shuvida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat’i nazar, kreditor qonunda belgilangan neustoykani to‘lashni talab qilishga haqli. Qonuniy neustoykaning miqdori, agar qonun taqikla-masa, taraflarning kelishuvi bilan ko‘paytirilishi mumkin.

Nikoh (arabcha: نكاح; talaffuzi: nikah) “jinsiy a’loqa”.⁵⁵ Ikki jins vakillarining o‘zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoq. Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo‘lgani bois u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ijtimoiy munosabat sifatida nikoh turli jamiyat va tuzumlarda turlicha ko‘rinishda bo‘lgan. Nikohni qayd qilish tartibi, nikoh yoshiga qo‘yiladigan talablar turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Bir qator mamlakatlarda nikoh fuqaroviy-huquqiy bitim hisoblanib, uni rasmiylashtirish tartibi oila qonunchiligi bilan emas, fuqaro qonunchiligi bilan belgilanadi. Fransiyada nikoh yoshi ayollar uchun 15, erkaklar uchun 18, Italiyada tegishli 14 va 16, Germaniyada esa 16 va 21, AQSHda (turli shtatlarida turlicha) 14—18 va 15—21 yosh qilib belgilangan. Nikohdan o‘tishda bo‘lajak er-xotinning mol-mulki to‘g‘risidagi masala katta ahamiyatga ega. Buning uchun nikoh tuziladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 63-moddasida ta’kidlanishicha, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi. Nikoh masalalari O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida o‘z ifodasini topgan. Amaldagi oila qonunchiligi Nikohning tuzilishi tartibiga, uni davlatning tegishli organlari tomonidan rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor beradi. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 13-moddasiga binoan, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Shunday nikohgina huquq va majburiyatni vujudga keltiradi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh yuridik kuchga ega emas. Shuningdek, soxta nikoh, ya’ni er-xotin yoki ulardan birining oila qurish maqsadini ko‘zlamay tuzgan nikohi ham haqiqiy emas deb topiladi. Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi va nikoh yoshi nikohdan o‘tishning asosiy shartlari hisoblanadi. Nikoh tuzishga

⁵⁵ Nikah“. Encyclopedia of Islam and the Muslim World.

majbur qilish taqiqlanadi. Nikoh yoshi O‘zbekistonda erkaklar uchun ham 18, ayollar uchun ham 18 yosh etib belgilangan. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda nikohlanuvchilarning iltimosiga ko‘ra, nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan 1 yilga kamaytirishi mumkin. Loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida, nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida, loaqal bittasining ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish shart qilib qo‘yilgan. Unga ko‘ra, nikohlanuvchi shaxslar davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar. Belgilangan shartlarning buzilishi sud tomonidan nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Notariat, Notarius (lotincha: notarius) mirza, kotib, yozib boruvchi. Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan huquqlar va faktlarni tasdiqlash vazifasi topshirilgan va qonunda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni bajaruvchi organlar tizimi. Tarixda birinchi bor Notariat instituti Rim cherkovi tomonidan tashkil etilgan.⁵⁶ Uning kelib chiqish izlari 2-asr oxiri – 3-asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Notariuslar yepiskoplarda odamlar bilan suhbatlar paytida hozir bo‘lishdi, ular buni stenografiyada yozib olishdi. “Notarius” so‘zi lotin tilidan olingan. Notta – yozish tezligi uchun ishlatiladigan belgi edi. O‘zbekiston Respublikasida davlat va xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarial idoralar N. tizimini tashkil etadi, ular bo‘lmagan aholi yashaydigan joylarda ba’zi notarial harakatlar fuqarolar yig‘inlarining raislari (oqsoqollar) tomonidan amalga oshiriladi. Notarial idoralar yuridik faktlarni belgilaydigan va fuqarolik huquqlari to‘g‘risidagi nizolarni hal qiluvchi sud muassasalaridan farqlanadi. Bu idoralar fuqarolar bilan bevosita uchrashish yo‘li bilan yoki qonunda ko‘rsatilgan hollarda hujjatlarga asosan nizosiz huquqlarni va yuridik

⁵⁶ Лепидевский Н. История нотариата // Нотариальный вестник. 1997. № 2. С. 46.

faktlarni tasdiqlaydi va shu kabi amallarni bajaradi. O‘zbekiston Respublikasida Notariatning tashkil etilish prinsiplari va faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi qonuni (1996-yil 26 dekabr), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to‘g‘risida” nizom va Notariat to‘g‘risida chiqargan qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi notarial idoralari tomonidan notarial harakatlarni bajarish tartibi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi davlat notarial idoralarining notariuslari va xususiy amaliyot bilan shugullanuvchi notariuslarning notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi 1997-yil 28-apreldagi qo‘llanmasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hay‘atining 1997-yil 28-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat notarial idoralarida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning ish yuritish tartibi haqida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi shaharchalar, qishloqlar va ovullar fukarolari yig‘inlarining raislari (oqsoqollari) tomonidan belgilangan notarial hara-ktlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi qo‘llanmalari hamda boshqa huquqiy hujjatlarga asoslanadi.

O

Obyekt (lotincha: objectum) narsa. Sub’yektga qarama-qarshi bo‘lgan hamda insonning amaliy va bilish faoliyati qaratilgan obyektiv reallik. Obyekt inson va uning ongidan mustaqil obyektiv reallik bo‘lib, uni bilayotgan individ uchun jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida hosil qilingan faoliyat, til va ilm tarzida namoyon bo‘ladi. Obyektni 2 turga: nazariy va empirik obyektga bo‘lish mumkin. Huquqda qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar. 1)Soliq solish ob'ekti tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), mol-mulkni, foydani, daromadni, xarajatlarni yoki qiymati, miqdoriy yoki jismoniy xususiyatlariga ega bo'lgan boshqa holatlar bo'lib, soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchi bilan bog'lanadi. soliq to'lash majburiyati.

2)Huquqbuzarlikning ob'ekti - qonunga xilof tajovuz bilan buzilgan, amaldagi huquqiy normalarda mustahkamlangan jamoat munosabatlari. 3)Jinoyat obyekti jinoiy tajovuz natijasida buzilgan manfaatlar, manfaatlar, ijtimoiy munosabatlardir. 4)Mulk ob'ekti - mulk huquqining predmeti, unga nisbatan mulkning uch turi: egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish amalga oshiriladi.

Ombudsman (shvedcha: ombudsman) biron kishi manfaatlarining vakili. Turli xil ma'muriy organlar, ba'zi mamlakatlarda esa — shuningdek, xususiy shaxslar va birlashmalarning inson huquqlariga rioya etishini nazorat qilish uchun maxsus saylab (tayinlab) qo'yiladigan mansabdor shaxs. Ombudsman nazoratni amalga oshiradi va prokuraturadan farqli ravishda nafaqat qonuniylik, balki shu bilan birga samaradorlik, maqsadga muvofiqlik, adolatparvarlik nuqtai nazaridan ham tekshirish olib boradi. Bu xildagi mansabdor shaxslar har xil nom bilan ataladi: Skandinaviya mamlakatlarida — Ombudsman; Ispaniya va Kolumbiyada — xalq himoyachisi; Fransiya — vositachi, Ruminiya — xalq advokat. Ombudsman turli yo'llar bilan saylanishi yoki tayinlanishi mumkin. Ispaniyada u parlament tomonidan 5 yilga saylanadi, Namibiyada prezident tomonidan, Fransiya — Vazirlar kengashining dekreti bilan tayinlanadi. Aksariyat ko'pchilik mamlakatlarda har bir fuqaro Ombudsmanga bevosita murojaat qilishga haqlidir. Ombudsman kamchilik yoki suiste'mollarni aniqlab, tegishli organ yoki mansabdor shaxsga ko'rsatadi va ularni bartaraf etishni taklif etadi. Agar ular Ombudsmanning taklifidan bosh tortsa, Ombudsman sud organlari yoki parlamentga murojaat qilishi mumkin. Ombudsman fuqarolarning shikoyatlari bo'yicha, shuningdek, o'z tashabbusi bilan ish olib boradi. Fransiya fuqarolar vositachiga bevosita emas, balki o'z senator yoki deputatlari orqali murojaat qiladilar. Dunyoda 1-marta Ombudsman lavozimi 1709-yil Shvetsiya qirolligi huzurida joriy qilingan. Hozirgi vaqtda u jahonning 110 dan ortiq mamlakatida mavjud. Ombudsman institutini tashkil etilishiga qarab 2 turga bo'lish mumkin: parlament tomonidan tayinlanadigan (saylanadigan) klassik tipdagi Ombudsman va ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadigan Ombudsman

Klassik tipdagi Ombudsman har qanday tashkilot, korxona, muassasa va mansabdor shaxslarning faoliyatini tekshirish huquqiga ega. Klassik Ombudsman turiga Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Portugaliya, Ispaniya va ko'pgina mamlakatlar Ombudsmanlari kiradi. O'zbekiston Ombudsmani ham klassik Ombudsman hisoblanadi. Ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadigan Ombudsman huquqlari biroz chegaralangan. Ular alohida sohalar bo'yicha tekshirish huquqiga ega. Masalan, kasalxonalar, jazoni o'tash muassasalari, bolalar, nogironlar huquqini himoya qilish, harbiy xizmatchilar, jinoyatlardan jabrlanganlar, soliq muassasalari bo'yicha shug'ullanadigan alohida sohalar Ombudsmanlari. O'zbekiston Respublikasida Ombudsman faoliyatining huquqiy asoslari "Oliy Majlisning Inson huquqlari vakili (ombudsman) to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni (1997-yil 24-aprel)da belgilab berilgan. Mazkur qonunga ko'ra, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) — mansabdor shaxs bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan. Vakil o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shart-nomalariga, shuningdek, xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va normalariga asoslanadi. Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.⁵⁷

Optatsiya (lotincha optatio) xohish, tanlash; inglizcha fuqarolikni tanlash, variant. Fuqarolikka ega bo'lish va to'xtatish usullaridan biri, xududning davlatga tegishliligi o'zgarganda fuqarolikni tanlashdan iborat bo'ladi. Bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tayotgan hududda yashovchi shaxslar tegishli davlatlar o'rtasidagi shartnomada

⁵⁷ Sattorov A., Ombudsman — huquq himoyachisi, T., 2000.

belgilanadigan tartib va muddatda optatsiya huquqiga ega bo'ladi. Xalqaro va konstitutsiyaviy huquqda ikki fuqarolikka ega yoki davlatga mansubligini o'zgartirgan hududda yashovchi shaxslarning fuqarolik tanlashini nazarda tutuvchi atama. Keng ma'noda variant har qanday sababga ko'ra fuqarolikni tanlash huquqini anglatadi va fuqarolikni olishning umumiy tartibidan istisno hisoblanadi.

Hududiy o'zgarishlar sodir bo'lganda, optatsiya (fuqarolikni tanlash huquqi) quyidagi hollarda yuzaga keladi:

1. boshqa davlatdan ajratib, yangi davlatning vujudga kelishi;
2. bir davlatning bir necha yangi davlatlarga parchalanishi;
3. bir davlat hududining bir qismini xalqaro shartnomaga muvofiq boshqa davlat suvereniteti ostida o'tkazish.

Optatsiya huquqi berilgan shaxslar oldindan belgilangan muddat ichida tanlovni amalga oshirishlari shart. Bolalar, qoida tariqasida, tanlashda ota-onalarining millatiga rioya qilishadi. Shuningdek, optatsiya mavjud bo'lgan taqdirda, shaxslar o'zlarining mulkiy huquqlarini saqlab qoladilar. Mamlakatimizda optatsiya "Fuqarolik to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi.

Oferta (lotincha: offero) "taklif etaman". Bir shaxsning boshqa shaxsga tovar yetkazib berish, birorbir xizmat ko'rsatish va boshqa uchun shartnoma tuzish istagi va shartlari haqida yozma yoki og'zaki xabarnomasi. Shunday xabar yuborgan jismoniy yoki yuridik shaxs offerent, xabarnoma olgan shaxs akseptant deb ataladi. Oferta qabul qilingan hollarda akseptant offerentni yozma xabardor qiladi va tomonlar bitimi rasmiy kuchga kiradi. Oferta unda ko'rsatilgan amal qilish muddatiga ega bo'ladi. Shu muddat davomida akseptant ofertani qabul qilish huquqiga ega va bu offerent bilan shartnoma majburiyatlarini bog'lab oladi. Xalqaro savdoda ofertaning qat'iy va erkin turlari bor. Qat'iy oferta offerentning tovarlar partiyasini sotish imkoniyati haqidagi muddati ko'rsatilgan yozma taklifi ehtimoli bo'lgan hari-dorlardan faqat bittasiga yuboriladi va sotish shu muddat davomida o'z taklifiga bog'lanib qoladi (javob kutadi) va shunday taklifni boshqa haridorga qo'llay olmaydi. Erkin ofertada bir vaqtning

oʻzida bir tovar partiyasi bir qancha haridorlarga taklif etiladi va javob uchun muddat belgilanmaydi va shu jihat bilan offerentni majburiyatlar bilan bogʻlab qoʻymaydi. Haridorning ofertaga roziligi haqidagi yozma javobi bitim imzolanganligini tasdiqlaydi.

P

Parlament (inglizcha: parliament) inglizcha atama Anglo-Norman tilidan olingan, 11-asr qadimgi frantsuz parlementidan kelib chiqqan boʻlib, “muhojama”, “munozara”, “gaplash” degan maʼnoni anglatadi.⁵⁸ Mamlakatning davlat hokimiyati organlaridan biridir. Parlament vakillik muassasasi boʻlib, uning deputatlari xalq tomonidan saylanadi va parlamentda uning manfaatlari himoya qilinadi. Parlament qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi, yaʼni davlatning qonunlarini qabul qilishda mutlaq huquqqa ega boʻladi. Parlament davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilash va amalga oshirishda qatnashadi, davlat budjetini tasdiqlaydi, davlatning soliq asoslarini va umumdavlat soliqlari hamda yigʻimlari turlari belgilab beradi. Parlament boshqa davlat organlarini shakllantirishda davlatning oliy mansabdor shaxslarini tayinlashda qatnashadi — bu ishlarni yo oʻzi bajaradi, yoki tegishli nomzodlar u bilan kelishib bajariladi. Parlament davlat qonunlari ijrosi ustidan va ijroiya hokimiyati organlarining faoliyati ustidan, yangi qonunlarning tasdiqlanishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi. Parlament aholi turli qatlamlari va guruhlarini, davlat mintaqalarini jipslashtiruvchi organ boʻlib xizmat qiladi. Parlament bir palatali yoki ikki palatali boʻladi (kamdan kam hollarda palatalar koʻproq boʻlishi mumkin). Ikki palatali parlamentda palatalarni biri umumxalq vakilligi prinsipida boʻladi. Uning deputatlari hududiy saylov okruglari boʻyicha saylanadi. Davlatning hududi shunday okruglarga taqsimlanadi (majoritar saylov tizimi) yoki proportsional (mutanosib) saylov tizimi boʻyicha, yaʼni siyosiy partiyalar va

⁵⁸ Parliament Online Etymology Dictionary

harakatlar taklif etgan ro'yxatlar bo'yicha yoxud aralash tizim bo'yicha saylash o'tkaziladi. Palatalarning ikkinchisi davlatning qismlaridan vakillik printsipida bo'ladi. Mazkur palata a'zolari tegishli hudud aholisi tomonidan, mintaqalarning qonun chiqaruvchi majlislar tomonidan saylanadi yoxud mintaqalardagi qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyatning boshliqlari lavozimlarini egallab turganlari tufayli palata a'zosi bo'ladilar, yo bo'lmasa, mintaqalar ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadilar. Ikki palatali parlamentda palataning tengligi va ayni bir vaqtda ishlashi printsipidan kamdan kam foydalaniladi, ko'pincha mustaqil ishlaydigan yuqori va quyi palatalar deb atalgan printsip amal qiladi, qonunchilik jarayoni quyi palatada boshlanadi va u qabul qilgan qonun ko'rib chiqish va ma'qullash uchun yuqori palataga uzatiladi. Parlamentlar sessiya tarzida ishlaydi. Sessiyalar parlamentning yalpi majlislaridan yoki kasaba majlislaridan, deputatlik qo'mitalari, komissiyalari, fraktsiyalari va guruhlarining ishidan, parlamentdagi tinglovlaridan va boshqa tadbirlaridan iborat bo'ladi. Ayrim parlamentlarning deputatlari faqat sessiyalarda ishlaydilar, boshqalari deputatlik mandati tan olingach, avvalgi lavozimidan bo'shab doimiy ishlash uchun parlamentga o'tadilar. Parlament davlatning qonunlarini qabul qilishdan tashqari qarorlar, bayonotlar, deklaratsiyalar, murojaatnomalar, rezolyutsiyalar va boshqa hujjatlarni ham qabul qiladilar. Parlamentning reglamenti (parlamentlarning reglamentlari) parlamentni tashkil etishni tartibga soluvchi asosiy hujjatdir. Bundan tashqari parlament to'g'risidagi, parlament deputatlari (a'zolari)ning maqomi haqidagi, uning qo'mitalari va komissiyalari to'g'risidagi qonunlar hamda boshqa hujjatlar ham bo'lishi mumkin. Tarixan parlament hukumat (monarx) va jamiyat o'rtasida amortizator vazifasini bajargan, u jamiyatning hokimiyatda vakillik qilish shakli edi. Parlament ko'pincha ijtimoiy kataklizmlar paytida hal qiluvchi rol o'ynaydi: 17-asrdagi Angliya inqilobi, Oliver Kromvel tomonidan parlamentni tarqatib yuborish va boshqalar. Asta-sekin, hukumat va xalq o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish uchun mo'ljallangan ikkinchi darajali organdan parlamentga aylandi. ko'pgina mamlakatlardagi oliy davlat organi. Dunyodagi eng qadimgi parlamentlar 10-asrda tashkil etilgan Men oroli (Tinvald) va Islandiya (Alting) parlamentlaridir. 979-yilda asos solingan Tinvald butun tarixi davomida uzluksiz

ishlagan, 930-yillarda paydo bo'lgan Alting esa 1801-1845-yillarda rasman ishlamagan (garchi norasmiy uchrashuvlar bo'lgan bo'lsa ham). Moldova, Gruziya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Italiya, Kambodja, Kanada, Frantsiya, Chexiya, Qozog'iston va boshqa ba'zi mamlakatlarda parlamentlar bir xil nomga ega. Ozarbayjon (Milliy Majlis), Rossiya (Federal Majlis), Qirg'iziston (Jogorku Kenesh), Tojikiston (Majlisi Oli), Turkmaniston (Milli Gengesh), Abxaziya (Xalq Majlisi), Ukraina (Oliy Rada) konstitutsiyalarida.), Belarus (Milliy Assambleya), Isroil (Knesset), Mo'g'uliston (Xural), Serbiya va Chernogoriya (Asambleya), Bolgariya (Xalq Assambleyasi), Polsha, Latviya va Litva (har uch mamlakatda - Seym) , Finlyandiya (Eduskunt), Shvetsiya (Riksdag), Germaniya (Bundestag), Armaniston (Milliy Assambleya) va boshqalar parlamentlarni belgilash uchun o'z nomlaridan foydalanadilar. O'zbekiston Respublikasida esa Oliy Majlis deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida" kabi qonunlar tashkil etadi.

Pasport (frantsuzcha: passeport, italyancha: passaporto lotincha: passer) "o'tish" yoki "portdan chiqish" uchun yozma ruxsatnoma. Chegarani kesib o'tishda egasining shaxsini va fuqaroligini tasdiqlovchi davlat hujjati. Ko'pgina mamlakatlarda pasport davlat ichidagi asosiy shaxsiy guvohnoma hisoblanadi (masalan, Belarus). Ayrim mamlakatlarda shaxsiy guvohnoma plastik kartochka ko'rinishida (masalan, Ozarbayjon, Belgiya, Slovakiya, Litva, Fransiya, Xitoy, Gruziya, Qozog'iston, Ukrainada) amalga oshiriladi. Pasport terminologiyasi butun sayyorada keng standartlashtirilgan.

Pasportlar ikki toifaga bo'linadi:

1. maishiy foydalanish uchun (shaxsni tasdiqlovchi hujjat)
2. chet elda foydalanish uchun (sayohat hujjati).

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining Pasporti — O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini va uning egasi shaxsini tasdiqlovchi asosiy hujjatdir. O‘zbekiston Respublikasida pasport berish va undan foydalanish, qayd etish, ro‘yxatdan chiqarish tartibi, shuningdek, pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimi to‘g‘risida” gi Nizom bilan belgilanadi. Mazkur Nizomga binoan, O‘zbekiston Respublikasining 16 yoshga to‘lgan barcha fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportiga ega bo‘lishlari shart. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi hududida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hujjatlar asosida yashaydilar. Pasport xorijga jo‘nab ketish chog‘ida ham amal qiladi. Xorijga jo‘nab ketayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirguniga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududida do-imiy yashab turgan shaxslarga,” O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan shaxslarga ham beriladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari beradi. O‘zbekiston Respublikasining xorijda doimiy yashaydigan fuqarolariga, shuningdek, qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi tomonidan beriladi.

Patent (lotincha: patens) “ochiq”, “aniq”, “ravshan”. Texnik yechim yoki ixtironing davlat tomonidan e’tirof etilganligini va ixtirochining o‘z ixtirosiga olgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat. Patent olish jarayoni, patent oluvchining ma’suliyatlari va eksklusiv huquqlari turli mamlakatlarda turlichadir. Shunday bo‘lsa ham, har bir patent olish uchun yozilgan arizada ixtironing biror-bir yangilik kiritayotgani haqida ma’lumot bo‘lishi kerak. Ko‘p mamlakatlarda berilgan eksklusiv huquqlar boshqalar patentlangan ixtironi ruxsatsiz

yasashi, qo‘llanishi, sotishi yoki tarqatishi oldini oladi.⁵⁹ Xalqaro Savdo Tashkilotining mualliflik huquqlari bo‘yicha shartnomasiga ko‘ra, bu tashkilotga a‘zo mamlakatlarda har qanday sohadagi ixtiro uchun patentlar mavjud bo‘lishi zarur. Patentni odatda davlat beradi. Davlat patent idorasi tomonidan ixtiro muallifiga yoki ariza bo‘yicha huquqiy vorisiga beriladi. Ko‘p mamlakatlardagi qonunlariga ko‘ra, patent 15—20 yil muddatga beriladi. Ba‘zi mamlakatlarda ixtorolarni himoyalash vaqti odatda kamida 20 yil bo‘lishi kerak. Patent odatda shu patent chiqarilgan mamlakat hududida amal qiladi. Xalqaro amal qiluvchi patentlar ham mavjud. Ba‘zi mamlakatlarda ma‘lum bir sohalardagi ixtirolar uchun patent berilmaydi. O‘zbekistonda ixtirolar, foydali model, sanoat namunasiga nisbatan qo‘yiladigan patent olish huquqini vujudga keltiradigan talablar hamda patent idorasining bunday hujjatni berish tartibi mamlakatning “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonunda va 2000-yil 1-iyunda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan “Patent to‘g‘risida”gi shartnoma belgilab berilgan. Bir qancha mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatining muayyan turlari bilan shug‘ullanish uchun berilgan maxsus ruxsatnoma ham “patent” deb ataladi. Davlatdan bunday patentni sotib olish tadbirkorlarni (odatda, yakka tartibdagi tadbirkorni) bundan keyingi (bir yilga yoki boshqa davrga) soliqlar to‘lashdan ozod etadi Patentlar kimgadir ma‘lum bir mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda monopoliya qilish huquqini beruvchi monarxning patent xatlaridan kelib chiqqan. Dastlab, ular monarxning iltimosiga binoan chiqarilgan, hatto ixtirochining o‘zi ham shart emas, ularni monarxning xohishiga ko‘ra har kim olishi mumkin edi. So‘zning zamonaviy ma‘nosida patentlar 1474 yilda Venetsiya Respublikasida paydo bo‘lgan. 1624 yilda Angliyada “Monopoliyalar statuti” chiqarildi, unga ko‘ra “yangi ixtirolar loyihalari” uchun patentlar berildi. AQSH dunyoda birinchi bo‘lib intellektual mulk tizimi konstitutsiyaviy tarzda o‘rnatilgan (1787) mamlakatga aylangan. Unga ko‘ra patent olish imtiyozi (huquq emas) yuridik shaxslarga emas, faqat jismoniy shaxslarga berilgan.

Patronaj (fransuzcha: patronage) “homiylilik”. Voyaga yetgan va aqli raso hamda muomilaga layoqatli bo‘lgan, lekin o‘zlarining sog‘liklaridagi nuqsonlari yoki jismoniy kamchiliklari natijasida o‘z

⁵⁹ „Patentlar: Ko‘p beriladigan savollar (ingl.)“. Mualliflik Huquqi Bo‘yicha Xalqaro Tashkilot

huquqlarini mustaqil holda himoya qilishga hamda o'z majburiyatlarini bajara olishlariga imkoniyatlari cheklangan jismoniy shaxslarga nisbatan homiylikning shakli hisoblanadi. Patronaj voyaga yetgan muomilaga layoqatli shaxslarning faqat ixtiyoriy roziliklari bilan vakolatli organlar tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy, tibbiy patronaj keng qo'llaniladi.

Patrul (fransuzcha: patrouille) “soat”. Vaqtinchalik tuzilma (guruh), harakatlanuvchi (piyoda, otda yoki havo, suv, yer transportlarida) hududni tekshirish, tartibni saqlash yoki xavfsizlikni tekshirish uchun tayinlangan kichik qurolli otryad.⁶⁰ “Patrul” so'zi fransuzcha patrouille (“soat”), “patrouiller” (aylanib o'tish, patrul qilish, qo'riqlash) so'zidan kelib chiqqan. Patrul tarkibiga kiruvchi shaxs “patrul”, patrulning harakati “patrul” deb ataladi. Patrul vazifalari qurolli kuchlar, ichki qo'shinlar, politsiya, idoraviy xavfsizlik tomonidan bajarilishi mumkin.

Penitentsiar tizim (lotincha: poenitentia) “tavba”. Ko'plab xorijiy mamlakatlarda jazoni ijro etish tizimi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi, qonunga muvofiq fuqarolarga nisbatan qo'llanilgan jinoiy jazolarni ijro etishni ta'minlovchi davlat majburlov apparati. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq va bog'liq bo'lmagan jazolarning ijro etilishini, shuningdek tergov ostidagi shaxslarni qamoqqa olingan paytdan to sudgacha (qamoqqa olish tarzidagi protsessual ehtiyot chorasi o'zgartirilgunga qadar) ushlab turishni ta'minlaydi. Zamonaviy jazoni ijro etish tizimining ijtimoiy adolatni tiklash bo'yicha eng muhim faoliyatidan biri jazo funktsiyasi bilan bir qatorda jinoyatlarning takrorlanishining oldini olishdir.

Penya (lotincha: poena) “jazolash”. Majburiyatlarning o'z vaqtida bajarmaganlik uchun to'lanadigan pul jarimasi. Kechiktirib yuborilgan majburiyat summasidan foizlarda belgilanadi va kechikkan muddatning har bir kuni uchun undiriladi. 1.Fuqarolik mulkiy munosabatlarda o'z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun qo'llaniladigan moddiy jazo turi. 2.Penya majburiyatlarning ta'minlash usuli hisoblangan neustoykaning bir turi. Penya majburiyatning bajarilishi kechiktirilganda qo'llaniladi va muayyan vaqt, masalan, o'n,

⁶⁰ Словарь Ожегова “Патруль”

yigirma, o'ttiz kun davomida hisoblanadi. Penya majburiyatning bajarilishi kechiktirilganida kechiktirishning barcha muddati davomida hisoblanib, bajarilmagan summasi yuzasidan belgila foizlar bilan undiriladi. Majburiyatning bajarilishini kechiktirish vaqti oshib borgan sari penya summasining ham o'sib borishi majburiyatni mumkin qadar tezroq ijro etishga qarzdorni majbur qiladi

Petitsiya (lotincha: *petitio*) “iltimos”. Jamoaviy murojaat (talab, so‘rov, iltimos). Davlat hokimiyati organlariga petitsiya yuborish institutining paydo bo‘lishi o‘zining dastlabki bosqichida aholining ayrim qatlamlarining avtoritar hokimiyat despotizmiga tabiiy munosabati bilan bog‘liq bo‘lib, dastlab stixiyali ijtimoiy harakat sifatida mavjud bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan murojaatlar yo‘nalishi muayyan davlatlarning milliy siyosiy, huquqiy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zining konstitutsiyaviy va huquqiy mustahkamlanishini oldi. Bugungi kunda deyarli barcha demokratik davlatlarda umume’tirof etilgan konstitutsiyaviy me’yor davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ularning mansabdor shaxslari hamda mansabdor shaxslari fuqarolarning, ularning birlashmalarining murojaatlari va tashabbuslarini ko‘rib chiqish hamda ularga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda asosli javob berish majburiyatidir.⁶¹ Murojaatlar odatda hokimiyat yoki tashkilotlarga yuboriladi. Yozma, og‘zaki yoki onlayn tarzda topshirilishi mumkin. Birinchi hujjatlashtirilgan arizalar Qadimgi Misrda piramidalar qurayotgan qullar tomonidan qilingan va ular mehnat sharoitlarini yaxshilashni so‘rab murojaat qilganlar.⁶² Zamonaviy imperatorlik davridan oldingi Xitoyda petitsiyalar har doim Transmissiya (Tongzheng si yoki 通政司) idorasiga yuborilgan, u erda sud kotiblari imperatorga arizalarni ovoz chiqarib o‘qib berishgan. Arizalarni olim-mansabdordan tortib oddiy dehqongacha bo‘lgan har bir kishi yuborishi mumkin edi, garchi arizalar shubhali va korrupsion mahalliy amaldorlarni lavozimidan chetlatish uchun yetarlicha ishonarli bo‘lsa, imperatorga o‘qib berilishi ehtimoli ko‘proq edi. Taxtga petitsiyalar kelib tushganda, asl nusxaning bir nechta nusxalari tuzilib, asl yozma

⁶¹ Нестерович В.Ф. Вплив громадськості на прийняття нормативно-правових актів: проблеми конституційної теорії та практики: Монографія. — Луганськ: РВВ ЛДУВС ім. Е.О. Дідоренка, 2014. — С. С. 173–174 (736 с).

⁶² Cheung, Helier (2019-03-26). "Brexit debate: Do petitions ever work?". Retrieved 2019-03-26.

ariza imperatorga yuborilgunga qadar Nazaratchi kotiblar idorasida saqlangan.⁶³ Fuqarolarning hokimiyat organlariga ariza yuborish huquqi birinchi marta tartibga solingan mamlakat Buyuk Britaniya bo'lib, u konstitutsiyaviy huquq fanida konstitutsiyaviylikning tug'ilgan joyi hisoblanadi. Darhaqiqat, Britaniya davlatchiligini shakllantirish uchun barcha asosiy konstitutsiyaviy hujjatlar - 1215 yildagi Magna Karta, 1628 yildagi Huquqlar to'g'risidagi petitsiya va 1689 yilgi Huquqlar to'g'risidagi Bill monarx tomonidan zodagonlarning birinchi vakillarining birlashgan bosimi ostida qabul qilingan.⁶⁴

Plagiat (fransuzcha: plagiat, lotincha: plagiatus) “o'g'irlangan”. O'zganing ijodiy mehnatining himoyalangan natijalaridan shaxs tomonidan qasddan noqonuniy foydalanish yoki tasarruf etish yo'li bilan boshqa shaxslarga o'zi to'g'risidagi yolg'on ma'lumotni haqiqiy shaxs sifatida yetkazish bilan sodir bo'ladigan hodisa.⁶⁵ Plagiat mualliflik huquqi va patent qonunchiligining buzilishi bo'lishi mumkin va shuning uchun ham fuqarolik, ham ba'zi hollarda jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkin. Yevropa tillarida hozirgi ma'noda “plagiat” so'zi XVII asrdan boshlab qo'llanila boshlandi. Rim huquqida plagium (lotincha: o'g'irlash) erkin odamni qamchilash bilan jazolanadigan va jinoiy ravishda qullikka sotishni bildirgan. Plagiat O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi” 1041-1042-moddalari va “Jinoyat kodeksi” 149-moddasida tartibga solinadi.

Plyuralizm, Pluralizm (lotincha: pluralis) “ko'plik”. 1) borliqning bir necha (yoki ko'plab) mustaqil ibtidosi yoki bilimning bir qancha asosi mavjud deb hisoblovchi falsafiy qarash. Shu bilan birga, manfaatlar, g'oyalar, qarashlarning ham ko'pligini bildiradi. Plyuralizm terminini nemis faylasufi X. Volf 1712-yil fanga kiritgan. Plyuralizmning aksi-monizm. G'arb falsafasida juda ko'p oqim bo'lib, ular hozirgi falsafaning plyuralistik harakteridan dalolat beradi (pragmatizm, personalizm, hayot falsafasi va boshqalar); 2) jamiyat siyosiy tizimining xususiyati. Bunda ijtimoiy guruhlar o'z

⁶³ Brook, Timothy (1999). The Confusions of Pleasure: Commerce and Culture in Ming China, p. 33. University of California Press. ISBN 978-0-520-22154-3.

⁶⁴ Нестерович В.Ф. Британская модель конституционно-правового регулирования права петиций // Философия права.. — 2013. — № 4. — С. 12—15.

⁶⁵ Бобкова О. В., Давыдов С. А., Ковалева И. А. Плагиат как гражданское правонарушение // Патенты и лицензии. — 2016. — № 7.

manfaatlarini o'z vakillari (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy va boshqa tashkilotlar) orqali ifodalash uchun tashkiliy tar-tib-qoida tusini olgan imkoniyatlarga ega buladilar. Jamiyatni demokratiyalash jarayonida (qarang Demokratiya) plyuralizm shakllanib, rivojlanadi: u ijtimoiy guruhlarining turli-tuman manfaatlarini aks ettiruvchi har xil qarashlar, mavjudligini anglatadi. Huquqiy plyuralizm hozir rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan. "Birinchii dunyo" mamlakatlaridagi poliyuridizmning namoyon bo'lishi AQSh va Kanadadagi hind qabilalarining huquqiy avtonomiyasi, shuningdek, bir qator shtatlarda shariat sudlarining mavjudligidir.

Politsiya (inglizcha: police) Jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tuzilgan maxsus organlar tizimi. Politsiya huquqbuzarlikning ayrim turlari yuzasidan tekshiruv ishlarini olib boradi. Harbiy Politsiya ayrim davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa davlatlarda) qurolli kuchlaridagi xizmat turi, yo'l harakatini nazorat qiladi, qochoqlar (dezertirlar)ni ushlash, jinoyatlarni tekshirish va boshqa ishlarni amalga oshiradi, Rossiyada 1993-yilda soliq Politsiyasi tuzilgan. Oktabr to'ntarishigacha Turkiston general-gubernatorligida ham Politsiya bo'lgan. Masalan Toshkent shahrida Yangi shahar va Eski shahar Politsiya boshqarmasiga bo'lingan. Politsiya shtati 307 kishidan iborat bo'lgan. O'zbekiston Respublikasida Militsiya Politsiya funksiyasini bajaradi.

Prezident (lotincha: praespdensdan) "oldinda o'tirgan". Respublika shaklidagi boshqaruv davlatlarida davlat va ijro etuvchi hokimiyat yoki faqat davlat boshlig'i. Hozirda ko'pchilik (respublika shaklida idora qilinadigan) mamlakatlarda saylab qo'yiladigan davlat boshlig'i. BMTga a'zo bo'lib kirgan 189 mamlakatning 140 dan ortig'ida prezidentlik lavozimi joriy qilingan. Bunday boshqaruv shakli ilk bor AQShda 1787-yil vujudga kelgan. O'zbekiston tarixida birinchi marta prezidentlik lavozimi 1990-yil 24-martda ta'sis etildi. Prezident faqat davlat boshlig'i emas, balki ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i, ya'ni ma'muriyat boshlig'i (AQSH, Lotin Amerikasida) yoki hukumat boshlig'i (Belarussiya, Qozog'iston, O'zbekiston) hisoblanadi. Qoidaga ko'ra Bosh vazir lavozimi yo'q. Prezident noparlament yo'li

bilan, ya'ni xalq tomonidan (bevosita yoki bilvosita) saylanadi. Parlamentar respublikada (Germaniya, Italiya) Prezident faqat davlat boshlig'i hisoblanadi, ijro etuvchi hokimiyat bosh vazir rahbarligidagi hukumatga tegishli bo'ladi, bu jumladan, Prezidentning ko'pchilik hujjatlarini bosh vazir yoki tegishli vazir tomonidan kontrassignatsiya qilinishi zarurligida ifodalanadi. Prezident qoidaga ko'ra parlament tomonidan yoki uning ishtirokida saylanadi. Aralash turdagi yoki yarimprezidentlik deb atalmish respublikalarda (Fransiya, Portugaliya, Polsha) ham Prezident faqat davlat boshlig'i hisoblanadi, ammo aslida unga parlamentga xisobdor bo'lgan hukumatni boshqarish imkonini beradigan haqiqiy hokimiyat vakolatlariga ega bo'ladi. Bu tizimda Prezident, qoidaga ko'ra umumiy saylovlarda saylanadi. Prezidentlik modeli shaklidan qat'i nazar, Prezident Konstitutsiyaga ko'ra quyidagi vakolatlarga ega bo'ladi: xalqaro munosabatlarda mamlakatni ifoda etadi, xalqaro shartnomalarni tuzadi, hukumat (ma'muriyat) a'zolarini va sudyalarni tayinlashda ishtirok etadi, qonunlarni tasdiqlaydi va e'lon qiladi, farmonlar chiqaradi, qonunchilik tashabbusi huquqi va veto huquqiga ega, orden va medallar bilan mukofotlaydi, oliy harbiy unvonlar beradi, avf etish huquqini amalga oshiradi, fuqarolik masalalarini hal qiladi, diplomatik missiyalar boshliqlarini tayinlaydi va chaqirib oladi. Parlamentar respublika va aralash turdagi respublikada Prezident ma'lum holatlarda parlamentni tarqatib yuborish va muddatdan oldin saylovlar tayinlash huquqiga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-bobida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlaridan tortib majburiyatlarigacha belgilab o'tilgan.

Prezumpsiya, Aybsizlik prezumpsiyasi (lotincha: praesumptio) "taxmin", "gumon". Shaxs huquqlari himoyasini ta'minlab beruvchi, asossiz ayblash va jazolashning oldini oluvchi jinoyat protsessining umumiy demokratik tamoyillaridan biri hisoblanadi. Aybsizlik prezumpsiyasi – aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda na-zarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas yoki o'zini aybdor deb ko'rsatish ham qonunda

belgilangan tar-tibda aybi isbotlanmaguncha uni aybdor deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 23-moddasida ko'rsatilishicha, aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

Partiya (lotincha: partio) “bo'laman”, “ajrataman” degan ma'noni anglatadi. G'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan (qarang Siyosiy partiyalar), shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi. Siyosiy partiya – umumiy ijtimoiy-sinfiy, siyosiy-iqtisodiy, milliy-madaniy, diniy va boshqa manfaatlar va ideallarga ega bo'lgan shaxslarni ixtiyoriy asosda birlashtirgan, o'z oldiga siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish yoki ularda ishtirok etishni maqsad qilib qo'yadigan ierarxik siyosiy tashkilotdir. bu. Dastlabki Siyosiy partiyalar 17-18-asrlar inqiloblari davrida paydo bo'la boshlagan bo'lsada, Siyosiy partiyalarga o'xshash jamoa, tashkilotlar qadimdan mavjud edi. Afina geteriyalari, Rim optimat va populyarlari antik davrda Siyosiy partiyalar vazifasini bajargan. Siyosiy partiyaning universal shakli asosan, qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan kishilar guruhi va maxfiy tashkilotlar bo'lgan (Yorklar va Lankasterlar-o'rta asrlar Angliyasida; Ali tarafdorlari-o'rta asrlarda Arabistonda). Osiyo davlatlarida hozirgi kunda ham qarindoshlik va yurtdoshlik tamoyillarining Siyosiy partiyaning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishida ahamiyati katta. O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lganidan so'ng Siyosiy partiyaning shakllanishi va faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratildi. Mamlakatda hozirgi paytda 5 ta siyosiy partiya (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston “Adolat” Sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi) mavjud. Bu Siyosiy partiyalar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi qonuni, boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, o'z ustavi asosida amalga oshiradi.

Prekursor (lotincha: praecursor) “oldingi”. Maqsadli moddaning hosil bo'lishiga olib keladigan reaksiyada ishtirok etadigan modda. Muayyan holatda u Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari ro'yxatiga kiritilgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning prekursoridir.⁶⁶ BMTning “Giyoxvandlik vositalari va psixotr moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash to'g'risida”gi 1988 yilgi Konventsiyasiga llovaning I va II jadvallariga kiritilgan har qanday modda.

Prefektura (lotincha: praefectura) boshliq, komandir. Suveren davlat yoki ba'zi xalqaro cherkov tuzilmalarining ma'muriy okrugi va Qadimgi Rimda tayinlangan prefekt tomonidan boshqariladigan tuman. Bugungi kunda Kvebek (Kanada), Yaponiya , Xitoy , Madagaskar va Marokashda viloyatlar prefekturalar deb ataladi.

Preyudisial ish yuritish (lotincha: apraef udicio) oldindan hal etish. Ma'lum bir sud tomonidan ko'rib chiqilgan va kuchga kirgan qarorni keltirilgan dalil va isbotlarni qayta tekshirilmasdan quyi instantsiya sudlari tomonidan so'zsiz bajarilishi. Bunda agar sud tomonidan - birinchi bor atrofga xavf soluvchi manba egasi tomonidan keltirilgan zarar bo'yicha qaror kuchga kirgan bo'lsa, regress da'vo berilgan taqdirda, sudda qayta ko'rib chiqish jarayonida qarorda bayon etilgan faktlar o'zgarishsiz qabul qilinadi va bu preyuditsial ahamiyatga ega bo'ladi.

Provinsiya (lotincha: provincia). Hududiy, ko'pincha ma'muriy, ittifoq tarkibidagi birlik. Provinsiya dastlab Qadimgi Rimda Apennin yarim orolidan tashqarida joylashgan va Rim gubernatorlari tomonidan boshqariladigan qadimgi Rimga bo'ysunuvchi hududlar, ya'ni rimliklar tomonidan bosib olingan xorijiy hududlar (Afrika, Yuqori Germaniya va Quyi Germaniya) bo'lgan. Bugungi kunda Argentina, Kanada, Pokistonda federatsiya sub'ektlarining nomi; Niderlandiya, Kolumbiya va qator unitar davlatlarda eng yirik ma'muriy-xududiy bo'linish birliklarining nomi.

Prokuratura (lotincha: procurare) “g'amxo'rlik qilish”. Ayrim mamlakatlarda jinoiy ishlarni qo'zg'atish, ayblovni yoqlash, sud

⁶⁶ Юридический словарь. Дата обращения: 4 января 2011.

protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan maxsus davlat organi (organlar tizimi). Dastlab 13-14-asrlarda Fransiya yuzaga kelgan. Bir qancha mamlakatlarda Prokuraturaga barcha fuqarolar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning qonunlarni aniq va bir xilda bajarishi ustidan nazorat qilish vazifasi ham kiradi. Muayyan mamlakatlarda Prokuratura sudning tarkibiy qismi hisoblanadi, boshqalarida esa tashkiliy jihatdan undan ajratilgan. Bosh prokuror O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan saylanadi. Boshqa viloyat, tuman va shahar prokurorlari Bosh prokuror tomonidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasida ham Prokuratura hokimiyati faol ishtirok etadi. Bundan tashqari prokurorlar sudlarda ham ishtirok etadi.

Promulgatsiya (lotincha: promulgatio) “e’lon qilish”. Bir qator xorijiy davlatlarning Konstitutsiyaviy huquqiga ko’ra, vakolatli organ tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan qonunning davlat boshlig’i tomonidan Konstitutsiyada yoki qonunda belgilangan muddatda rasmiy bosma nashr orqali e’lon qilinishi. Promulgatsiya deganda qonunni rasmiy e’lon qilish haqidagi farmoyishni o’zida akst ettirgan maxsus aktning e’lon qilinishini tushunish mumkin. Odatda, Promulgatsiya davlat boshlig’ining farmoni, farmoyishi, buyrug’i yoki shunga o’xshash huquqiy akti bilan amalga oshiriladi, bunda davlat boshlig’ining bunday huquqiy akti ommaviy nashrlarda Promulgatsiya qilinayotgan qonun akti bilan birga e’lon qilinadi. Qonun promulgatsiyadan keyingina majburiy kuchga ega bo’ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga ko’ra, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat ma’qullovidan o’tganidan keyin Prezident tomonidan imzolangach va qonun belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e’lon qilingandan so’ng yuridik kuchga ega bo’ladi (84-modda). O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan sundan e’tiboran o’n kundan kechiktirmay O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi. Senat ma’qullagan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O’zbekiston Respublikasi Prezidentiga o’n kun ichida yuboriladi. Prezident tomonidan qonun o’ttiz kun ichida imzolanadi va e’lon qilinadi. Prezident qonunga o’z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo’yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli. Agar qonun avvalgi qabul

qilingan tahririda tegishincha Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati a'zolari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, u Prezident tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak. Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

Protest (lotincha: protestor) “oshkora isbotlayman”. Prokurorning norozilik hujjati. O'zbekiston Respublikasida protest qonunga zid bo'lgan hujjatni qabul qilgan organga yoki mansabdor shaxsga, shuningdek, yuqori organga yoxud yuqori mansabdor shaxsga, sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qarori ustidan protsessual qonunda belgilangan tartibda beriladi. Protest berilgan vaqtdan boshlab 10 kundan kechiktirmay ko'rib chiqilishi shart. Qonunbuzarlikni darhol bartaraf etish talab qilingan alohida hollarda prokuror protestni ko'rib chiqishning qisqar-tirilgan muddatini belgilashga hakli. Protest ko'rib chiqish natijalari to'g'risida 3 kun ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi. Protest kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma'lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir. Protest shu hujjatni qabul qilgan yoki yuquri turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan rad etilganda, shuningdek, Protest 10 kunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmagan taqsirda, prokuror ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan 1 oy ichida sudga murojaat etishga haqli. Ariza sudda ko'rib chiqilgunga qadar berilgan hujjatning amal qilishi to'xtatib turiladi. Sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qaroriga nisbatan keltirilgan apellyasiya, kassatsiya, xususiy va nazorat tartibidagi ishni sudda ko'rish boshlangunga qadar Protest bergan prokuror tomonidan, shuningdek, yuqori turuvchi prokuror tomonidan o'zgartirilishi, to'ldirilishi yoki chaqirib olinishi mumkin.⁶⁷

Protokol (yunoncha: protokolollon) “birinchi yelim” ma'nosini anglatadi. Dastlab biror voqea, fakt yoki kelishuvni belgilovchi hujjat edi. Keyinchalik bu so'zning semantikasi sezilarli darajada kengaydi. Protokol - sodir bo'lgan (yoki sodir bo'layotgan) muayyan hodisalarni qayd etuvchi ma'lum formatdagi yozuv, masalan: voqea, so'roq va boshqa tergov harakatlari to'g'risidagi politsiya protokoli; rasmiy

⁶⁷ G'afur Abdumajidov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

uchrashuv protokol. Yigʻilish bayonnomasi - ochiq yigʻilish, sud muhokamasi va qabul qilingan qarorlarni oʻtkazish jarayonini aks ettiruvchi rasmiy yozma hujjat. Musobaqa bayonnomasi sport musobaqasining borishi va natijalarini aks ettiruvchi rasmiy yozma hujjatdir. Kelishmovchiliklar bayonnomasi - kelishuv shartlarini muhokama qilish jarayonida ishlab chiqilgan hujjat. Xalqaro miqyosda davlatlararo kelishuvlarni qayd etish hujjati nomi. Masalan, elchixona faoliyatini muvofiqlashtirish bitimlari toʻgʻrisidagi protokol kabilar.

Profilaktika (yunoncha: profilaktikos) saqlovchi, oldini oluvchi. Ikki xil maʼnoda tushunish mumkin: 1) tibbiyotda foydalaniladigan profilaktika. 2) huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olishda foydalaniladigan profilaktikaga ajratiladi.

R

Rayon (fransuzcha: rayon) “asal uyasi”. Bir qator mamlakatlarda hududiy birlik(tuman): Rossiya, Ozarbayjon, Belarus, Qirgʻiziston, Litva, Moldova, Tojikiston, Ukraina. Oʻzbekiston Respublikasi tumanlari mustaqillikgacha rayon deb nomlangan.

Rastrata (ruscha: растрата) “oʻgʻirlash”, “isrof qilish”. Mulkka qarshi jinoyat, oʻgʻirlikning mustaqil shakli boʻlib, u aybdor shaxsga ishonib topshirilgan mol-mulkning bir qismini olib qoʻyish va uni uchinchi shaxslar foydasiga tekinga aylantirish yoki aybdor shaxs tomonidan isteʼmol qilish (xarajat qilish)dan iborat. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 167-moddasiga koʻra: qonunga xilof ravishda oʻzganing mulkini sotish. sarflash, isteʼmol qilish, hadya qilish va h.k. yoʻllar bilan begonalashtirish tushuniladi.

Ratifikatsiya (lotincha: ratusfacere) hal qilingan, tasdiqlangan va qilmoq. Xalqaro shartnomaning davlat hokimiyati oliy organi tomonidan tasdiqlanishi. Odatda, eng muhim xalqaro shartnomalargina ratifikatsiya qilinadi. Koʻpchilik davlatlarning konstitutsiyalari xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish huquqini davlat boshligʻi vakolatiga yoxud bevosita oliy qonun chiqaruvchi organ vakolatiga kiritadi; Oʻzbekistonda xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish toʻgʻrisida

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati birgalikda qaror qabul qiladi; 2) ba'zi mamlakatlarda konstitutsiyaga kiritilgan tuzatishlar tasdiqlanishining maxsus tartibi. Masalan, AQSH konfessi konstitutsiyani qabul qilgandan keyin unga qilinadigan tuzatishlar kamida 3/4 shtatlardagi qonun chiqaruvchi majlislar yoki maxsus konventlar tomonidan tasdiqlanishi kerak. Avstraliyada konstitutsiyadagi o'zgartirishlar loyihasi parlamentda ma'qullangandan keyin u mamlakatda va aksariyat shtatlarda saylovchilarning ko'pchilik ovozi bilan referendumda tasdiqlanishi talab qilinadi.

Reabilitatsiya (lotincha: rehabilitatio) “tiklash”. Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari tomonidan jinoyat sodir etishda asossiz gumon qilingan yoxud ayblangan shaxs sha'ni va qadrqimmatining tiklanishi. Reabilitatsiya inson huquqlarini kafolatlashning o'ziga xos turi. Reabilitatsiya huquqiy davlat, adolatli fuqaroviy jamiyat qurishning muhim shartlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida shaxsning huquq va qonuniy manfaatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek, xalqaro hujjatlar bilan muhofaza qilinadi va kafolatlanadi. 1930—40 yillardagi qatag'on qurbonlarining xotirasini abadiylashtirishda hamda ularning sha'ni va qadrqimmatini tiklashga qaratilgan normativ hujjatlarda Reabilitatsiya qo'llash nazarda tutilgan. Shuningdek, sho'rolar davrida mamlakatning olis joylariga majburiy ravishda ko'chirilgan xalqlar va ayrim fuqarolar ham reabilitatsiya qilindi. Reabilitatsiya qilingan shaxsga nisbatan g'ayriqonuniy protsessual majburlov choralari qo'llangan, chunonchi ushlab turilgan, qamoqda saqlangan, egallab turgan lavozimidan chetlashtirilgan, tibbiy muassasaga joylashtirilgan bo'lsa, unga yetkazilgan moddiy va ma'naviy ziyon qoplanishi, uning barcha huquqlari tiklanishi shart. Reabilitatsiya to'la yoki qisman ko'rinishida bo'ladi. Javobgarlikdan batamom ozod qilingan aybsiz shaxs to'la reabilitatsiya qilingan hisoblanadi. Agar shaxs qamoqda saqlab turilganiga qaraganda kamroq muddatga ozodlikdan mahrum etilgan yoki qamoq bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan, ayblov qisman chiqarib tashlangan, yuqori sud ozodlikdan mahrum qilish muddatini o'talgan qismidan ham kamaytirilgan yoxud yengilroq jazo turi bilan almashtirgan, jinoiy jazo tayinlamay hukm chiqargan bo'lsa, u qisman reabilitatsiya qilingan bo'ladi. To'la yoki qisman

reabilitatsiya etilgan shaxsga ziyon tegishli to'la hajmda yoxud qisman qoplanishi lozim. Reabilitatsiya qilinganni lavozimiga tiklash, ishlashdan mahrum bo'lgan vaqtini mehnat va ixtisoslik stajiga qo'shish, o'quv yurtida o'qish va uy-joydan foydalanish huquqlarini tiklash tartibi bor. Shaxs ushlab turilgani, qamalgani, lavozimidan chetlashtirilgani, tibbiy muassasaga joylashtirilgani haqidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan bo'lsa, u reabilitatsiya qilingani haqida o'sha ommaviy axborot vositalarida xabar berilishi shart. Reabilitatsiya qilingan shaxs vafot etgan taqdirda unga yetkazilgan moddiy ziyon uning merosxo'rlari va oila a'zolari foydasiga undiriladi. Ziyonning miqdorini sud belgilaydi. Mulkiy ziyon to'lanishini manfaatdor shaxslar tergovchi, prokuror yoki suddan 2 yil mobaynida, boshqa huquqlarni tiklashni 1 yil mobaynida talab qilishlari mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi, 301 — 313 moddalar).⁶⁸

Rekvizitsiya (lotincha: *requisitio*) “talab”. Davlat organlari tomonidan mulkdordan mulkni qaytarib olish sharti bilan davlat mulkiga yoki vaqtincha foydalanishga majburlab olib qo'yish. Xalqaro huquqda rekvizitsiya - bu urushayotgan davlat armiyasi tomonidan foydalanish uchun mulk egasidan pullik olib qo'yish. 1954-yilda qabul qilingan Qurolli to'qnashuvlar vaqtida madaniy boyliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi Gaaga konventsiyasiga ko'ra, boshqa davlat hududida joylashgan ko'char madaniy boyliklarni rekvizitsiya qilish taqiqlanadi.⁶⁹ Mulkni haq to'lab majburiy ravishda davlat egaligiga to'la yoki vaqtincha foydalanish uchun olish. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga ko'ra, tabiiy ofatlar, avariylar, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tusdagi boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to'lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo'yilishi mumkin. (Fuqarolik Kodeksi 203 modda). Rekvizitsiya o'tkazilishiga sabab bo'lgan vaziyatlarning amal qilishi to'xtaganidan keyin rekvizitsiya qilingan mol-mulkning sobiq egasi saqlanib qolgan mol-mulkni o'ziga qaytarib berishni talab

⁶⁸ G'afur Abdumajidov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁶⁹ Реквизиция / К. А. Бекашев // Пустырник — Румчерод. — М. : Большая российская энциклопедия, 2015. — С. 359. — (Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов ; 2004—2017, т. 28). — ISBN 978-5-85270-365-1

qilishga haqli. Qonunda chet el investorlari mulkiga nisbatan rekvizitsiya qo‘llash shartlari va tartibi ham aniq belgilangan.

Replika (fransuzcha: *réplique*) “rad etish”, “javob”, “e’tiroz bildirish”. Huquq fanida: sud muhokamasida taraflarning bahs-munozarasi paytida ularning e’tirozi.

Respublika (lotincha: *respublica*) “ijtimoiy ish”, “umumxalq”. Davlat boshqaruvi shakli, unda barcha davlat hokimiyati organlari saylab qo‘yiladi yoki umummilliy vakolatli muassasalar (parlamentlar) tomonidan shakllantiriladi, fuqarolar esa shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega bo‘ladilar. Tarixan Respublika antik davrda monarxiyaning ziddi sifatida vujudga kelgan (Masalan: Afinadagi quldorlik demokratiyasi). Mil.av. 5—4-asrlarda Sparta va mil.av. 2-asrda Rim davlati aristokratlar qismi manfaatlarini ifoda etgan. O‘rta asrlarda Respublika boshqaruv shaklini qo‘llagan Venetsiya va Genuya singari shahardavlatlar bor edi. Hozirda dunyodagi 195 ta suveren davlatdan 159 tasi o‘zining rasmiy nomlari tarkibida “respublika” so‘zidan foydalanadi; ammo ularning hammasi ham saylangan hukumatga ega degan ma’noda respublikalar emas va hukumati saylangan barcha mamlakatlar nomida “respublika” so‘zi ishlatilmaydi. Boshqaruvning Respublika shakli quyidagi turlarga ajratiladi: 1) prezidentlik Respublikasi (AQSH, Meksika va boshqalar), bunda prezident umumxalq saylovida saylanib, bir vaqtning o‘zida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanadi; 2) parlamentar respublika (Italiya, Germaniya, Vengriya va boshqalar), bunda parlament to‘liq hokimiyatga ega bo‘lib, uning oldida hukumat siyosiy javobgar hisoblanadi. Parlament prezidentni saylaydi. Bunda prezident faqat davlat boshlig‘i bo‘lib, ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanmaydi; 3) aralash tipdagi respublika (yarim prezidentlik; Fransiya, Portugaliya, Finlandiya, Yevropadagi totalitar tuzumdan xalos bo‘lgan yangi mamlakatlarning aksariyati), bunda prezidentlik respublikasi bilan parlamentar respublika xususiyatlari qo‘shilib ketadi. Ya’ni prezident umumxalq saylovlarida saylanib, yuridik va real keng vakolatlarga ega bo‘ladi. Biroq hukumat parlament tomonidan tashkil etiladi va u nafakat prezident oldida, balki parlament oldida ham siyosiy javobgar

bo‘ladi. Bunda prezident hukumatga umumiy rahbarlik qiladi, lekin uni bosh vazir boshqaradi. Prezident ma’lum holatlar yuz berganda parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi — suveren demokratik respublika bo‘lib, mamlakatimizda prezidentlik Respublikasi boshqaruv shakli amal qiladi.

Referendum (lotincha: referendum). Bu fuqarolarning davlat, viloyat yoki mahalliy ko‘lamda eng muhim masalalar bo‘yicha ovoz berish yo‘li orqali o‘z fikrlarini bevosita bildirishlaridir. Umumxalq ovoz berish yo‘li bilan qonunlar qabul qilish va davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalarni hal qilish shakli. Bevosita demokratiyaning muhim vositasi. Referendumning saylovlardan asosiy farqi shundaki, referendum o‘tkazilayotganda biron bir lavozimga nomzod yoki nomzodlar ro‘yxati uchun ovoz berilmaydi, balki unda muayyan masala—qonun, qonun loyihasi, konstitutsiya, konstitutsiyaga tuzatishlar, mamlakat xalqaro maqomiga taalluqli yoki ichki siyosatiga oid biron bir savol qo‘yiladi. Saylov natijalari majoritar tizim bo‘yicha ham, proporsional tizim bo‘yicha ham aniqlanishi mumkin bo‘lsa, referendum natijalari faqat majoritarizm (mutlaq ko‘pchilik ovozini hisoblash) tamoyillari asosidagina aniqlanishi mumkin. Referendumning o‘ziga xos shakli plebissit hisoblanadi. Ayrim mamlakatlar (Masalan: Fransiya)da plebissit referendumga nisbatan birmuncha kengroq tushuncha hisoblanadi. Ba’zi mamlakatlar (Masalan: AQSH)da esa plebissit bilan referendumni farqlamaydilar. Hozirgi zamon davlatlarining konstitutsiyaviy huquqi referendum va uni o‘tkazishning turli xil ko‘rinishlarini nazarda tutadi. Referendumlar butun davlat hududida o‘tkaziladigan umumilliy referendum va alohida federatsiya sub’yektlari yoki ma’muriy-hududiy birliklarda o‘tkaziladigan mahalliy referendumga bo‘linadi. Konstitutsiyaga yoki qonunlarga taalluqli referendum o‘tkazilishi mumkin. Birinchi holda yangi konstitutsiya loyihasi yoki konstitutsiyaga qilinadigan o‘zgartirish va tuzatishlar bo‘yicha referendum o‘tkazilsa, ikkinchi holatda qonun loyihasi yoki kuchga kirgan qonun bo‘yicha referendum o‘tkaziladi. Huquqiy ahamiyati jiqatdan maslahat referendumlari (xalq so‘rovi deb ham ataladi) va hal qiluvchi referendumlar bo‘ladi.

Maslahat referendumlari biron bir masala yuzasidan saylovchilarning irodasini aniqlab olish bo'yicha o'tkazilib, ana shu asosida davlatning boshqa organlari qaror chiqaradi (bunday referendumlar Shvetsariya, Ispaniyada o'tkaziladi). Hal qiluvchi referendumlarda biron-bir masala uzil-kesil qaror chiqarish uchun saylovchilar ovozigga qo'yiladi. Shuningdek, majburiy va fakultativ referendumlar bo'ladi. Referendumlar o'tkazish zarurati konstitutsiya yoki boshqa konstitutsiyaviy huquqiy hujjatda ko'rsatilgan bo'lsa (Masalan: konstitutsiya o'zgartiriladigan holda) majburiy referendumlar o'tkaziladi. Fakultativ referendumlar tegishli davlat organi yoki saylov korpusi irodasiga bog'liq holda o'tkaziladi. "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'rsida"gi qonun (dastlab 1991-yil 18 noyabrda qabul qilingan, 2001-yil 30 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan)ga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining referendumi O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarini qabul qilish maqsadlarda jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Referendum O'zbekiston Respublikasining butun hududida o'tkaziladi. Referendumni o'tkazish tashabbusi bilan: O'zbekiston Respublikasi fuqarolari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi; O'zbekiston Respublikasi Prezidenta chiqishi mumkin. Referendumda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan (18 yoshga to'lgan) O'zbekiston fuqarolari umumiy sonining kamida 5 foizini tashkil etgan fuqarolar imzosi to'plangan (bunda imzo chekkan fuqarolar miqdori har bir ma'muriyhududiy tuzilma bo'yicha bir tekis va mutanosib ravishda taqsimlangan) bo'lsa; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari a'zolarining uchdan ikki qismining ovozi bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asoslantirilgan talabi bilan referendum o'tkazilishi mumkin. Quyidagi masalalar referendum predmeti bo'lishi mumkin emas: O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini o'zgartirish; O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va soliklar; amnistiya va afv etish; jamoat tartibini, aholi sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha favqulodda va shoshilinch chora-tadbirlar

o‘tkazish; O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish; mansabdor shaxslarni tayinlash va vazifasidan ozod etish. Referendum yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi tarixida 1-marta 1991-yil 29 dekabrda referendum bo‘lgan. Bu referendumda “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31 avgustdagi Konstitutsiyaviy qonuni to‘g‘ri qabul qilinganligini O‘zbekiston xalqi bir ovozdan ma’qulladi. 2002-yil 27 yanvarda O‘zbekiston Respublikasida 2 palatalik parlamentni shakllantirish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini 5 yildan 7 yilga o‘zgartirishga bag‘ishlangan referendum bo‘lib o‘tdi. Bu referendumlar O‘zbekistonda demokratiya mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Regent (lotincha: regere) “boshqarmoq”, “hukmronlik qilmoq”. Kichik hukmdor qo‘lida vasiy shaklida mamlakatni boshqaradigan hukmdor. Taxt vorisi yosh yoki uning kasallik (jinnilik yoki boshqa uzoq davom etadigan kasallik) davrlarida mamlakat boshlig‘i vakolatlarini jamoaviy (regionlar kengashi) yoki yolg‘iz (regent) vaqtincha amalga oshirish regentlik bir yoki bir necha shaxslar tomonidan tashkil etiladi.

Reglament (fransuzcha: reglement) “tartib”, “qoida”. Palata yoki bir palatali parlamentning ichki tashkil etilishi va faoliyat shakllarini, shuningdek, deputatning huquqiy maqomini tartibga soluvchi doimiy yoki vaqtinchalik qoidalar majmui. Qoidalar palatalar tomonidan konstitutsiyalarda, konstitutsiyaviy va organlar qonunlarda mavjud bo‘lgan prinsiplar va boshqa ko‘rsatmalarga muvofiq qabul qilinadi, shuning uchun ular faqat konstitutsiyaviy nazorat organlari tomonidan bekor qilinishi mumkin. Palatalarda odatda qoidalar rioya etilishini nazorat qilish uchun maxsus qo‘mitalar tuziladi. 1) davlat organlari, muassasalari, tashkilotlarining ish tartibini belgilaydigan qoidalar majmui (Masalan: Oliy Majlis reglamenti); 2) majlis, konferensiya va boshqalarni olib borish tartibi; 3) xalqaro kongresslar va

konferensiyalar ayrim hujjatlarining nomi (Masalan: 1815-yilgi Vena reglamenti).

Regress (lotincha: regressus) “orqaga ketish”. Rivojlanishning yuqori darajadan quyi darajaga o‘tish davri, tanazzuli. Regress - bir jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan boshqa majburiyatli shaxsga to‘langan summani qaytarish to‘g‘risidagi teskari da’vo.

Rezident (lotincha: residents) “o‘tiruvchi”, “joyida qoluvchi”. Quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1) o‘rta asrlarda muayyan mamlakatda doimiy yashovchi chet ellik diplomatik vakili; 2) mustamlakachi davlatning protektoratdagi vakili; odatda, u ana shu protektoratning hokimi hisoblangan; 3) chet el razvedkasining boshqa biror davlatdagi yashirin vakili; 4) muayyan mamlakatda milliy qonunchilikka to‘la rioya qiluvchi ro‘yxatdan o‘tgan yuridik yoxud jismoniy shaxs. Rezident elchidan bir darajada quyi turuvchi diplomatik vakil. Qaram davlatga hokimlik qiladigan vakil. Xorijiy davlat fuqarosi. Razvedkaning maxfiy vakili. Rezidentlar qaram davlatda hokimlik qiladigan vakillar.

Rekvizitlar (lotincha: requisitum) “kerakli”, “zarur”. Muayyan hujjat (Masalan: chek, veksel)ni haqiqiy deb topish uchun unda bo‘lishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar. Maslan hujjat nomi, hujjat tuzilgan sana; ishtirokchi tomonlarning nomlari, manzillari; bitim shartlari, javobgar shaxslarning imzolari va h.k.). Buxgalteriya, pul hujjatlari, shuningdek, chet el sub’yektlari bilan tuziladigan hujjatlarda rekvizitga alohida e’tibor beriladi.

Renta (nemischa: rente, lotincha: reddita) “qaytarib berilgan”. 1) keng ma’noda — mulk egalarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmasdan yer, mol-mulk, kapitaldan muntazam oladigan daromadi; ssudaga berilgan kapitaldan foiz, yer egalarining ijaraga berilgan yer uchastkasidan, uy-joy egalarining ijaraga berilgan binolardan muntazam oladigan daromadi. Tor ma’noda renta — qat’iy daromadli pul kapitali va qimmatli qog‘ozlar egalari foiz shaklida oladigan daromad. Aksariyat hollarda renta tushunchasi yerni ijaraga

berish natijasida olinadigan daromadga nisbatan qo'llaniladi (qarang Yer rentasi); 2) sug'urta polisi bo'yicha sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urtalangan shaxsga har yili to'lanadigan pul summasi.

S

Sabotaj (fransuzcha: sabotage) “yog'och kovush bilan taqillatmoq”. 1) shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan ongli holda o'z xizmat vazifasini ataylab bajarmaslik yoki sifatsiz va beparvolik bilan bajarish, ishdan bosh tortish; 2) bironbir tadbirni o'tkazishga zimdan qarshilik, ongli holda zararkunandalik. AQSh jinoiy qonunchiligida sabotaj⁷⁰ bu AQSh mudofaasiga zarar yetkazish yoki xalaqit berish maqsadida mudofaa (harbiy) inshootlar, materiallar yoki qurilmalarga nisbatan qasddan shikast etkazish, yo'q qilish, ifloslantirish yoki bunga urinishdir Qo'shma Shtatlar yoki unga aloqador har qanday davlatga harbiy tayyorgarlikda, urush yoki mudofaa operatsiyalarini o'tkazishda (urush paytida yoki favqulodda holat paytida) zarar etkazish yoki aralashish. Rossiya jinoyat huquqida ham “sabotaj” tushunchasi ushbu ta'rifga yaqin.

Sanatsiya (lotincha: canatio) “sog'lomlashtirish”, “davolash”. Bankrotlik xavfidan qutqarish, korxonalar, firmalar, kompaniya va boshqalarning moliyaviy ahvolini yaxshilashga qaratilgan davlat va bank chora tadbirlari tizimi. Asosiy yo'nalishlari — nochor korxonalarni kreditlash, qayta tashkil etish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar yoki faoliyat turlarini o'zgartirish, o'z xomiyligiga o'tkazish va boshqa sanatsiya bozor uchun tabiiy narsa, chunki bozor qonuniyatlariga ko'ra, bir korxonaning gullab yashnab ketishi, boshqasining tang ahvolga tushishi yuz beradi. Sanatsiya orqali davlat bozor iqtisodiyotiga ta'sir etadi. O'zbekistonda sanatsiya tadbirlari O'zbekiston Respublikasining, “Qishloq xo'jaligi korxonalarini

⁷⁰ US Code, Title 18 (Crimes and Criminal Procedure). Part I (Crimes). Chapter 105 (Sabotage). Дата обращения: 26 марта 2008

sanatsiya qilish to'g'risida" qonuni (1997-yil 25 dekabr)ga muvofiq, 1998-yildan qishloq xo'jligida sanatsiyaga tushgan (bankrot bo'lgan yoki uning arafasida turgan) qishloq xo'jaligi korxonalariga nisbatan davlat tomonidan moliyaviy yordam va tashqi ishonchli boshqaruvchilar tayinlash shaklida amalga oshirildi va qoniqarli natijalar berdi.

Sanksiya (lotincha: sanctio) "qat'iy qaror". Yuqori instansiyaning biror narsani tasdiqlashi, ijozati. Jinoyatda gumon qilingan shaxsga nisbatan majburiy chora (qamoqqa olish, tintuv va boshqalar) ko'rish uchun prokuror tomonidan beriladigan ruxsat. Iqtisodiy sanksiya — bir mamlakat (yoki mamlakatlar guruhi) tomonidan boshqa bir mamlakatga (yoki mamlakatlar guruhiga) qarshi qo'llanilgan jazo. Sanksiya (huquqshunoslik) — huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan va uning uchun muayyan oqibatlar keltiruvchi chora. Xalqaro sanksiya — o'z xalqaro majburiyatlarini yoki xalqaro huquq normalarini buzgan davlatga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir chorasi. Sanksiya — huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan va uning uchun muayyan oqibatlar keltiruvchi chora. Sanksiya xarakteri va qaysi organ tomonidan qo'llanilishiga qarab jinoiy-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, intizomiy-huquqiy, mulkiy sanksiyaga bo'linadi. Jinoiy-huquqiy sanksiya (ozodlikdan mahrum qilish, surgun va hokazolar) faqat sud tomonidan qo'llaniladi. Ma'muriy-huquqiy sanksiya (jarima, ma'muriy qamoq) militsiya, politsiya, davlat inspeksiyasi va shu kabilar tomonidan qo'llaniladi. Intizomiy-huquqiy sanksiya (lavozimini pasaytirish, ishdan bo'shatish) — mansabdor shaxslar va ma'muriyat tomonidan qo'llaniladi. Mulkiy sanksiya (masalan, qoida buzuvchining jabrlanuvchiga yetkazilgan ziyonni to'lashi yoki jabrlanuvchi foydasiga undirib berilishi, bitim, shartnoma yoki kontraktning haqiqiy emas deb topish, neustoyka to'lash va shu kabilar) sud, xo'jalik sudi tomonidan alohida chora sifatida yoki boshqa choralar bilan birgalikda qo'llaniladi.

Senat (lotincha: senātus, senex) "qariya". Davlat hokimiyatining yuqori organi bo'lib, ko'pincha qonunchilik kengashlarining (parlament) yuqori palatasi shunday nomlanadi. Qadimgi Rim Respublikasi davrida oliy hokimiyat organi; Rossiyada 1711 — 1917-

yillarda hokimlik qiluvchi senat qonun chiqaruvchi va davlatni boshqaruvchi oliy davlat organi bo'lgan. Bir qancha davlatlarda (Italiya, Fransiya, AQSH, shuningdek, O'zbekistonda ham) parlament yuqori palatasining nomi. Odatda, quyi palataga nisbatan boshqacha tartibda saylanadi. Federatsiyalarda (masalan, AQShda) har qaysi shtatdan 2 tadan senator saylanadi; odatda, senatorlarning 1/3 qismi har 2—3 yilda almashtirib turiladi. Ba'zi hollarda senatorlar muayyan sud vakolatlariga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida Senat a'zolari (senatorlar) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — 6 kishidan saylanadi. Senatning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot sohasida, davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi S.ining (jami 100 senator) vakolat muddati 5 yil. Uning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi, konstitutsiyaviy qonunlarga, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi qonunga muvofiq tashkil etiladi.

Separatizm (fransuzcha: *séparatisme*) "ajratilgan". Ajralishga, alohidalikka intilish; davlatning bir semiki milliy, diniy, etnografik, siyosiy, iqtisodiy sabablarga ko'ra, ajratib olib yangi davlat tuzilmasi tuzish yoki mamlakatning bir qismini muxtoriyatga aylantirish harakati. Separatizmning kuchayishi yoki pasayishi tashki va ichki omillarga bog'liq bo'ladi. Mamlakat hududida har bir millat, elat, xalqning manfaatidan kelib chiqib siyosat yuritilsa, ularning har tomonlama rivojlanishi, o'zini shu mamlakatning teng huquqli fuqarosi sifatida his qilishi uchun huquqiy, siyosiy, iqtisodiy shartsharoitlar yaratilgan bo'lsa, Separatizmga o'rin qolmaydi va aksincha. Ko'pincha

ichki sabablarni kuchaytiruvchi, gijgijlovchi, o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanuvchi kuchlar Separatizmning paydo bo‘lishi va kuchayishiga olib keladi. Tarixda Separatizm harakatlari ko‘p bo‘lgan, ular aksariyat hollarda mojarolarga, nizolarga olib kelgan va fuqarolar urushi orqali kechgan. Hozirgi vaqtda Rossiyaning Chechenistonidagi, Turkiyaning kurdlar, Ispaniyaning basklar yashaydigan hududlari, Kanada Kvebekidagi harakatlarni Separatizmning ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Separatizm milliy ozodlik harakatidan farqlanadi.⁷¹

Servitut (lotincha: servitus, servitutis) “bo‘ysinuvchi holat”. O‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) — qo‘shni bo‘lgan bir yoki bir necha yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqidir. Ushbu holat O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 30-moddasiga asosan tartibga solinadi. Servitut quyidagi maqsadlarda belgilanishi mumkin:

- o‘zganing yer uchastkasi orqali piyoda yoki transportda o‘tishda;
- o‘zganing yer uchastkasida drenaj ishlari o‘tkazishda;
- o‘zganing yer uchastkasidan elektr uzatish, aloqa liniyalari va truboprovodlar, irrigatsiya, muhandislik va boshqa liniyalar hamda tarmoqlar o‘tkazish va ulardan foydalanishda;
- o‘zganing yer uchastkasidan ekinzor va mollarni sug‘orish uchun suv olishda;
- mollarni o‘zganing yer uchastkasi orqali haydab o‘tishda;
- o‘zganing yer uchastkasidan qidiruv, tadqiqot va boshqa ishlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishda;
- o‘zganing yer uchastkasida ihota daraxtlari ekish va tabiatni muhofaza qilishga taalluqli boshqa obyektlar barpo etishda.

Sertifikat (lotincha: sertum+facere) “aniq+qilmoq”. 1) davlat organlarining moliyaviy majburiyati, zayomi; 2) sug‘urta sertifikati — sug‘urta shartnomasi shartlarini ifodalaydigan hujjat; sug‘urta polisi o‘rniga o‘tadi; 3) omonat (depozit) sertifikati — bankka qo‘yilgan omonat summasini tasdiqlovchi qimmatdor qog‘oz va belgilangan

⁷¹ Sayfiddin Jo‘rayev. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000

muddat o'tgach, omonatchi (sertifikat saqlovchi)ning omonat summasini va sertifikatdan shartlashilgan foizlarni sertifikat bergan bankda yoki uning boshqa istalgan shoxobchasida olish huquqi; 4) mahsulot sifatiga guvohlik beruvchi hujjat, unda mahsulotning sifati, xususiyatlari, foydalanishga oid ba'zi ko'rsatmalar, mahsulot ishlab chiqarilgan joy yoki firma nomi, shuningdek, mahsulotning xavfsizligi va yaroqliligiga oid ma'lumotlar aks etgan bo'ladi. Shuning uchun ham ko'p hollarda sifat sertifikati deb ham ataladi. Sertifikatlashtirishdan oldin mahsulotlar qaysi talablarga javob berishini aniqlash lozim. Mahsulotlar bo'yicha talablar standartlar va boshqa me'yorlarda belgilanadi. Shuning uchun ham ular muvofiqlik sertifikati (Assurance of conformity) deb nomlanadi va ISO/MEK tizimida ham muvofiqlik sertifikati qo'llaniladi.. Sertifikat mahsulot ishlab chiqilgan mamlakat, firmaning nomi, uning yuridik manzili va boshqalarni bildiradi - kelib chiqish sertifikati. Ikkinchidan, sertifikat mahsulotning son ko'rsatkichlari, uning sifat xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olib sifat sertifikati deb nomlanadi. Uchinchidan, sertifikat mahsulotning ko'rsatkichlarini standartlarga mosligini tasdiqlaydi va u muvofiqlik sertifikati deb nomlanadi. Sertifikat standartning barcha yoki uning ayrim qismlari (talablariga) yoxud mahsulotni aniq bir xususiyatlariga taalluqli bo'lishi mumkin va bu to'g'risida sertifikatda qayd etilishi lozim. Sertifikatda berilgan axborotlar mahsulot va xizmatlarni baholashga imkon yaratishi lozim. Muvofiqlik sertifikati sertifikatsiya tizimi qoidalariga asosan beriladigan hujjat. Muvofiqlik belgisi belgilangan tartibda himoyalangan belgi bo'lib sertifikatsiya tizimi qoidalariga asosan mahsulot, xizmatlar, jarayonlarni ma'lum bir talablarga javob berishini tasdiqlaydi. Muvofiqlik belgisi bilan standartlarni barcha talablariga javob beruvchi mahsulot va xizmatlar belgilanadi.

Sug'urta (inglizcha: insurance, asurance). Bu moliyaviy yo'qotishdan himoya qilish vositasi bo'lib, unda bir tomon ma'lum bir yo'qotish, zarar yoki jarohatlar bo'lgan taqdirda, to'lov evaziga boshqa tomonni qoplashga rozi bo'ladi. Tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yog'in va boshqalar), har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida

ko‘rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalari to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi. Sug‘urta ko‘p asrlik tarixga ega. Sug‘urta muassasalari dastlab o‘rta asrlarda Xitoy, Hindistonda dengiz orqali olib boriladigan savdodagi xavf-xatarlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi. Keyinchalik boshqa sohalarga ham yoyildi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida sug‘urta fuqarolarning manfaatlarini ishonchli himoya etuvchi vosita bo‘lgan. Sug‘urta qilinadigan ob‘yektga qarab mulkiy sug‘urta (mas, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini, binolar, ekinlar, uy hayvonlari, molmulk, transport vositalarini sug‘urtalash), shaxsiy sug‘urta (inson, sog‘lig‘i, hayoti, mehnat qobiliyatini sug‘urtalash), uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlik sug‘urtasi (transport egalarining fuqarolik javobgarligini, kredit oluvchilarning bank oldidagi kreditni o‘z vaqtida qaytarish javobgarligini sug‘urtalash va boshqalar)ga bo‘linadi. Sug‘urta tartibi va shartlari, turlari, ob‘yektlari mamlakatdagi qonunchilik bilan belgilanadi. Mustaqillikka erishguniga qadar 1918—1991 yillarda O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini sobiq Ittifoq miqyosida yagona bo‘lgan davlat sug‘urta idorasi („Gosstrax“) va uning ittifokdosh respublikalardagi boshqarmalari amalga oshirgan. 1991-yildan O‘zRda o‘tkazilgan chuqur iqtisodiy islohotlar jarayonida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichlarida davlat S organlari qayta tashkil etildi, ularga raqobatda bo‘la oladigan turli mulkchilik shaklida sug‘urta kompaniyalari va agentliklari vujudga keldi. Sug‘urta xizmati bozori, sug‘urta faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, huquqiyqonunchilik asoslari yaratildi. 1993-yilda 6 mayda O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta to‘g‘risida” qonuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25 fevraldagi farmoniga ko‘ra Moliya vazirligi huzurida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Davlat sug‘urta bosh boshqarmasi “O‘zagrosug‘urta” sug‘urta kompaniyasi shaklida qayta tashkil etildi, “Kafolat” sug‘urta kompaniyasi, “Madad” sug‘urta agentligi, “O‘zbekinvest” eksportimport milliy sug‘urta kompaniyasi va boshqa o‘z faoliyatini boshladi.

Spiker (inglizcha: speaker) “notiq”, “ma’ruzachi”. Bir palatali parlament yoki ko‘p palatali parlament palatasi raisi. Ingliz-sakson mamlakatlarida, shuningdek, ingliz-sakson davlat huquq tizimi u yoki bu darajada qabul qilingan mamlakatlar (Hindiston, Nigeriya, Vanuatu va boshqalar)da parlament quyi palatasining raisi. Buyuk Britaniyada umumpalata Spikeri partiyadan holi hisoblanadi. Spiker palata majlislariga boshchilik qiladi, palata o‘zini palata qo‘mitalariga aylantirgan holat bundan mustasno. Palata davlat boshlig'i bilan aloqani Spiker orqali amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining raisi Spiker deb nomlanadi.

Sud (slavyancha: sud) “ish”. Odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma’muriy va boshqa toifadagi ishlarni ko‘rib chiqadi va hal qiladi. Ayrim shaxslar o‘rtasida, ular bilan davlat idoralari, korxona, muassasa, tashkilot ma’muriyati, jamoat birlashmalari o‘rtasida mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarga doir ishlarni ko‘rib chiqib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxona, muassasalar, tashkilot huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi. Sud boshqa davlat organlaridan, jamoat birlashmalari va har qanday shaxsdan mustakil va xolisona faoliyat yuritishi, barcha ishlarni faqat qonunga bo‘ysunib ko‘rib chiqishi va hal etishi lozim. Sudlar odatiy va favqulodda sudlarga bo‘linadi. Favqulodda sudlarni tashkil etish deyarli barcha zamonaviy konstitutsiyalarda man etilgan. Odatiy Slar umumiy vakolatli va ixtisoslashgan, ya’ni harbiy, xo‘jalik (arbitraj, savdo), bojxona, soliq (moliyaviy), mehnat nizolari bo‘yicha va h.k. sudlar bo‘lishi mumkin. Sudning alohida turlari konstitutsiyaviy va ma’muriy sudlar hisoblanadi. Ba’zi mamlakatlarda, shuningdek, diniy sudlar (masalan, musulmon mamlakatlari — Eron, Pokiston, Sudan va boshqalarda shariat sudlari) va odatiy huquq sudlari (masalan, tropik Afrika va Okeaniyadagi bir qancha mamlakatlarda qabila sudlari) ham mavjud. Sud shuningdek, instansiyalarga ko‘ra: birinchi instansiya sudi, apellyatsiya, kassatsiya va nazorat sudlari, hududiy darajasi bo‘yicha: tuman (shahar), viloyat, okrug va oliy sudlariga bo‘linadi.

Mustaqilikka erishilgandan so‘ng O‘zbekistonda huquqiy davlat barpo etishning tarkibiy vazifasi sifatida sud-huquq islohoti o‘tkazilmoqda. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil ish yuritishi va sud faoliyatining boshqa asosiy prinsiplari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e‘tirof etildi (106— 116moddalar), yangi sud tizimi barpo qilindi, “Sudlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni va bir qator qonunlar amalga kiritildi. Sud tomonidan chiqarilgan hujjatlar barcha davyaat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi hamda O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

Subsidiya (lotincha: subsidium) “yordam”, “nafaqa”, “qo‘llab-quvvatlash”. Davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar mablag‘lari yoki maxsus fondlardan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy organlarga, boshqa davlatlarga beriladigan pul mablag‘i yoki natural shaklidagi yordam. Mablag‘lar ko‘rinishidagi aniq manzilli Subsidiyalar bevosita subsidiya, soliq yoki boshqa imtiyozlarni joriy etish bilvosita subsbidiya deb ataladi. Subsidiya davlat tomonidan qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladi. Subsidiyalar iqtisodiyotni diversifikatsiyalash (tarkiban o‘zgartirish), eksport va importni muvozanatlab turish, fan texnika yangiliklarini o‘zlashtirishni yo‘lga qo‘yish, milliy sanoatni o‘stirish, ayrim hududlarni rivojlantirish, konversiya va boshqa maqsadlarda ajratiladi. Jahon bozoridagi narxni ushlab turish uchun bozorga qo‘shimcha tovarlarni chiqarmaslik zarur bo‘lganda davlat o‘z tovarlarini zahiraga o‘tkazib turgan firmalarga Subsidiya berib, tovarlarni saqlab turish harajatlarini qoplaydi. Davlatning iqtisodiy dasturlarida ishtirok etadigan korxonalar ham Subsidiya oladi.

Suverenitet (fransuzcha: souverainete) “oliy hokimiyat”. Hokimiyatning ustunligi va mustaqilligi. Suverenitetni hurmatlash — xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy prinsipi. U BMT Ustavi va boshqa xalqaro hujjatlarda mustahkamlab

qo'yilgan. Konstitutsiyaviy huquq fanida davlat suvereniteti, millat suvereniteti, xalq suvereniteti tushunchalari ishlatiladi. Davlat suvereniteti — hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to'la mustaqilligi. Davlat suvereniteti haqidagi g'oya Jan Boden (16-asr, Fransiya) ga tegishlidir. Uning fikricha, Suverenitet davlatning eng muhim belgisi hisoblanadi, bunda abadiy, mutlaq, bo'linmas oliy hokimiyat nazarda tutiladi. Davlat suvereniteti tushunchasi keyingi davrlarda yanada rivojlantirildi va boyitildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat suvereniteti alohida bobda o'z ifodasini topgan, Konstitutsiyaning 1-moddasida "O'zbekiston suveren demokratik respublika" ekanligi qayd qilingan. Millat suvereniteti — millatning to'la hokimiyatini, uning to'la siyosiy erkinligini, o'z milliy hayotini belgilash real imkoniyatiga egaligini, mustaqil davlatni tashkil qila olishgacha bo'lgan huquqqa egaligini bildiradi. Xalq suvereniteti — xalqning to'la hokimiyatini anglatadi, ya'ni xalq jamiyat va davlatni boshqarishda real ishtirok etish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vositalarga ega bo'ladi. Xalq suvereniteti — barcha demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy tuzum prinsiplaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 7-moddasida qayd etilishicha. "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

T

Teokratiya (yunoncha: theos+kratos) "hudoning kuchi". Davlatda hokimiyat diniy muassasa va ruhoniylar qo'lida bo'lgan boshqaruv shakli (huquqiy ta'rif); diniy arboblarning davlat siyosatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan siyosiy tizim (siyosatshunoslik ta'rifi); muhim davlat ishlari ilohiy ko'rsatmalar, vahiy yoki qonunlar bilan hal

qilinadigan boshqaruv tizimi (teologik ta'rif).⁷² Davlat boshqaruv shakli, bunda davlat (odatda, monarxiya davlati)ning boshlig'i bir vaqtning o'zida diniy boshliq ham hisoblanadi. Teokratik davlatlar qadimdan ma'lum. Masalan, Iudeyada mil. av. 5—1-asrlarda bosh ruhoniy, ya'ni oliy kohin davlat hokimiyatining to'liq egasi bo'lgan. O'rta asrlardagi umaviylar va abbosiylar xalifaligi teokratik davlatlar edi. Iyezuitlar 17-asrda Paragvayda tashkil etgan teokratik davlat ham ma'lum; imom Shomilning Chechenistonda va 19-asrda Kavkazni istilo qilish paytida chor qo'shinlariga uzoq vaqt qarshilik ko'rsatgan Chechenistonga yaqin hududlardagi boshqaruvi teokratik xususiyatga ega bo'lgan. Papa viloyati 1870-yilda Italiya birlashishidan oldin teokratik davlat bo'lgan edi. 1951-yil Tibet Xitoyga qo'shilgunga qadar Dalay Lama (lama ruhoniylarining rahbari) Tibetdagi dunyoviy hokimiyatni ham boshqargan. Rim katolik cherkovining oliy rahbari Papa bir vaqtning o'zida Vatikan davlatining ham boshlig'i hisoblanadi. Teokratik tamoyillar fuqarolar ijtimoiy va shaxsiy hayotining barcha tomonlari (diniy bayramlar va marosimlarga davlat maqomi berilishi, sud ishlari diniy qonunlar bo'yicha yuritilishining tiklanishi, boshqa din vakillari quvg'in qilinishi va shu kabi) diniy tartiblar orqali belgilanishi kuchayishi bilan kechadi.

Terrorizm (lotincha: terror) “qo'rqinch”, “dahshat”. Siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo'rvonlik harakatlari (ta'qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshqalar). Terrorizm yakka tartibdagi va guruhli terrorizm (masalan, ekstremistik siyosiy to'dalarning harakatlari kabi) toifalarga bo'linadi. Siyosatshunoslikda davlat terrorizmi tushunchasi ham qo'llanadi (diktatorlik va totalitar rejimlarning repressiyalari). Terrorizm o'rta asrlardan boshlab barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrab turgan. Lekin o'tgan asrning oxirlaridan uning yangi ko'rinishlari vujudga keldi (chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o'ldirish yoki o'g'irlash, elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va

⁷² Теократия // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907

vokzallarda portlashlar sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olish va h.k.). Xalqaro terrorizm keng tarqalib, terrorizm oshkora siyosiy tus ola boshladi. Terrorchilar ayrim mamlakatlar hukumati va unga yaqin tuzilmalardan madad oladigan hollar yuzaga keldi. Ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo'liga yadroviy, kimyoviy, biologik qurol tushib qolishi xavfi kuchaydi, elektron terrorchilik paydo bo'ldi. Ko'p hollarda terrorizm diniy ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bog'liqligi, chatishib ketishi kuzatila boshlandi. O'zbekiston Respublikasida "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" maxsus qonun qabul qilindi (2000-yil 15 dekabr). Ushbu qonunda terrorizm — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa ob'ektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoyat qilmishlar deb ta'riflanadi. Qonunda davlat organlarining Terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari, terrorchilikka qarshi operatsiyaning o'tkazilishi, terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi kabi masalalar huquqiy asoslab berilgan. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga ko'ra, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etish, bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag', vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xismlar ko'rsatishga qaratilgan harakat 8 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Terrorchilik harakati odam o'lishiga, boshqa og'ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lsa, 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki mamlakatdan chiqarib yuborish jazosi belgilanadi. Terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o'z

vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko‘maklashgan bo‘lsa, basharti bu shaxsning xarakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.⁷³ Erondagi Sistan, Belujiston va G‘arbiy Ozarbayjon viloyatlarida uchta terroristik guruh yo‘q qilindi va 21-mart kuni Saravondagi teraktni sodir etganlar hibsga olindi. Sistan va Belujistondagi guruh a‘zolari boshqa mamlakatda harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan va guruh rahbarligida jinoyat sodir etgan “Jaysh al-Adl” terroristik guruhiga aloqador bo‘lgan. Guruh yetakchisidan ikkita avtomat, shuningdek, bomba tayyorlash uchun ba’zi qurol va materiallar topilgan. Bayonotda uning avval giyohvand moddalar savdosi va qotillik bilan shug‘ullangani keltirilgan. G‘arbiy Ozarbayjonni talon-toroj qilish va terroristik harakatlarni amalga oshirish maqsadida bostirib kirgan qurolli guruh ortidan kuzatuv amalga oshirilgan va Urmiya bilan chegaradosh mintaqadagi qurolli to‘qnashuvdan so‘ng ulardan ikkitasi o‘ldirilgan, bittasi esa qochib ketgan.⁷⁴

Tender (inglizcha: tend) “xizmat ko‘rsatish”. 1) ochiq turdagi (ochiq tender) yoki cheklangan sondagi ishtirokchilar uchun yopiq turdagi (yopiq tender) raqobatli savdo-sotiq; buyurtmani joylashtirishning tanlov shakli; 2) qimmatli qog‘ozlarga obuna bo‘lish, muddatli shartnoma bo‘yicha tovarlar yetkazib berish, shartnomalar tuzish to‘g‘risidagi ariza, yozma taklif; 3) xalqaro bozorda mashinav uskunalari xarid etish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, injenering xizmatlari ko‘rsatish uchun tanlov asosida buyurtmalar berish. O‘zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlarini shakllantirishda va rivojlantirishda tender keng qo‘llaniladi. Davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalar aksiyalarining yirik paketlarini sotishda, katta qurilish ishlarini olib borishda, xalqaro loyihalarini amalga oshirishda tender e‘lon qilinadi. Savdoni tashkil etish uchun vaqtinchalik organ bo‘lgan tender qo‘mitasi tuziladi.

⁷³ O‘zME birinchi jild 2001-yil. Mirzayusuf Rustamboyev

⁷⁴ Эронда учта террорчилик гуруҳи йўқ қилинди“. Bugun.uz. 13-iyul 2021-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 2021 йил 25 май.

Transfert (fransuzcha: transfert) “olib o‘tish”. Uni quyidagi ma’nolarda tushunish mumkin: 1) xorijiy valyuta yoki oltinni bir mamlakatdan boshqa mamlakatga olib o‘tish; 2) egasi yozilgan qimmatbaho qog‘ozlar (aksiya, veksel, cheklar)ga bo‘lgan egalik huquqini bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tkazish; 3) xalqaro shartnomalar asosida davlatlar o‘rtasida aholi almashish, fuqarolikni avtomat tarzda almashtirish. O‘zbekiston Respublikaida byudjet sohasiga nisbatan “transfert” tushunchasi mablag'larni mintaqalarni moliyaviy qo‘llab- quvvatlash fondidan quyi darajadagi hududlarning byudjetlariga o‘tkazish sifatida ishlatiladi.

Trasologiya (fransuzcha: tgaselogiya) “izlarni o‘rganish”. Kriminalistika bo‘limi, izlarni o‘rganish va ularni aniqlash, qayd qilish, olish va tekshirish usullari, yo‘llari, ilmiy-texnikaviy vositalarini chiqish bilan shug‘ullanadi. Inson, jinoyat qurollari, asbob-uskunalar, ishlab chiqarish mexanizmlari, transport vositalari kabilarning izlari farqlanadi. Ob’yektni trasologik identifikatsiyalash uning umumiy va xususiy belgilarini izda hosil bo‘lgan belgilari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Agar bevosita qiyoslashning imkoni bo‘lmasa, eksperimental izlar yasaladi. Trasologiyada modellashtirish, ya’ni ob’yektni va izni ularning modellari (tabiiy, optik va h.k.) bo‘yicha taqqoslashdan foydalaniladi. Trasologik ekspertiza odamni - qo‘l, oyoq, tish izlari bo‘yicha, poyafzalni - uning izlari bo‘yicha; jinoyat vositalari va qurollarni - buzish, kesish, chopish va boshqa izlari bo‘yicha; ishlab chiqarish mexanizmlarini - ommaviy ravishda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlardagi izlar bo‘yicha; transport vositasini yurish qismi, chiqib turgan detallaridan qolgan izlar bo‘yicha identifikatsiyalashga imkon beradi. Trasologik identifikatsiya tadqiqotining turlaridan biri butunni uning qismlari bo‘yicha aniqlashdir. Masalan, yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan joyda topilgan fara qismi tekshirilayotgan transport vositasi farasidan topilgan parchalar bilan qiyoslanadi.

Trassat (nemischa: trossat) “o‘tkazish”. Tratta bo‘yicha to‘lovchi (qarzdor) trassatni ko‘rsatish trattaning zaruriy qismidir. Trassat veksel

aktseptidan keyingina mas'ul shaxsga aylanadi, bu esa vekselni belgilangan muddatda to'lash maburiyatiga tengdir.

Tribunal (lot, ing, frans, isp: tribunal; ital: tribunate) “sud qilish joyi”, “alohida sud”. 1) 18-asr oxiridagi Buyuk fransuz inqilobi davrida Fransiyada siyosiy jinoyatlarga doir ishlarni ko'rgan favqulodda sudlar; 2) sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi maxsus sudlar — inqilobiy tribunallar; 3) ayrim mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlaridagi harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatni o'tayotgan shaxslar xizmat vaqtidagi jinoyat ishlari va ba'zi bir boshqa ishlarni ko'rib chiquvchi sudlar.

U

Unitarizm (fransuzcha: unitarism, lotincha: unitas) “birlik”. Davlatni hududiy tashkil etishning ikki shaklidan biri. Tarixiy jihatdan siyosiy unitarlashtirishning murakkab jarayonlari ko'pincha unitarizm va radikal markazlashtirish tarafdorlari hamda markazsizlashtirish va mintaqaviylikni targ'ib qiluvchi muxoliflari o'rtasidagi siyosiy kurashlar bilan kechgan. Siyosiy tarixda bunday siyosiy kurash juda qadim zamonlardan beri tez-tez bo'lib kelgan. Klassik davrda siyosiy unitarizmga mahalliy qarshilikning eng mashhur misollaridan biri qadimgi Afina va Delian ligasi tarkibidagi boshqa federativ shahar-davlatlar o'rtasidagi ichki ziddiyat edi. Zamonaviy tarixda siyosiy unitarizatsiyaning eng yorqin misollaridan biri 1701 yilda Ittifoq hujjatlari bilan Buyuk Britaniya Qirolligining tashkil etilishi va keyinchalik Buyuk Britaniya va Irlandiya Birlashgan Qirolligining tashkil etilishi edi. 1800 yildagi ittifoq.⁷⁵ Agar davlat qismlaridan ko'pi davlat tuzilmasi maqomiga ega bo'lmasa, bunday davlat unitar (qo'shilgan, oddiy) hisoblanadi. Unitar davlat tarkibida alohida muxtor

⁷⁵ Peterson 1998, p. 276-279.

milliy davlat tuzilmalari, shu jumladan, o'z davlatchiligining ko'pgina atributlariga ega bo'lganlar bo'lishi mumkin. Qoidaga ko'ra unitar davlatda faqat bitta konstitutsiya, bitta fuqarolik, oliy davlat hokimiyat organlarining bitta tizimi bo'ladi. Unitar davlatning tarkibiy qismlari ko'pincha ma'muriy-hududiy bo'linish birligi maqomiga ega bo'ladi; ular markaziy organlar qabul qiladigan qonunlar asosida boshqariladi, ularning hududlari mahalliy organlar va mahalliy aholi rozilgisiz oddiy umumdavlat qonuni bilan o'zgartirilishi mumkin. Unitar davlatning markazlashmagan va markazlashgan turlari mavjud. Markazlashmaganlar qatoriga mintaqaviy organlar markaziy organlarga bog'liq bo'lmagan holda tashkil etiladigan davlatlar kiradi, shuning uchun ham ular o'rtasidagi yuridik munosabat markazlashmagan asosda bo'ladi (Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Ispaniya, Italiya). Ikkinchi xilga mintaqaviy organlarning markazga bo'ysunishi markaz tayinlaydigan mansabdor shaxslar vositasida amalga oshiriladigan unitar davlatlar (Niderlandiya, Qozog'iston, O'zbekiston) kiradi.

Ustav (ruscha: устав) “nizom”. Har qanday davlat organi, tashkilotlari, korxonalari, muassasalari va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan muayyan sohadagi faoliyatni tashkil etish va tartibini tartibga soluvchi qoidalar to'plami. Umumiy nizomlar, qoida tariqasida, davlat hokimiyatining oliy organlari, ayrim tashkilotlarning nizomlari – ularning muassislari yoki tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlanadi. 1) tegishli tashkilotlarning, ularning boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy nizomi (yuridik shaxs ustavi); 2) turli tashkilotlar va fuqarolar faoliyati, ularning davlat boshqaruvi yoki xo'jalik faoliyati muayyan sohasidagi huquq va majburiyatlari (temir yo'l ustavi va shu kabilar); 3) qurolli kuchlar faoliyatining muayyan sohasini tashkil etish (harbiy ustav va shu kabilar); 4) davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish, ma'muriy hududiy tuzilish va boshqa masalalar. Davlat tomonidan tasdiqlangan ular mohiyatiga ko'ra kodlashtirilgan normativ huquqiy hujjatdir. Kamdan-kam hollarda xalqaro shartnomalar ham ustav deb atalishi mumkin (masalan, BMT ustavi).

V

Vazir (arabcha: وزير, vazir) “yuk ko‘taruvchi”. O‘rta asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq davlatlarida, shu jumladan O‘rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshlig‘i. Vazirlar vaziri a‘zam rahbarligida davlatni idora etish vazifalari bilan shug‘ullangan. Vazirlar podshoh, xon viloyat hokimligiga tayinlagan shahzoda va xonzodalarning yordamchilari hisoblangan. Arab xalifaligida Vazir lavozimini birinchi bo‘lib xalifa al-Mansur (754—775) joriy etgan. Somoniylar davrida 10 devon bo‘lib, ularni xojayi buzurk, sohib barid, mushrif, vakil, muxtasib va boshqa vazirlar boshqargan. Amir Temur va uning vorislari zamonida saltanatning markaziy ma‘muriyatini bosh vazir — devonbegi boshliq 7 Vazirdan iborat arkoni davlat boshqargan. Ular: 1) mamlakat va ra‘iyat ishlari, 2) harbiy ishlar, 3) tijorat, 4) moliya ishlari bo‘yicha vazirlar sanalib, yana 3 nafar maxsus vazir chegara viloyatlari va tobe mamlakatlardagi ishlarni nazorat qilib turgan. Mazkur 7 vazir devonbegiga bo‘ysungan va ular bilan bamaslahat davlatning muhim moliyaviy ishlarini olib borishgan. Xiva xonligida vazir yuqori mansabdor shaxs sanalib, vazifasi soliq to‘plash, qo‘shni xonliklar bilan aloqa qilish, amaldorlarni tayinlash va boshqalardan iborat bo‘lgan. Xo‘jalik yoki boshqaruvning alohida bir sohasiga rahbarlik qilib kelgan amaldorlarni sobiq sho‘rolar davrida komissar, ministr, ana shu boshqaruv orgamini esa komissarlik, ministrlik so‘zlari bilan atash rasm bo‘lgan edi. Bu atamalar O‘zbekistonda ham mustaqillik yillarigacha qo‘llanib kelinib, keyin vazir, vazirlik istilohlari bilan almashtirildi.

Valyuta (italyancha: valuta) “qadrlanmoq”, “qiymat”. 1) mamlakatning pul birligi va uning turi (oltin, kumush, qog‘oz); 2) chet mamlakatlarning xalqaro muomalada qo‘llanuvchi pullari, shuningdek shu mamlakatlarning pul birligida ifodalangan va xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan kredit va to‘lov hujjatlari (veksellar, cheklar, banknotlar va boshqalar). 19-asrgacha ko‘pchilik

mamlakatlarda kumush valyuta yoki bimetalizm pul tizimi keng tarqalgan edi. 19-asrdan boshlab, avvalo Angliyada, so‘ng boshqa mamlakatlarda oltin valyuta qo‘llanila boshladi. 20-asrning 70-yillaridan boshlab, qog‘oz valyuta ya‘ni oltin va kumushga almashtirilmaydigan banknot va qog‘oz pullar harakterlidir. Ular inflyatsiyaga uchrab turadi, qadrsizlanadi, natijada davlat tomonidan devalvatsiya tadbirlari o‘tkaziladi. Kursi barqaror valyutalar qadri baland valyutalar deyiladi. Valyutalar erkin almashtiriladigan (har qanday chet el valyutasiga cheklanmagan miqdorda almashtiriladi, har qanday mamlakatga erkin o‘tkaziladi), qisman almashtiriladigan (valyuta almashuvi u yoki bu egalar, u yoki bu valyuta harakatlari bilan chegaralanadi), almashtirilmaydigan (bir mamlakat doirasida amal qiladigan) turlarga bo‘linadi. Xalqaro to‘lov muomalasi erkin almashtiriladigan yoki Xalqaro valyuta fondi belgilagan kurs bo‘yicha erkin almashtiriladigan valyuta bilan bajariladi. Xalqaro valyuta fondi AQSH dollari, Kanada dollari, Yevropa Ittifoqiga a‘zo mamlakatlar valyutalari, Shvetsariya franki, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa bir qator davlatlarning valyutalarini har qanday mamlakatlar valyutasiga erkin almashtiriladigan valyutaga kiritadi. O‘zbekistan Respublikasi milliy valyuta birligi — so‘m 1994-yil 1 iyuldan muomalaga kiritilgan. Valyuta atamasi quyidagilarga nisbatan qo‘llanishi mumkin:

- Tovarlar qiymatini o‘lchash uchun foydalaniladigan pul birligi;
- Mamlakatda qabul qilingan pul birligi, xorijiy davlatlarning pul belgilari;
- Muomala va to‘lov ko‘rinishidagi kredit vositasi (veksel, chek).

Vandalizm (lotincha: vandali) “qadimgi”. Qadimgi sharqiy german qabilalaridan birining nomi) — moddiy va madaniy boyliklarni o‘ylamay-netmay shafqatsizlarcha yo‘q qilib tashlash. Vandalizm tushunchasi 455-yilda german qabilalari Rimni talon-taroj qilib, ko‘plab antik madaniyat obidalarini vayron etganligi tarixiga borib taqaladi. Keyinchalik u johillik, madaniyatsizlik ma’nolarida ham keng qo‘llanila boshlagan. ijtimoiy xavfsizlikka qarshi qaratilgan jinoyat, binolar, inshootlar yoki boshqa qurilmalarni ishdan chiqarish, jamoa joylarida yoxud jamoa transportiga zarar yetkazish. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 214-moddasiga muvofiq, bino yoki boshqa inshootlarni taxqirlash, jamoat transporti yoki boshqa jamoat

joylaridagi mulkni buzishdan iborat. Jinoyat kodeksida vandalizmning ko'rinishlari sifatida tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki shikast yetkazish (132-m.da), davlat muhofazasiga olingan tarix yoki madaniyat yodgorliklarini qasddan nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etishdan, qabrni tahqirlash esa (134-m.da) qabrni yoki murdani shuningdek, murdadagi, qabr ustidagi yoki ichidagi narsalarni olish uchun jazo belgilangan. Qabrni tahqirlash, jamiyatda mavjud bo'lgan axloq-odob asoslarini, tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki shikast yetkazish axloq-odob asoslarini va davlatning tarixiy yodgorliklari hamda madaniy qadriyatlariga tajovuz hisoblanadi.

Verdikt (lotincha: veredictum) “haq gap aytish”. Jinoiy protsessdagi sudyalarning - sudda hakamlar hay'atining hukmi ⁷⁶, sudlanuvchining aybi haqidagi asosiy masala, shu jumladan, sudyaning oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qarori. ayrim xorijiy mamlakatlarda qasamyod etuvchi maslahatchilarning ayblanuvchi aybdor yoki aybdor emasligi to'g'risidagi xulosasi. Qasamyod etuvchilar verdikti ular hay'ati (kollegiyasi) tomonidan ayrim masalalar, ishlar bo'yicha, jumladan, shaxsning aybdor yoki aybdor emasligi haqidagi asosiy masala yuzasidan chiqariladi. Hay'at muhokama davomida belgilangan muddatda yakdil qarorga erishmagan taqdirda, aybdorlik verdikti qasamyod etuvchilarning ko'pchiligi 3 asosiy savolining har biriga aybdorlikni tasdiqlovchi javoblar uchun ovoz bersa; jazodan ozod qiluvchi aybsizlik verdikti qasamyod etuvchilarning 6 nafardan ko'prog'i 3 asosiy savol bo'yicha aybdorlikni rad qiluvchi qaror chiqargan taqdirda qabul qilinadi. Qolgan 2-darajali savollar bo'yicha qaror qasamyod etuvchilarning oddiy ko'pchiligi tomonidan belgilanadi, ovozlar teng bo'lsa, ayblanuvchi foydasiga qaror chiqariladi. Verdikt chiqarish uchun savollar aniq bo'lishi, ularga faqat “ha, aybdor” yoki “yo'q, aybdor emas”, deb javob berilishi shart.

⁷⁶ Вердикт // Толковый словарь живого великорусского языка : в 4 т. / авт.-сост. В. И. Даль. — 2-е изд. — СПб. : Типография М. О. Вольфа

Veto (lotincha: veto) “taqiqlayman”. Rivojlangan davlatlarda biron-bir organ, tashkilot qonuni yoki qarorining kuchga kirishini to‘xtatish yoki kuchga kirishiga yo‘l qo‘ymaslik huquqi. Rimliklar shafoflik sifatida tanilgan veto instituti miloddan avvalgi 6-asrda Rim Respublikasi tomonidan qabul qilingan va tribunalar plebeylarning (oddiy fuqarolar) mandamus manfaatlarini hukmronlik qilgan patritsiylarning tajovuzidan himoya qilish imkonini beradi. Tribunaning veto qo‘yishi senatning qonun loyihasini qabul qilishiga to‘sqinlik qilmadi, lekin uning qonun kuchi rad etilganligini anglatadi. Tribunalar veto huquqidan qonun loyihasini plebeylar majlisiga kiritilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ham foydalanishlari mumkin edi. Konsullar veto huquqiga ham ega edilar, chunki qaror qabul qilish odatda ikkala konsulning roziligini talab qiladi. Agar ular rozi bo‘lmasalar, ikkinchisining harakatini to‘sh uchun shafolatga murojaat qilishlari mumkin edi. Veto faqat davlat ishlarini boshqarish uchun emas, balki davlatning yuqori mansabdor shaxslari va institutlarining hokimiyatini mo‘tadillashtirish va cheklash uchun qo‘llaniladigan hokimiyat haqidagi Rim tushunchasining muhim tarkibiy qismi edi.⁷⁷ Davlat boshlig‘i qonun chiqaruvchi parlament, oliy majlis qabul qilgan qonunlar bo‘yicha veto huquqiga ega. Mutlaq veto - davlat boshlig‘ining parlament qabul qilgan qonunni uzil-kesil rad qilish huquqi; nisbiy veto - davlat boshlig‘ining qonun kuchga kirishini faqat to‘xtatib qo‘yadigan rad javobi; bunda parlamentga mazkur qonunni 2-marta ovozga qo‘yish bilan qabul qilish huquqi beriladi; umumiy veto - butun hujjatni yaxlit holda rad etish imkoni; qisman veto - biron-bir hujjatning ayrim qismlari yoki moddasigina rad qilinishi. Ba’zan parlamentning yuqori palatasi ham quyi palataning qarorini taqiqlashda veto huquqidan foydalanadi. Xalqaro huquqda: BMT Ustavining 27 - moddasiga binoan BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zolari veto - huquqiga ega. Xavfsizlik Kengashida muhokama qilinadigan masalalar Kengash a’zolarining bir fikrda bo‘lishini talab qiladi. Bir qator Osiyo mamlakatlarida veto quydagicha ko‘rinishlarga ega. Xitoy: Konstitutsiyaga ko‘ra, Butunxitoy xalq vakillari kengashi Davlat kengashi tomonidan qabul qilingan qoidalarni bekor qilishi mumkin. Davlat kengashi va prezident veto huquqiga ega emas.⁷⁸ Hindiston:

⁷⁷ Spitzer, Robert J. (2000). The presidential veto: touchstone of the American presidency. SUNY Press. pp. 1–2. ISBN 978-0-88706-802-7.

⁷⁸ China Internet Information Center. “China Questions and Answers – china.org.cn”. Retrieved 11 June 2022.

Prezident uchta veto huquqiga ega: mutlaq, to'xtatib turish va cho'ntak. Prezident qonun loyihasini o'zgartirish uchun parlamentga qaytarib yuborishi mumkin, bu esa oddiy ko'pchilik tomonidan bekor qilinishi mumkin bo'lgan cheklangan veto huquqini tashkil qiladi. Ammo parlament tomonidan qayta ko'rib chiqilgan qonun loyihasi 14 kundan keyin prezidentning roziligi bilan yoki rozilgisiz qonunga aylanadi. Prezident qonun loyihasi bo'yicha cheksiz muddatga hech qanday chora ko'ra olmaydi, ba'zan cho'ntak vetosi deb ataladi. Prezident rozilik berishdan bosh tortishi mumkin, bu mutlaq veto huquqini tashkil etadi. Biroq qonun loyihasiga nisbatan mutlaq vetoni Prezident faqat bir marta qo'llashi mumkin. Agar Prezident qonun loyihasiga roziligini berishdan bosh tortsa va qonun loyihasiga o'z tavsiyalarini yoki tuzatishlarini taklif qilib, uni parlamentga qaytarib yuborsa va Parlament qonun loyihasini bunday tuzatishlar bilan yoki o'zgartishlarsiz yana qabul qilsa, prezident qonun loyihasini ma'qullashi shart.⁷⁹ Eron: Himoyachilar kengashi Islom maslahat assambleyasi tomonidan qabul qilingan qonun loyihalariga veto qo'yish huquqiga ega. Ushbu veto huquqi konstitutsiyaga yoki Islom qonunlariga zid bo'lgan qonunlarga asoslanishi mumkin. Konstitutsiyaviy veto qo'yish uchun Qo'riqchilar kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi talab qilinadi, islom qonunlariga asoslangan veto uchun esa fuqaho a'zolarining ko'pchiligi talab qilinadi. Qo'riqchilar kengashi, shuningdek, turli saylangan lavozimlarga nomzodlar ustidan veto huquqiga ega.⁸⁰ Yaponiya: Milliy darajada veto huquqi yo'q, chunki Yaponiya parlament tizimiga ega va konstitutsiya imperatorga qonunni e'lon qilishdan bosh tortish huquqini bermaydi. Biroq, 1947 yildagi Mahalliy avtonomiya to'g'risidagi qonunga binoan, prefektura yoki munitsipal hokimiyatning ijro etuvchi organi mahalliy qonunlarga veto qo'yishi mumkin. Agar ijro etuvchi hokimiyat qonunchilikni noqonuniy deb hisoblasa, ijro etuvchi hokimiyat unga veto qo'yishi shart. Mahalliy majlis bu vetoni 2/3 ovoz bilan bekor qilishi mumkin.⁸¹ O'zbekiston Respublikasida Prezident veto paketi va o'zgartirish veto huquqiga ega.

⁷⁹ Gupta, V. P. (26 August 2002). "The President's role". The Times of India. Archived from the original on 16 June 2012. Retrieved 4 January 2012

⁸⁰ "The Guardian Council". Iran Social Science Data Portal. Retrieved 11 June 2022. The Guardian Council has three constitutional mandates: a) it has veto power over legislation passed by the parliament (Majles);

⁸¹ Shimizutani, Satoshi (2010). "Local Government in Japan: New Directions in Governance toward Citizens' Autonomy". Asia-Pacific Review. 17 (2): 114.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi vetoning har qanday turini 2/3 ovoz bilan bekor qilishi mumkin. Paket veto holatida, agar veto bekor qilinmasa, qonun loyihasi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. O'zgartirish veto qo'yilgan taqdirda, agar veto bekor qilinmasa, qonun loyihasi o'zgartirishlar kiritilgan holda qonunga aylanadi. Oliy Majlis Senati Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlariga veto huquqiga ega, Qonunchilik palatasi ham 2/3 ovoz bilan uni bekor qilishi mumkin.

Viza (fransuzcha: visa, lotincha: visis) “ko‘zdan kechirilgan”, “qaralgan”. 1) turli davlatlar fuqarolarining boshqa biron-bir davlatga kirishi, undan chiqishi, qisqa muddat yashashi yoki davlat hududidan o‘tishi uchun hukumat mas’ul organlari tomonidan (masalan, tashqi ishlar vazirligi, ichki ishlar vazirligi) fuqaro pasportiga qo‘yiladigan maxsus rasmiy ruxsat belgisi. Vizalar oddiy, turistik, xizmat va diplomatik turlarga bo‘linadi. Oddiy viza fuqarolarga shaxsan foydalanish uchun, turistik viza — uyushgan yoki yakka sayyohlarga, xizmat vizasi — davlat va hukumat organlarining xizmatchi shaxslariga xizmat yuzasidan, diplomatik viza esa diplomatik maqomga ega bo‘lgan mas’ul kishilarga beriladi. Vizalardan bir yoki ko‘p marta foydalanish mumkin. Bir marta foydalaniladigan viza ko‘rsatilgan muddat ichida viza beruvchi mamlakatga bir marta kelib-ketish uchun ruxsatnomadir. Ko‘p marta ishlatiladigan viza ko‘rsatilgan muddat ichida ruxsat bergan davlatga bir necha marotaba kelib-ketish huquqini ta’minlaydi. Shuningdek, ko‘pgina mamlakatlarda fuqaro pasportlariga o‘z mamlakatidan xorijiy yurtlarga chiqish uchun ruxsatnoma — viza belgisi qo‘yilishi mumkin; 2) biron hujjat ustidagi yozuv — rozilik belgisi; hujjatning ichki kelishuvini ifodalaydi. Amaliyotda bironbir hujjatni tayyorlagan shaxsning bu hujjatga mas’ulligini tasdiqlovchi imzosini, shuningdek mansabdor shaxsning muayyan hujjatdagi fikrga (iltimos yoki talabga) roziligini anglatadi.

Viktimizatsiya (lotincha: victima) “jabrlanuvchi”, “qurbon”. Shaxs yoki shaxslar guruhini jinoiy hujum qurboniga aylantirish jarayoni yoki yakuniy natijasidir. Viktimizatsiya viktimologiya,

kriminologiya va boshqa tegishli fanlar doirasida o'rganiladi.⁸² Viktimizatsiya - bu bir necha bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan murakkab jarayon. Ulardan birinchisi, ya'ni birlamchi viktimizatsiya jinoyat sodir etish jarayonida jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, shuningdek, bu o'zaro ta'sirning oqibatlarini yoki jinoyatning o'zini o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich - jabrlanuvchining jinoyatga munosabati, o'z-o'zini anglashdagi mumkin bo'lgan o'zgarishlar, shuningdek, jabrlanuvchining jinoyatga javob berishi mumkin bo'lgan rasmiy choralar. Uchinchi bosqich - jabrlanuvchining boshqa odamlar, shu jumladan u murojaat qilishi mumkin bo'lgan huquqni muhofaza qilish organlari vakillari bilan keyingi o'zaro munosabatlari. Agar bu o'zaro ta'sir jabrlanuvchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatsa, u qayta viktimizatsiya deb ataladi.⁸³

Viktimologiya (lotincha: victima + grekcha: logos) “qurbonni o'rganish”. Kriminologiyaning jinoyat qurbonining xususiyatlari va xulq-atvorini, uning jinoyat sodir etilgan vaqtda va u sodir qilingandan keyin jinoyatchi bilan bo'lgan munosabatlari, o'zaro aloqalarini o'rganadigan mustaqil yo'nalishi. Shu sababdan ham, jinoiy xulqning sabablari o'rganilayotganida uning viktimologik jihatlariga e'tibor berish kerak. Viktimologiyaning vazifasi jabrlanuvchilar shaxsini, jinoyatdan jabr ko'rganlar, jinoyatchi va jabrlanuvchining jinoyat sodir etilgunga qadar, u sodir etilgan vaqtda va sodir etilganidan keyingi shaxsiy aloqalari, shuningdek, o'zaro munosabatlarni tadqiq etishdan iboratdir. Viktimologiya jinoiy xulqni jabrlanuvchining jinoyat qurboniga aylanishi uchun shart-sharoit yaratgan xususiyatlarini o'rganish asosida tadqiq etadi. Viktim xulq ehtiyotsizlik, tavakkalchilikning natijasi bo'lib, jabrlanuvchining o'ziga xavf tug'diradi va kriminogen vaziyatni vujudga keltirishi mumkin, ayrim hollarda esa jinoyatning sodir etilishiga imkon yaratadi. Olib borilayotgan tadqiqotlarning natijalari va jinoyatlar statistikasi huquqqa xilof qilmishlarning jinoyat qurbonining xulq atvori bilan bevosita aloqadorlikda, xususan, ular jabrlanuvchilar ahvolidan xususiyatlari (mast holdaligi), sog'lig'i darajasi (eshitish, ko'rish qobiliyatining pastligi), ruhiy holati, o'zining shaxsi, sha'ni, qadr-

⁸² Додонов В. Н., Ермаков В. Д., Крылова М. А. и др. Большой юридический словарь.

⁸³ James Dignan. Understanding Victims and Restorative Justice. NY: Open University Press, McGraw-Hill Education, 2005. P. 23

qimmatining xavfsizligi va mulkining saqlanishiga beparvolarcha munosabatda bo'lish; o'ziga nisbatan sodir etilgan jinoyat haqida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilishni istamasligi; qonunga xilof bo'lgan bitimlar tuzish va boshqa sabablar bilan bog'liqlikda sodir etilishini ko'rsatadi. Viktimologik tadqiqot ikkita asosiy: jinoyat (maxsus) va jinoyatchilik (umumiy)ning o'zaro bog'liqligini o'rganish darajasida olib boriladi.

Vindikatsiya (lotincha: vindicatio) “talab qilib olish”. Mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish. Mulk biron-bir shaxs (fuqaro yoki yuridik shaxs)ning qonunsiz egaligida bo'lsa, mulk egasi o'z mulkini natura (asli) holatida qaytarish haqida bu shaxsga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atishga, o'z mol-mulkini uning qonunsiz egaligidan talab qilib olishga haqli. Mol-mulkni talab qilib olinganda daromadlar va harajatlarni to'lash tartibi tegishli qonunlarda belgilab berilgan (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 228—230-moddalar).

Votum (lotincha: votum) “xohish”, “iroda”. Saylov yoki vakolatli muassasada saylovchilar ko'pchiligi tomonidan ifodalangan yoxud qabul qilingan fikr yoxud qaror. Votumning bir necha turlari mavjud: Ishonch votumi — parlament boshqaruv tizimi amalda bo'lgan davlatlar parlament amaliyotida qoida tariqasida hukumat yoki ayrim vazirning siyosiy yo'li, muayyan tadbiri yoki qonun loyihasining quyi palata tomonidan ma'qullanishi. Ishonch votumi to'g'risidagi masalani qo'yish tashabbusi bilan hukumatning o'zi, parlament fraksiyalari yoki deputatlar guruxlari chiqishi mumkin. Ishonchsizlik votumi — parlament boshqaruv tizimi amalda bo'lgan davlatlar parlament amaliyotida qoida tariqasida hukumat yoki ayrim vazirning siyosiy yo'li, muayyan tadbiri yoki qonun loyihasining quyi palata tomonidan noma'qul deb topilishi. Mazkur votum to'g'risidagi masala hukumatning o'zi, parlament fraksiyalari yoki deputatlar guruhlarining tashabbusi bilan qo'yiladi. Hukumatga ishonchsizlik votumi bildirilishi amalda hukumatning iste'foga chiqishiga va yangi hukumat tuzilishiga (ya'ni siyosiy tanglikka) yoxud parlament (quyi palata) tarqatib yuborilishiga hamda muddatidan avval parlament saylovlari o'tkazilishiga sabab bo'ladi. Majburiy votum — ayrim mamlakatlarda

muomalaga layoqatli barcha fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga saylovlarda, albatta, qatnashishini talab etuvchi yuridik majburiyat. Plyural votum — ayrim mamlakatlarda saylovchilarning muayyan toifalari saylovlarda 2 yoki undan ortiq ovozga ega bo‘lishini taqozo etadigan tartib. Saylov votumi — parlament, prezident, munitsipalitetga saylovlar bo‘yicha yakuniy natijalar.

Y

Yurist (nemischa: jurist, inglizcha: jurist) “advokat”, “huquqshunos”. Yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan shaxs; huquq sohasining amaliy vakili; yuridik fanlar bo‘yicha mutaxassis; amaliyotdagi huquqshunos. “Yurist” tushunchasi turli kasbiy yuridik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi barcha shaxslarni – sudyalalar, prokurorlar, tergovchilar, advokatlar, notariuslar, tashkilotlardagi advokatlar, xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi advokatlar va boshqalarni birlashtiradi.

Yustitsiya (lotincha: justitia) “qonuniylik”, “odillik”. Yustitsiya bu - sud institutlari tizimi; sud bo‘limi. Adolat - bu shaxs tomonidan shakllantiriladigan bo‘linmas huquq sohasi. Shuningdek, sud vedimostlari to‘plamini bildiruvchi atama.

Z

Zakalat (ruscha: задаток, zadatok) “garov puli”. Shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta’minlash yuzasidan beradigan pul summasi zakalat deb ataladi. Zakalat to‘g‘risidagi kelishuv uning summasidan qat’iy nazar yozma ravishda tuziladi. Fuqarolik kodeksi bo‘yicha shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzganligini tasdiqlash va uning ijrosini ta’minlash uchun shartnoma yuzasidan ikkinchi tarafga

to'laydigan pulidan bir qismini berishi. Zakalatni qo'llash asoslari va tartibi Fuqarolik kodeksining 311-312 moddalarida belgilab qo'yilgan.

Zakot (arabcha: زكاة, zaka) “sadaqa”, “sadaqa berish”. Mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson. Islomning 5 asosiy talablaridan biri. Shariatga muvofiq, muayyan boylikga ega bo'lgan katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot beruvchi kishining mablag'i o'zi va qaramog'idagilarning zaruriy ehtiyojlaridan ortiqcha bo'lishi lozim. Bu mablag'ga kishining jamg'armasi, do'konda sotiladigan narsalari, sotaman deb olib qo'ygan narsalari, birovga bergan qarzi kiradi. Qur'oni karimning ayrim suralarida zakot namoz bilan yonma-yon zikr etilgan. U yilda bir marta berilishi shart bo'lgan xayr-ehson (sadaqa) qatoriga kiradi va ayni vaqtda ibodat hisoblanadi. Zakot miqdori mablag'larning $1/40$ ulushi (2,5%)ga teng. Zakotni zakot berolmaydigan musulmonlar olishga haqli.

Zamindor (urduncha va forsha: زميندار, zamindor) “uy egasi”, “yer egasi”. Yerga meros bo'yicha egalik qiluvchi shaxs. 1) G'arb (Yevropa) adabiyotidagi “feodal” istilohini Movarounnahr xalqlari orasidagi nomlanishi bo'lib, O'rta Osiyo xonliklarida yirik yer egasini anglatgan; 2) o'rta asrlarda Hindistonda yirik yer egasi. Dehli sultonligida va Boburiylar saltanatida vassal hokimlar (roja, sulton va mahalliy elat boshliqlari) 17—18-asrlarda Bengaliya, Bihar, Markaziy Hindistonda ijarador, shimoliy-g'arbiy Hindistonda jamoaning to'la huquqli a'zosi (dehqon) ham deyilgan. Inglizlar mustamlakasi vaqtida zamindori tizimi bo'yicha yer solig'i to'laydigan xususiy yer egalari ham deb atalgan. 3. Yerlari jogir yerlaridan farqli o'laroq merosga kimgazilgan. Hindiston mustaqillikka erishgach, zamindorlik tizimi tugatildi.

Sh

Shantaj (fransuzcha: chantage) “tovlamachilik”. birovning mol-mulkini tovlamachilik yoki har xil shaxsiy sirlarni oshkor qilish bilan qo'rqitish orqalik o'zlashtirish va tuhmat qilish bilan tahdid qilish. mulkiy jinoyatlardan biri. O'zbekiston jinoyat huquqiga ko'ra,

tovlamachilik jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zoʻrlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim boʻlgan maʼlumotlarni oshkor qilish bilan qoʻrqitib oʻzgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yoʻsindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini oʻz mulki yoki mulkka boʻlgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qoʻyish demakdir. Tovlamachilikda faqat moddiy boyliklargina emas, balki mulkiy maqomdagi hujjatlar, qarz (tilxat), merosdan voz kechish toʻgʻrisidagi hujjat, moddiy boyliklarni olish uchun ishonch qogʻozi, sanatoriylarga yoʻllanma va boshqalar ham tajovuz buyumi boʻlishi mumkin. Tovlamachilik jinoyati tamagirlik motivi bilan sodir qilinadi. Tovlamachilikda mulk zoʻrlik ishlatilib tortib olinmaydi, balki uning egasi tomonidan oʻz ixtiyori bilan beriladi. Shuningdek, totovlamachilikda jabrlanuvchiga nisbatan qoʻllaniladigan doʻq-poʻpisa, agar jabrlanuvchi tovlamachining talabini bajarmasa, keyinchalik amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Koʻpgina hollarda tovlamachilik shantaj, reket nomi bilan ham ataladi. Shantaj—shaxsiy sharmanda qiladigan maʼlumotlarni oshkor etish bilan qoʻrqitib, biron bir harakatni sodir ettirish boʻlsa, reket bir necha shaxslar tomonidan doʻq qilish, zoʻrlik ishlatish va qoʻrqitish orqali amalga oshiriladigan qilmishdir. Tovlamachilik uchun Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 165-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shtat (inglizcha: state) “davlat”. 1) ayrim mamlakatlar (AQSH, Braziliya, Venesuela, Meksika, Nigeriya va boshqalar)da federatsiya subyektlarining nomi. Shtatning huquqiy holati, uning hokimiyat organlari vakolatlari doirasi, markaziy hukumat bilan oʻzaro munosabatlari federal konstitutsiya bilan belgilanadi. Ayrim mamlakatlar (AQSh, Meksika)da shtatlarning oʻz konstitutsiyasi bor. Shtatga saylanadigan yoki tayinlanadigan gubernator rahbarlik qiladi, uning vakolatlari baʼzi jihatdan davlat boshligʻining vakolatiga oʻxshab ketadi. Shtatda qonun chiqaruvchi organ, odatda, ikki palatali boʻladi. Shtat oʻz sud tizimiga va qoidaga koʻra, oʻz jinoyat hamda fuqarolik qonunchiligiga ega boʻladi. Shtat suveren davlat hisoblanmaydi; 2) muassasa, korxona ishchi-xizmatchilarining tarkibi.

Foydalanilgan mahalliy adabiyotlar va manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
4. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy Kodeksi.
6. Lex.uz.
7. SH. M. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari” bilan uchrashuvidagi nutqidan. Toshkent sh. 20.06.2022.
8. I. A. Karimov. “Biz o‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. T 7-T “O‘zbekiston”. 1999.
9. SH. Xudoyberganov. “HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYA ASOSLARI” o‘quv uslubiy majmua. Qo‘qon-2022.
10. “Davlat va huquq nazarizayasi”. Odilqoriyev. X.T. “Adolat”-2018.
11. O‘zbekiston Yuridik ensiklopediyasi.
12. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
13. Yuridik atamalar lug‘ati ilovasi Gilde.apk.
14. “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati”. Toshkent sh. “Sharq”-2003.
15. O‘G‘LI, Z. S. Z. (2022). HUQUQDA" SENZ" TUSHUNCHASI. Scienceweb academic papers collection.
16. Zokirov, S. (2022). DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY QONUN HUIJATLARI. "Bookmany Print".
17. "“Habeas corpus” O‘zbekistonda inson huquqlarining ishonchli kafolati | NORMA.UZ" https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/habeas_corpus_uzbekistonda_inson_huquqlarining_ishonchli_kafolati

18. 42. M. Usmonaliyev, Y. Karaketov. Kriminologiya. Darslik. T T.: Yangi asr avlodi.
19. Sattorov A., Ombudsman — huquq himoyachisi, T., 2000.
20. Zohidjon o'g'li, Z. S. (2023). Attitude to the law in Japan Similarities in the constitutions of Uzbekistan and Japan. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 16, 16-18.

Foydalanilgan xorijiy adabiyotlar va manbalar:

21. “Abdicate | Etymology, origin and meaning of abdicate by etymonline”.
22. Joffe, Carole (3 April 2009). “Abortion and Medicine: A Sociopolitical History”. *Management of Unintended and Abnormal Pregnancy: Comprehensive Abortion Care*: 1–9. Doi:10.1002/9781444313031.ch1. ISBN 9781444313031 – via Wiley Online Library.
23. Jo-Marie Claassen, “Exile, Roman,” in *The Oxford Encyclopedia of Ancient Greece and Rome* (Oxford University Press, 2010), p. 146.
24. Jean-Louis Gazzaniga, "Advocate", in Andre Vauchez (ed.), *Encyclopedia of the Middle Ages* (Oxford University Press, 2002).
25. Статья из Большой советской энциклопедии.
26. Education 2020: Government course; topic House of Representatives (USA), definition of bill: “A proposed law presented to a legislative body for consideration.”
27. Richard Harding. *Seapower and Naval Warfare, 1650–1830*. Routledge. Retrieved 7 February 2013.
28. “Opening Borders: Armenia’s Economic Risks”. www.evnreport.com. 9 March 2021. Retrieved 12 May 2021.
29. Sahakyan, Armen (20 February 2014). “Economic Blockades and International Law: The Case of Armenia”. *The Armenian Weekly*. Retrieved 12 May 2021.
30. "What is devolution?". BBC Academy. Retrieved 2019.

31. "Devolution: A beginner's guide". 2010-04-29. Retrieved 2019-02-22.
32. Что такое императивный мандат и почему его хотят ввести? www.aif.ru. Дата обращения: 27 октября 2018. Архивировано 27 октября 2018 года.
33. Papaioannou, Kostadis; vanZanden, Jan Luiten (2015). "The Dictator Effect: How long years in office affect economic development". *Journal of Institutional Economics*. 11 (1): 111–139. doi:10.1017/S1744137414000356. S2CID 154309029
34. Aaron Spevack (2014), *The Archetypal Sunni Scholar: Law, Theology, and Mysticism*, SUNY Press, ISBN 978-1438453712, p. 81.
35. Anver M. Emon (2012), *Religious Pluralism and Islamic Law: Dhimmis and Others in the Empire of Law*, Oxford University Press, ISBN 978-0199661633, pp. 234-235
36. State Department of the U.S. Government (2012), *SAUDI ARABIA 2012 INTERNATIONAL RELIGIOUS FREEDOM REPORT*, p. 4
37. Our t. Volume IV, Issue IV. STA Law Firm Dubai. 2018. P.13
38. "Treaties, regulations, directives and direct effect". *European Studies*. University of Portsmouth. Retrieved 21 January 2021.
39. European Union law after Maastricht: a practical guide for lawyers outside the common. The Union has two primary types of legislative acts, directives and regulations.
40. ГРАМОТА.РУ — справочно-информационный интернет-портал «Русский язык» | Словари | Проверка слова. Архивировано 3 декабря 2022 года
41. M. Wallace. Tilley, Sir Samuel Leonard // *Dictionary of Canadian Biography* (англ.). — University of Toronto/Université Laval, 1990. — Vol. 12.
42. Валентин Катасонов. «Сталинская экономика» и государственная монополия внешней торговли Архивная копия от 18 декабря 2019 на Wayback Machine. Часть 1. 2014
43. Maria Kuecken, Marie-Anne Valfort. Fighting corruption does improve schooling: a replication study of a newspaper

- campaign in Uganda. — International Initiative for Impact Evaluation (3ie), 2015-12.
44. A. Sokal, Elektorat, [w:] *Leksykon prawa wyborczego i referendalnego oraz systemów wyborczych*, A. Sokal, B. Michalak, P. Uziębło, Lex, Warszawa 2013, s. 50–51.
45. I. Hacia, *Ewolucja amerykańskiego prawa wyborczego*, „*Studia Wyborcze*“, 12, 2011, s. 67–68.
46. Ушаков Д. Н. Филиация // *Толковый словарь*. 1935.
47. Сысенко А. Р. Понятие внешности человека в криминалистике : [арх. 16 октября 2016] // *Вестник Омской юридической академии*. — 2015. — Т. 29, № 4. — С. 72—74. — ISSN 2410-8812.
48. Маркичев В. Н., Дударь А. И., Хусяинов Т. М. Использование субъективного портрета в работе правоохранительных органов: теория и практика : [арх. 17 октября 2016] // *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*. — 2016. — № 5—1. — ISSN 2224-0152.
49. Академик.ру. хабеас дата // *Большой юридический словарь*. — 2010. // *Большой юридический словарь* / В. А. Белов и др.; Под ред. А. Я. Сухарева, В. Е. Крутских. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : ИНФРА-М, 2001. — 703 с. (Библиотека словарей "ИНФРА-М" : БСИ).; ISBN 5-16-000169-7.
50. inauguro // *Lewis and Short Latin Dictionary*. Дата обращения: 8 мая 2018. Архивировано 3 апреля 2022 года.
51. Bardhan P. Corruption and development // *Journal of Economic Literature*. — 1997. — Vol. 25. — P. 1320. [1] *Arxivlandi* 2009-09-20 *Wayback Machine* saytida
52. Кураков Л. П. Военная оккупация. Экономика и право: словарь-справочник. Вуз и школа (2004). Дата обращения: 30 марта 2016. Архивировано из оригинала 8 апреля 2016 года.
53. Греция хочет дружить с Турцией ради объединения Кипра и экономии на армии. *Новые Известия*. Дата обращения: 6 апреля 2016. Архивировано 9 марта 2016 года
54. «Пресса Британии: Россия, Трамп и Ахметшин» Архивная копия от 31 августа 2017 на *Wayback Machine*, BBC, 31.08.2017

55. Кадастр // Исландия — Канцеляризм. — М. : Большая российская энциклопедия, 2008. — С. 374. — (Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. Ред. Ю. С. Осипов ; 2004—2017, т. 12). — ISBN 978-5-85270-343-9.
56. Кадастр // Большой Энциклопедический словарь
57. М. А Баскакова. Кадастр // Толковый юридический словарь бизнесмена. 1995.
58. Jakob Strieder, Aus Antwerpener Notariatsarchiven: Quellen zur deutschen Wirtschaftsgeschichte des 16. Jahrhunderts, 1962, S. 181
59. Борьба с контрафактом Архивная копия от 5 января 2012 на Wayback Machine — Адвокат А. Федоров
60. Лицо никакой национальности. 12 миллионов человек не имеют гражданства. Дата обращения: 18 апреля 2022. Архивировано 18 апреля 2022 года.
61. Learning the Law. "Writ of mandamus and the Indian Constitution". Lex Warriar. India. Archived from the original on 2015-08-19.
62. Хиенкин Д. И. Мораториум // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
63. А. Бекашев // Пустырник — Румчерод. — М. : Большая российская энциклопедия, 2015. — С. 359. — (Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов ; 2004—2017, т. 28). — ISBN 978-5-85270-365-1
64. Encyclopedia of Islam and the Muslim World.
65. Лепидевский Н. История нотариата // Нотариальный вестник. 1997. № 2. С. 46.
66. Нестерович В.Ф. Вплив громадськості на прийняття нормативно-правових актів: проблеми конституційної теорії та практики: Монографія. — Луганськ: РВВ ЛДУВС ім. Е.О. Дідоренка, 2014.
67. Cheung, Helier (2019-03-26). "Brexit debate: Do petitions ever work?". Retrieved 2019-03-26.
68. Brook, Timothy (1999). The Confusions of Pleasure: Commerce and Culture in Ming China, p. 33. University of California Press. ISBN 978-0-520-22154-3.

69. Нестерович В.Ф. Британская модель конституционно-правового регулирования права петиций // *Философия права*. — 2013.
70. Юридический словарь. Дата обращения: 4 января 2011.
71. US Code. Title 18 (Crimes and Criminal Procedure). Part I (Crimes). Chapter 105 (Sabotage). Дата обращения: 26 марта 2008.
72. Теократия // *Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона* : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907
73. Peterson 1998, p. 276-279.
74. Толковый словарь живого великорусского языка : в 4 т. / авт.-сост. В. И. Даль. — 2-е изд. — СПб. : Типография М. О. Вольфа
75. Spitzer, Robert J. (2000). The presidential veto: touchstone of the American presidency. SUNY Press. pp. 1–2. ISBN 978-0-88706-802-7.
76. China Internet Information Center. “China Questions and Answers -- china.org.cn”. Retrieved 11 June 2022.
77. Gupta, V. P. (26 August 2002). “The President’s role”. The Times of India. Archived from the original on 16 June 2012. Retrieved 4 January 2012
78. “The Guardian Council”. Iran Social Science Data Portal. Retrieved 11 June 2022. The Guardian Council has three constitutional mandates: a) it has veto power over legislation passed by the parliament (Majles);
79. Shimizutani, Satoshi (2010). “Local Government in Japan: New Directions in Governance toward Citizens’ Autonomy”. *Asia-Pacific Review*. 17 (2): 114.
80. Додонов В. Н., Ермаков В. Д., Крылова М. А. и др. *Большой юридический словарь*.
81. James Dignan. *Understanding Victims and Restorative Justice*. NY: Open University Press, McGraw-Hill Education, 2005. P. 23